

“FOLKLOR TARIXI”

fanidan

O’QUV QO”LLANMA

Bilim sohasi: 100 000-Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 150 000-San'at
Ta'lim yo'nalishi: 5151600 - Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya)

TOSHKENT – 2021

MUNDARIJA

Кириш.....	4
Miflar.....	7
O'zbek folklori tarixini o'rganish masalasi.....	20
Folklorning o'ziga xos xususiyatlari.....	27
O'zbek folklori tarixiga oid xorijiy manbalar.....	30
Folklor tarixida "Devonu lug'atit turk" asarining ahamiyati.....	46
Janrlar tizimining shakllanishida tarixiy-folkloriy jarayon.....	51
Folklor tarixini o'rganishda og'zaki ijodning tur va janrlari	57
Afsona va rivoyatning janriy belgilari.....	66
Ertak janri va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	77
Doston janri va uning xususiyatlari.....	92
Xalq qo'shiqlarining janr xususiyatlari.....	106
O'zbek bolalar folklori.....	117
Xulosa.....	122
Adabiyotlar ro'yxati.....	124

KIRISH

“Folklor tarixi” fani buyicha ishlab chiqilgan o’quv qo’llanma insoniyatning ilk madaniy boyligi hisoblangan xalq og’zaki so’z san’atini o’rganish, uning shakllanishi, ijtimoiy ong shakli darajasiga yetishi va keyinchalik taraqqiyot jarayoni davomida vujudga kelgan san’atning tur va janrlari uchun manba vazifasini bajarganligi haqida bilim va ko’nikmalar berishga xizmat qiladi. Ma’lumki, barcha barcha ijtimoiy ong shakllari insoniyatning ma’naviy-ma’rifiy, g’oyaviy-falsafiy rivojlanishiga xizmat qilgani tufayli har biriga xos tarixini o’rganish jahon ilm-fani talablari nuqtai nazaridan qabul qilingan. Talabalar o’quv jarayoniga tavsiya etilgan “Folklor tarixi” o’quv qo’llanmasi ham xalq ijodiyoti va filologik sohalar mutaxassisligi yo’nalishida tahsil oluvchilar uchun mo’ljallangan.

Insoniyatning uzi yashayotgan zamin va uni urab turgan tabiat va koinotni idrok etish va tugilgan tasavvurlarini bir-birlariga bayon etish so’z-nutq vositasida amalga oshirilgani, odamlar orasidagi nisbatan fantaziyasi kengroqlari uni tinglovchilarda o’zga taassurot qoldirganlari xalq ijodining ilk san’atni anglatadi. Buni 21-asrga qadar yetib kelgan eng qadimgi mif va afsonalar misolida ko’rsatish mumkin. Chunki fan-texnika va axborot texnologiyalari yuksak darajada rivojlangan zamon odamlari tushunchalarida hamon saqlanib kelayotgan turli udumlar, irimlar va har xil xurofotlarga hamon inonch tuyg’usdagi karashlar ham isbotlaydi. Zotan, shunday tushunchalar borki, ularning asl mohiyati va mavjudligi zamonaviy fan dunyosida hamon aniqlanmagan. Masalan, mashhur ingliz fizigi yerning gravitatsion tortish kuchi haqida kashfiyot etgani bilan samoviy jismlar orasidagi o’zaro bog’lanishlar to’g’risidagi masalaga kelib, uning yechimini topa olmagach, teologiya fani, ya’ni diniy bilim bilan shug’ullanishga o’tganligi birgina misoldir. Folklor-xalq og’zaki so’z san’ati donishmandligi, ta’bir joyiz bo’lsa, tirik odamga xos bo’lgan taqdir, qismat, ichki qalb kechinmalari va hech kanday fan-texnika, mo’jizaviy texnologiyalarga bo’ysunmaydigan rang-barang shakl va

kurinishda inson bolasining aziz va mukarram ekanligini ko'rsatadigan betakror go'zal tuyg'ular silsilasidir. Qo'llanmaning yana bir yangi xususiyati shundaki, zamonaviy talabalar axborot olishning turli vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ko'pligi, ular orasidan bevosita fol klor tarixiga taalluqlisini ilmiy-nazariy jihatdan tushunishlarida shaxsiy arxiv materiallari va xulosalarni tavsiya etamiz. Chunki talabaga tayyor ma'lumotlardan ko'ra uni mushohadalashga ko'niktiruvchi fikrlar uyg'otish yangi pedtexnologiyalar metodikasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

“Folklor tarixi” o'quv qo'llanmasi Uchinchi Renessans poydevorini qurishda ishtirok etadigan bo'lajak fol klor-etnografik soha mutaxassislariga xalqimizning yer yuzida yashovchi boshqa etnoslar orasida o'ziga xos milliy madaniyat va salohiyatga egaligini ko'rsatishga yordam beradi.

Yangilanayotgan O'zbekistonning odamlar ongi va dunyoqarashida sodir bo'layotgan o'zgarishlari faqat dunyo ilm-fani bilan bog'liq ta'sirdan emas, balki mustaqil yurt Rahbari tomonidan olib borilayotgan yuksak ijtimoiy-iqtisodiy siyosati natijasidir. Buni 2017-2021 yillar bevosita xalq og'zaki ijodiyoti va milliy madaniyatga oid qator davlat miqyosida qabul qilingan Qarorlar va xalqaro yo'nalishdagi tadbirlar misolida ko'rsatish mumkin. Ana shunday xalqaro fol klor festivali 2019 yil xalq og'zaki ijodiyotining qadimiy maskanlaridan biri -Termizda o'tkazilgan edi. Festivalga tashrif buyurgan 176 xorijiy fol klor ixlosmand olimlari va ko'pining sonli ishtirokchilari Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning xalq og'zaki milliy san'atiga bo'lgan haqiqiy mehr-muhabbatlarini ko'rishib, fol klor merosi globallashuv davrida insonyat ma'naviy-madaniyatida nechog'lik bebaho boylik ekanligini angladilar. Prezidentimiz xalq ozaki so'z san'ati insoniyat yaratgan o'tmish qo'shig'i va kelajakning yangroq ovozi ekanligini kerakli faktlar orqali dalillab berganlarida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosat naqadar xalqchilligi, siyosatdonlar ta'biri bilan aytganda, xalq demokratiyasi bilan sug'orilganligini yana bir karra tasdiqlaydi. Binobarin, jahonning barcha taniqli fol klorshunoslari fol klor tom ma'nodagi demokratik san'at ekanligini ko'p marotaba ta'kidlaganlar. Prezident tomonidan fol klor tarixini dunyoga faktlar orqali namoyish etish va uning butun bashariyat uchun zarur ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun

yurtimizdagi jonli ijroda saqlanib kelayotgan baxshichilik san'atiga e'tibor qaratganlari bejiz emas. Chunki bu an'ana bugungi axborot texnologilar yuksalgan bir davrda insoniyatning eng qadimgi beshiklik davridan saqlanib kelayotganligi va butun his-tuyg'u va ichki kechinmalarini qamrab olayotgan fan-texnika inqilobi davri odamlari qalbini yumshatish va mehr-muhabbat, insoniylik singari otabobolar ming yillar mobaynida orzu qilib kelgan ideallarni singdirishga xizmat qiladi.

“Folklor tarixi” o'quv qo'llanmasi faqat xalq ijodiyoti donishmandligi bo'yicha shug'ullanuvchi mutaxassislardan tashqari, barcha ijtimoiy ong shakllari bilan ish olib boradigan tarbiyachi-murabbiylar, tarixchi-etnomadaniyatchilar, san'atshunos va madaniyatshunoslar uchun ham tom ma'noda ahamiyat kasb etadi. Chunki, so'z san'ati va madaniyatning boshlanishi folklor ekanligi isbot talab etilmaydigan aksiomaligi ma'lumdir. “Folklor tarixi” fanini o'rganish folklor san'ati merosini, bugungi zamondoshlarimiz ma'naviy ehtiyojini qondirishda katta muhim manba vazifasini o'taydi. Bu fan milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadi, ya'ni folklorshunoslikning an'anaviy tur hamda janrlarni amaliy va nazariy jihatdan bosqichma-bosqich o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek folklorining so'z san'atiga asoslangan janrlar tizimi doston, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og'zaki drama, maqol va hikmatli so'zlar, afsun, avrash, olqish va qarq'ishlardan iboratdir. Bu ulug'vor badiiy meros ajdodlarimiz poyetik tafakkurining mahsuli o'laroq shakllangan. Har bir janrga oid folklor materiallari o'ziga xos poetik tizimi, ijro usuli, hayotiy-maishiy vazifasi, musiqaga munosabati, voqeylikni badiiy aks ettirish tarzi va boshqa jihatlariga ko'ra bir-biridan farqlanib turadi. Xalqimiz orasida folklorshunoslikning yuqori malaka va salohiyatiga ega bo'lgan ijodiy maktablari shakllangan bo'lib, ularning merosini o'rganishda “Folklorshunoslikka kirish” fanining ning o'z o'rnini bor.

Xalq ijodiyotida mujassamlashgan yuksak ma'naviy barkamollik an'analari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishning milliy negizi

hisoblanadi. Shu bois o‘zbek xalq ijodining boy va serqirra an‘analarini qayta tiklab, keng rivojlantirish, yoshlarning bugungi kundagi ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yetarli darajada imkoniyatlar yaratish uchun folklor va etnografiya bo‘yicha mutaxassislarini tayyorlash amaliy ahamiyatga egadir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun ham mamlakatimiz ma’naviy hayoti uchun g‘oyat zarur bo‘lgan shunday malakali, intellektual salohiyati yuqori, ma’naviy olami teran mutaxassislarni tayyorlash lozimligini taqazo etadi. Folklor va etnografiya yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislari tayyorlashning milliy negizi – xalqimizning ma’naviy qadriyatlarini yanada takomillashtirish, ommaning ijodiy iqtidorini o‘stirish, yosh avlod ongiga mustaqillik mafkurasi g‘oyalarini, milliy qadriyatlarni singdirishdan iborat. Chunki bunday mutaxassislar ajdodlarimiz ijodiy salohiyatining eng yaxshi an‘analarini kelgusi asrda ham davom ettirishni ta’minlashga o‘z hissalarini qo‘shmog‘i kerak.

Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o‘ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi xalq og‘zaki ijodi folklorshunoslikning nodir manbalaridan hisoblanadi. Folklor asarlari ona diyorumizda yuksak madaniyatni bunyod etgan ulug‘ ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-intilishlari, urf-odat va marosimlari, an‘analari-yu o‘zbekona samimiyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir.

An‘anaviy xalq ijodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur biladigan, mustaqillik davri o‘zbek folklorining taraqqiyot qonuniyatlarini teran anglaydigan xalqning ma’naviy ehtiyojlari va qiziqish doirasini yaxshi tushunadigan, havaskorlik ijodiyotini tashkil qilish, boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini to‘la o‘zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababli ham mazkur sohaning ilmiy salohiyatini takomillashtirishda “Folklor tarixi” fanini o‘qitish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Miflar

Dunyodagi barcha xalqlar madaniyati tarixi ota-bobolari tomonidan ilk ijod mahsullari hisoblangan miflardan boshlangan. “Mif”san'at va madaniyatga oid lug'atlarda asotir, afsona va uydirma kabi so'zlar bilan izohlanadi.

O'zbek fol kloriga tarixi ham qadimgi avlodlarimizning tabiat va koinot, o'zlarini o'rab turgan borliq hamda yashash uchun kurash jarayonida aql-idroklari yetmagan turli voqea-hodisalar to'g'risida to'qilgan sodda tasavvurlari, ilk fantaziyalaridan iborat.

Miflar insonning hayot haqidagi birinchi mulohazga yetaklagan ijodiy tasavvuri hisoblanadi. Bu haqda eramizdan avval taxminan 459-370 yillar mifologiya bilan shug'ullangan Yunon faylasufi Demokrit miflar inson o'z hayotni ilk o'rganishga intilgan ehtiyoji va tajribasi in'ikosidir, degan edi.

Agar o'zbek fol kloriga tarixida yaratilgan va ayrimlari hanuz yashab kelayotgan miflar hisobga olinsa (irimlar, fol, tush ko'rish va h.k.), qaysi bir ma'noda insonning ichki dunyosi bilan uni o'rab turuvchi borliq o'rtasida hanuz yechimini topmagan odamni o'ziga ishontiruvchi tushunchalar sifatida ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan fantaziya hisoblanadi. Masalan, tush ko'rish, folga ishonish, turli irimlar hanuz ahamiyatini yo'qotmay kelayotir. Nisbatan insoniyat hayotiga kirib kelgan Islom dini tomonidan inkor va man' qilingan mifologik qarashlar insoniyatning qadimiy san'ati naqadar chuqur ildizga egaligi va odamzodning qon-qoniga singib ketganligidan dalolat beradi.

O'zbek miflarining qadimiyligi va o'ziga xos biror vazifa bajarishi odamlarning hayotiy-maishiy turmush tarzida davom etishidan tashqari, bizga qadar yetib kelgan nomoddiy madaniyati an'analarida ham ko'zga tashlanadi. Chunonchi, etnik tizimdagi turli urf-odat, marosim va keng masshtabda o'tkaziladigan bayram-sayillarida foydalaniladigan mifologik ramzlar, obrazlar va raqslar bunga misoldir.

2020 yil aprelda “Lazgi” raqsining nomoddiy madaniy meros sifatida YuNESKO tomonidan e'tirof etilish va uni har ikki yilda Xalqaro festival tadbiri

sifatida nishonlanish to'g'risidagi Davlat Qarori dalildir. Chunki "Lazgi" raqsi tom ma'nodagi "Avesto"ning Mitra timsolini inson vujudi harakatlari bilan badiiy ifodalovchi o'yin ekanligi san'atshunoslar tomonidan ilmiy asoslangan. Bundan tashqari, xalqning etnik turmushidagi turli to'y marosimlarida qo'llanayotgan mifologik irimlar, udumlar va so'z magiyasi aytilmlari bizga qadar yetib yetib kelgan namunalari, desa mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, "Beshik to'yi", "Nikoh to'yi", "Muchal to'yi" singari o'tkazilayotgan marosimlar mifologik an'analarsiz o'tmasligi barchaga ma'lum.

Oilada farzand dunyoga kelishi barcha xalqlarda o'ziga xos xursandchilik bilan nishonlanib kelingan. Mana shu voqea albatta biror ritualsiz o'tmaydi. O'zbeklardagi "Beshik to'yi" deb nomlanadigan mazkur marosimda chaqaloqning dunyoga kelishida onaga birinchi yordam beradigan doydadan tortib, uni ilk cho'miltirish, ism qo'yish va beshikka belashgacha bo'lgan turli jarayonlarda qo'llaniladigan har xil predmetlar, go'dak sha'niga bayon qilinadigan aytilmlarda odamlar ko'ziga ko'rinmas arvoqlari jinlar, tashqi odamlarda bo'ladigan yomon nazarlardan saqlanish bilan bog'liq tasavvurlar, ya'ni mifologik tushunchalar o'rin olganligi namoyon bo'ladi. Masalan, beshikni iloji boricha odamlarga manzur bo'lgan tut, tol kabi daraxtlardan yasalishi yoki chaqaloqqa "it yoqali" ko'ylak kiydirilishi va beshikka ko'z munchoq yoki tumor osib qo'yilishi holatlarida bolani turli kasalliklar, yovuz ruhlar va yomon "nazarli" odamlardan himoya qilish nazarda tutiladi. Bu haqda fol klorshunos olim, professor M.Jo'raevning "Marosimnoma", "Fol klorshunoslik asoslari" va umuman mifologiyaga bag'ishlangan ilmiy asarlarida batafsil ma'lumotlar berilgan. Darhaqiqat, insoniyat ulkan fan-texnika yutuqlari va son-sanoqsiz axborotlar ummonida yashayotganidan qat'iy nazar, baribir tirik va ongli mavjudot sifatida taqdir va qismatga ishonishi mifologiyadan voz kecha olmasligini hayot haqiqatlari tasdiqlab turibdi. Chunonchi, miflarning yaratilishi ham tasodif emas. Insonlar qaysi zamonlar va qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashamasin, o'zini o'rab turgan muhitda doimo yashash uchun kurash ehtiyoji asosida manfaatini himoya qilib kelmoqda. Bular: yaxshilik bilan yomonlik, ochlik bilan to'qlik, sog'liq bilan xastalik, ezgulik bilan

yovuzlik, xotirjamlik bilan tashvishlik va boshqa bir-biriga antonim tushunchalar ummonida hayot kechirib keladi. Shularning aksariyati inson umumiy manfaatlariga zid tushunchalar bo'lib ularning asl ma'nosi haqida ma'lumotlarga ega bo'lmaydi. Natijada qadimgi ajdodlar hayot kechirish usulida an'ana bo'lib kelayotgan mifologiyaga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Demak, mif va u bilan an'analar insoniyat tamadduni rivojlangani bilan, baribir, biror diniy e'tiqod bag'rida yashayveradi. Zero, 21-asrning eng ustasi farang komp yuter dasturchisining bo'ynida biror tumor yoki tanasining biror qismida yarim oy, xoch, ilon va biror jonivorning mifik timsol tushirlanganligi fikrga isbot bo'la oladi.

Mif va mifologiya bilan shug'ullangan xorijlik E.Taylor, Dj.Frezer, M.Kosven, Ye.Meletinskiy, A.Veselovskiy kabi olimlar insoniyatning bu ilk madaniyati namunalarini odamzodning umum taraqqiyot qonunlari bilan bog'lab o'rganishgan. Miflardagi animizm, totemizm va fetishizm singari holatlariga misollar orqali baho berishgan. O'zbek fol kloriga tarixida ham insoniyatning ilk madaniyati namunalari xalq orasidan yozib olinib, ularning ijtimoiy ahamiyati va bugungi kunlarga qadar yashab kelish sirlari ustoz fol klorshunoslar Hodi Zarif, To'ra Mirzaev, G'ulom Akramov, Komil Imomov va 21-asr fol klorshunoslari Asqar Musaqulov, Mamatqul Jo'raev, Shomirza Turdimov va Jabbor Eshonqulov kabi olimlarimiz tomonidan o'rganilgan va bu jarayon hanuz davom etmoqda. O'zbek fol klorshunoslarining eng buyuk xizmatlari mifni xalqning nomoddiy madaniy merosiga bog'lab, ilmiy-nazariy tadqiq qilinishida namoyon bo'ladi. O'zbek fol kloriga tarixining eng yorqin sahifasida mif bilan bog'liq qadriyatlar turadi. Miflar odamlarning sodda tasavvurlari bo'lishlariga qaramay, keyinchalik tafakkur taraqqiyoti uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki miflarning bosh mavzusi ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashdir. Insoniyat tarixidagi taraqqiyot davomida yaxshilik bilan yomonlik tushunchalari doirasi kengaya borib, jamiyat yuzaga kelgach, odamlar ongida mifning asosiy mavzusi ko'lami ham ortadi. Ayniqsa, odamlar orasidagi tabaqalanish, sinflarning paydo bo'lishi og'zaki so'z san'atida fol kloriga jarayonni yuzaga keltiradi. Insoniyatning umumiy taraqqiyotida ilgarigi sodda mazmundagi miflarga zarurat qolmagach, og'zaki so'z

san'atida miflarning o'rnini batafsilroq to'ldiradigan va tinglovchiga badiiy jihatdan ta'sir etuvchi shakllar maydonga keladi. Demak, shu tariqa boshlangan fol kloriy jarayon miflar bag'rida ommaviylashgan. O'zbek fol klorshunosligi xorijlik tadqiqotchilardan farqli o'laroq mifning yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, jasurlik va qo'rqqoqlik singari ilk tasavvurlari fol klor namunalari aks etish hodisalari qay darajada kechganligini ijtimoiy taraqqiyot qonunlari nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy o'rganib, fol klorshunoslik, madaniyatshunoslik va etnologiya fanlari uchun muhim fikr-mulohazalar berdilar. Buni ustoz fol klorshunos Hodi Zarifov, To'ra Mirzaev kabi ilmiy maktab yaratgan olimlar yaratgan fundamental tadqiqotlar misolida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular xalq orasida jonli ijroda yashab kelgan xalq dostonlaridagi mif va unga xos o'rinlarga etnomadaniyat yo'nalishida baho berishib, miflardagi yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlikning xalq idealidagi yechimini ishonchli faktlar orqali asoslab bergan edilar. Ustozlar yaratgan ilmiy maktab davomchilari insoniyatning o'zi istiqomat qilayotgan zamonlardagi odamlar doimo yaxshilik va ezgulikka intilishganligi, orzularini real hayotda amalga oshirishlari mushkulligini bilishgach, orzu-umidlarini turli afsona va rivoyatlar, ertak va doston qahramonlari timsollari orqali bayon etishganligini fol klor namunalari ilmiy tahlillari yordamida xalqning millat bo'lib yetishishi yo'lida xizmat qilganliklarini aniqladilar. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining ma'naviy-madaniy sohadagi tashabbuslar bevosita xalq milliy qadriyatlarini ruhida ekanligini Yurtboshining yoshlar bilan olib borilayotgan ko'rsatmalari, yangi davr milliy madaniyati bo'yicha bayon etilayotgan fikr-mulohazalari orqali ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, fol klor tarixining ibtidosi hisoblangan mif va mifologik tasavvurlar odamzodning hayotga nisbatan ilk badiiy qarashlari, deyilsa xato bo'lmaydi. Chunki yashash uchun kurash ehtiyoji insonning foyda va zararni farqlashga yordam beradigan ilk ma'naviy tajribalari bo'lib, ular dastlab miflar ko'rinishida namoyon bo'lgan. Demak, mif va mifologiya keyinchalik maydonga kelgan so'z san'atining og'zaki shakli uchun tarixiy asos bo'lgan. Masalan, xalq afsonalaridagi tarixiy shaxslar timsoliga oid badiiy uydirmalar, biror tarixiy

voqelikni baholashga xizmat qiladigan mahobatli mubolag'alar, insonning tug'ilishi bilan bog'liq afsonalar va biror toponim-jo'g'rofiy joylarning paydo bo'lishini qadimgi odam nuqtai nazaridan baholanadigan afsonalar, rivoyatlarni misol keltirish mumkin. Mif xalq og'zaki so'z san'atining manbai sifatida insoniyat madaniy-maishiy tarzida dunyoni tushunish yo'lidagi harakatlarida e'tiqod vazifasini ham egallagan. Buni 21-asr o'zbek etnomadaniyatida mavjud bo'lgan turli urf-odat, udum, marosim va bayramlari ijrosida qo'llanib kelayotgan mifologik timsollar, so'z magiyasi aytimlari va qo'shiqlari misolida kuzatish mumkin. Bularidan tashqari, Yer kurrasida istiqomat qilib kelayotgan ko'pgina etnoslar madaniy hayotida miqlar asosiy timsol rolini o'ynaydi. Masalan, Hindiston, V etnam, Tailand singari mamlakatlardagi uyushtirilayotgan ko'pgina ommaviy-badiiy tadbirlarda ilon, maymun, sigir va afsonaviy timsoli ishlangan ajdarho, dev yoki ilohiy ma'budlarning haykallari, turli materiallardan ishlangan obrazlari hanuzgacha ommaning inonchlari hisoblanishi mifning nechog'lik inson qoniga singib ketganligidan darak beradi.

Fol klor tarixidagi yana bir muhim hodisa-miqlarning badiiy personaj va obrazlar ko'rinishida og'zaki so'z san'atining ijtimoiy mohiyati yana keng rivojlanishiga bo'lgan transformativ jarayonidir. Inson jamiyat bo'lib yashay boshlagan paytdan ilgari odamlarga faqat kuchli ishonch uyg'otgan yoki o'ta qo'rquv solgan miqlar afsona, rivoyat, ertak va doston kabi epik tur janrlari orqali xalq idealini gavdalantiruvchi qahramonlarga aylangan. Masalan, Hazrati Hizr, Er Hubbi, Ilon og'a, Mohistara, Ayoq, Alpomish, Go'ro'g'li, Rustamxon va boshqa hozirgacha tinglovchilarga zavq beradigan fol klor obrazlari shular jumlasiga kiradi. Ilgari mifologik timsol sifatidagi bu obrazlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonida xalqni turli yomonliklardan asrashga, ommaning ezgu-istaklari va kelajak to'g'risidagi orzulariga qanot bo'ladigan fol klor qahramonlariga aylanishgan. Ular avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdlarga o'tib, bizga qadar yetib kelganlar. Yurtimizdagi fol klor namunalari fan-texnika va axborot texnologiyalari rivojlanmagan davrlarda ijtimoiy-madaniyatning eng muhim ma'naviy-axloqiy va milliy qadriyatlari sifatida xizmat qilgan. Xalq o'zining estetik ideallarini insoniy

fazilatlarga boy, tinglovchiga ibrat bo'la oladigan qahramonlar tarzida tasvirlagan. Afsona va rivoyat aytadigan so'zga chechan odamlar o'zlari hikoya qilayotgan qahramonlar yoki voqealarga shu darajada go'zal tasviriy ifodalar berganki, ulardan zavqlangan tinglovchida o'ziga xos taassurot hosil bo'lgan va uning aql-idrokida salbiy narsalarga nisbatan inkor tuyg'usi paydo bo'lgan. Masalan, To'maris, Shiroq, Shirin qiz, Kenja botir, Jaloliddin Manguberdi va Amir Temurga bag'ishlangan epik janr namunalarini misol keltirish mumkin.

Xalq o'z o'tmishini ulug'lashi, qahramonlarni ulug'lashi orqali miflardan bahramand bo'lishi kelajakdagi hayotiga nazar tashlashidan dalolatdir. Miflardagi ijobiy va salbiy qarashlarning fol klor janrlarida aks etishi insoniyat umumiy taraqqiyotiga hech qachon zid emas, balki ulardagi ilk qarashlar ijtimoiy turmush axloq-odob normalarini yanada kuchaytirish, amaliy ahamiyatiga urg'u berishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, "Go'ro'g'li" dostonidagi mifologik - g'ayri-tabiiylik bilan yaratilgan bosh qahramon jamiyat axloq normalariga mos ideal shaxs sifatida xalqning orzu-maqсадlari yo'lida xizmat qiladigan timsolga aylanishi tarixiy-fol kloriy jarayon an'anaviy qonunlariga mos fol klor obraziga aylanadi. Taniqli fol klorshunos Ye.Meletinskiy xalq og'zaki ijodida g'ayri-tabiiy holat yoki yer usti, yer osti va koinot dunyolari bilan bog'liq miflar qadimgi ya'ni ibtidoiy odamning hayotni o'z manfaatiga mos tasavvur qilishning eng sodda ko'rinishdagi badiiy in'ikosidir, degan edi. Buning ma'nosi shuki, hali olam sirlarini tabiat qo'ynida sodir bo'ladigan turli-tuman hodisalar, manzaralar va o'zgarishlar ko'zga ko'rinmas homiy yoki yovuz kuchlar orqali amalga oshadi. Chunonchi, Go'ro'g'lining vafot etgan onadan tug'ilishi, unga yashash uchun ko'rinmas homiy tomonidan hayot bag'ishlashi, go'dakning kelajakda odamlarga yordam beruvchi qahramon sifatida ideal obraz ekanligi oldindan orzu qilingan mifik tasavvurdir. Darhaqiqat, doston syujetining keyingi voqealari bevosita Go'ro'g'i sarguzashtlaridan iboratligi mifologik orzuning keyinchalik qay darajada badiiy-g'oyaviy g'oya taraqqiyotiga yordam berganligini tasavvur etish qiyin emas. Arxaik ahamiyatga ega bo'lgan mifologik tushunchalarning insoniyat ma'naviy-madaniyatidagi estetik o'rnini "Alpomish" dostonidagi bosh

qahramonning tug'ilishi voqeadan tortib, sarguzasht voqealari davomidagi turli mifologik motivlar, detallar va tushunchalari orqali kuzatish mumkin. Masalan, uning alplik darajasiga yetishi, afsonaviy Boychibor oti, Alpomishning zindondan qutulishiga yordam bergan g'oz obrazi va boshqa mif bilan bog'liq o'rinlar shular jumlasiga kiradi.

Taniqli o'zbek fol klorshunoslari M.Jo'raev va J.Eshonqulovlarning 2020 yil chop etilgan "Fol klorshunoslikka kirish" nomli o'quv qo'llanmada mif, mifologiya, mifolgiyaning jahon va o'zbek fol klorshunosligida ilmiy-nazariy o'rganilishi, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar va kamchiliklarni tahlil etish bo'yicha muhim hamda kerakli ma'lumotlar berilgan. Har ikkala olimlarimiz o'zbek fol kloridagi mif va mifologik tasavvurlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqida qimmatli fikr-mulohazalarini ishonchli misollar tahlili orqali bayon etganlar.

Ma'lumki, mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Hali o'zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o'z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'zini o'rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni borlig'icha qabul qilgan. Moddiy olamdagi

voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo'lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro'y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e'tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mif - qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir.

Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o'simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida baholangan. M.I.Steblyn-Kamenskiyning ta'kidlashicha, "mif - bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya'ni "mif - uydirmadir" degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan".¹

O'tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan-avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. YA'ni mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Mifologik tasavvurlar ibtidoiy udum va marosimlarda ritual o'yinlar sifatida namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati asarlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

¹ Стеблин-Каменский М.И. Миф. - Л: Наука, 1976. С.4-5.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiy fantastik tushunchalarini o'zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo'linadi. 1) **ibtido haqidagi miflar** (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); 2) **samoviy miflar** (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); 3) **antropogenik miflar** (g'ayrioddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy personajlar haqidagi miflar - masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi haqidagi miflar); 4) **kult miflari** (muayyan e'tiqodiy inonchlar bilan bog'liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar); 5) **totemistik miflar** (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan); 6) **kalendar miflar** (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar - masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chillar, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) **o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar** (masalan, Siyovush haqidagi mifologik syujetlar); 8) **animistik miflar** (jon to'g'risidagi qadimgi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan miflar); 9) **manistik miflar** (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar); 10) **dualistik miflar** (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar); 11) **esxatologik miflar** (olamning intihosi, oxir zamon to'g'risidagi miflar).

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning qadimiy vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblanadi. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi miflar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta

Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O‘zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy inonchlardangina iborat bo‘lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o‘z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e‘tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tushunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so‘z san’ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o‘z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o‘zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g‘oyasi bo‘lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun zamin vazifasini o‘tagan.

Ezgulik kuchlarining kaos(zulmat)ni o‘ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o‘zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so‘z vositasida talqin qilish an’anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so‘z san’atining turli janrlariga singib ketgan. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotidagi ko‘plab epik syujet va an’anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar “Avesto”, “Iliada”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Kalevala”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi buyuk badiiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.

Qadimgi mifologik tasavvurlar va asotiriy syujetlar badiiy tafakkurning shakllanishi hamda taraqqiyotida o‘ziga xos sarchashma vazifasini o‘taganligi uchun ham xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san’at asarlarida mifologik negizga ega bo‘lgan ko‘plab asotiriy personajlar uchraydi. Mifologik

tasavvurlar asosida kelib chiqqan bunday obrazlar xalq xayoloti va voqelikni fantastik talqin qilish an'anasining mevasidir. Mifik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelik mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chirganligi uchun ham uning shakliy tajassumi hisoblanadi.

Mifik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma - fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon" hamda "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Mif qadimgi odamning ishonch-e'tiqodlari, o'y-xayollari, diniy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so'z vositasida ifoda etilgan ko'rinishlaridan biridir. Mifni ibtidoiy odam ma'naviy olamining muayyan ehtiyojlari, ya'ni o'z dunyoqarashini bayon etish zarurati yuzaga keltirgan. Voqelikni badiiy idrok etish an'anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Demak, mifning mohiyati, turlari, o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi, mifologik syujetlarning epik diffuziyasi va folklor asarlari tarkibidagi poetik vazifalari kabi masalalarni o'rganish mifshunoslikning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Insonning tabiatga qaramligi, sirli tabiiy hodisalar oldida ojizligi va ular bilmaydigan kuchlarni bo'ysundirish yoki yomonliklaridan qo'rquv tuyg'usi ularga atab turli qurbonliklar qilish, yolvorish hamda murosaga kelish istaklari singari tasavvurlar muayyan qiyofada aks etuvchi miflarning timsollari paydo bo'lishi

uchun ilk ijodiy mahsullar dunyoga kelgan. Isonlar o'zlari bilan hayvonlar o'rtasiga chegara qo'yish jarayoni shakllangach, mif va mifologik tasavvurlar ham odamlar turmush tarziga mos tushunchalar sifatida namoyon bo'la boshlagan. Bu jaryon odamlarning hayot kechirish ehtiyojlari yo'nalishida avlodlar davomiyligini saqlash, tabiatda sodir bo'ladigan turli hodisalarga munosabat bildirish va, eng asosiysi, mehnat faoliyatlari davomida sodir bo'lgan. Masalan, maymun nisbatan boshqa jonivorlarga qaraganda inson tana tuzilishiga o'xshasa-da, birorta maymun mehnatni odam singari bajara olmaydi. Chunonchi, hech qachon qo'pol qilib bo'lsa ham tosh-pichoq yoki o'zini himoya qiladigan qurol yasay olmaydi. Zotan, odamzod yuqorida ta'kidlanganidek, farzandlari va oilasini himoya qilish uchun betinim izlanishlarni boshidan kechirgan. Demak, miflarda asta-sekin sif o'zgarishga o'tishi ya'ni ong bilan bog'liq ma'naviy turmush mazmuniga singib borishi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan bevosita bog'liq. Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan mif va mifologik tasavvurlarning paydo bo'lishi, ularning keyingi inson madaniyati yuzaga kelishi uchun manba ollini bajarishi dunyo fol klorshunos olimlarini qiziqtirib kelmoqda. Buni eramizdan oldingi xitoy, rim-yunon tarixchi olimlari va eramizning 13-15-asrlari arab, yevropa olimlari hamda Turkiston o'lkasi chorizm tomonidan istilo etilganidan to mustaqillikka qadar rus olimlari tomonidan o'rganib kelinayotganligida kuzatish mumkin. Fikrimiz misoli sifatida rus fol klorshunosi L.P.Potapovning 1928-1930 yillar Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazmda olib borgan fol klor-etnografik ekspeditsiyasida yozib olgan materiallar misol bo'ladi. Binobarin, mazkur ekspeditsiya materiallarini taniqli o'zbek fol klorshunosi, professor Mamatqul Jo'raev 2010 yil "O'zbek fol klorshunosligi masalalari" ilmiy to'plamida xolislik bilan chop ettirib, juda muhim ishni bajarganligini alohida ta'kidlash lozim. L.P.Potapov so'z jodusi bilan bemorlarni davolashda aytiladigan magik duolar, alvasti, jin, pari, mortu, dev singari mifik obrazlar, koinot yoritqichlari haqidagi aytimlar, hamda etnomadaniyatga oid urf-odatlar, udumlar, irimlar, to'y marosimlari va o'zbek mifologiyasiga oid animizm, totemizm, fetishizm

qarashlarini yozib olganligi xorijlik olimlarning yurtimiz miqlariga bo'lgan qiziqishlari nechog'lik katta ekanligini tasdiqlaydi.

Dunyo fol klorshunoslarining xalqimiz etnik turmush tarzi va og'zaki so'z san'tiga nisbatan qiziqishlari hamon so'nggan emas. Ular e'tiborlarining eng so'nggi tadbirlaridan biri 2001 yil Surxondaryoda o'tkazilgan "Boysun bahori" ochiq maydon fol klor festivalidir. Mazkur fol klor festivali globallashuv davrida insoniyatning tabiiy hayot kechirish, jonli ijroda og'zaki so'z san'ati, ya'ni dostonchilik an'analari saqlanib qolgan muhit sifatida jahon fol klorshunos va etnograflarida katta qiziqish uyg'otdi. Natijada, xalqaro YuNESKO tashkiloti "Boysun bahori" va shu yo'nalishdagi fol klor festivallarini O'zbekistonda har ikki yil o'tkazilishini taklif etadi. Chunki fan-texnika inqilobi yuz berayotgan va axborot texnologiyalari kundan-kun yuksak darajada rivojlanib borayotgan bir davrda insoniyatning tabiiy hayot kechirish takomilida uning aql-idrok faoliyati, tirik odam uchun kerakli bo'lgan go'zallikni his qila olish, ichki kechinmalar orqali dunyoni anglash, haqiqiy sevgi-muhabbat tuyg'ularini xalq qo'shiqlari, termalari, doston ijrosi, tabiat bilan hamohang sibizg'i kuylari-yu, do'mbira nag'malari ta'sirida o'zini odam farzandi ekanligini his qilishga chorlash zarurati tug'ilganligi bashariyatga allaqachon ma'lum bo'la boshladi.

Demak, buloq suvi kabi musaffo fol klor madaniyati merosi 21-asrga kelib, insoniyat umumiy ma'naviyati taraqqiyoti uchun ilgariga qaraganda yana ko'proq zarur ehtiyojga aylandi. Shuning uchun ham, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2019 yil aprel oyi fol klor va etnomadaniyat an'analari nisbatan ko'proq saqlanib qolgan Surxondaryoda o'tkazilgan "Baxshilar san'ati Xalqaro fol klor festivalini tashkil etish va dunyo jamoatchiligini fol klor insoniyatning "Bolalik qo'shig'i" deb baholaganlari va bu betakror san'atni o'tkazishda tashabbus ko'rsatganlarida juda ulkan ma'no bor. Yurtboshimiz mazkur anjumanda fol klor san'atini "kelajakning yangroq ovozi" ekanligini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatib qo'yganlari o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi.

Fol klorimiz tarixining ilk namunalari hisoblangan miqlar xalq og'zaki so'z san'ati taraqqiyot jarayonida ijtimoiy-madaniyatga xizmat qilib kelgan lirik, epik,

dramatik va paremiologik turlardan iborat janrlar tizimi shakllanishi manba bo'ldi. Ular esa, o'z navbatida, insoniyat ma'naviy-madaniyatining milliy ruhda rivojlanish yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan san'at olami ravnaqi uchun hamon ruhiy manba vazifasini bajarmoqda.

O'zbek folklori tarixini o'rganish masalasi

Har bir fanning asosiy mohiyatini bilish uchun uning tarixi to'risida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Ayniqsa, ijtimoiy ong shakli hisoblangan xalq og'zaki so'z san'ati tarixi boshqa fan sohalariga nisbatan alohida ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, fol klor badiiy adabiyot, falsafa, tarixshunoslik, etnologiya, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik, pedagogika, axloqshunoslik va boshqa ijtimoiy tizimdan o'rin olgan barcha fan sohaları shakllanishida u yoki bu darajada manba rolini bajaradi.

“Folklor” atamasining mohiyati va ma'nosi ko'p marotaba takror va takror ta'kidlangan. U tom ma'noda xalq donishmandligi, xalq donoligi kabi tushunchalarni ifodaydi .Demak, asrlar bo'yi og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga, otadan-farzandga o'tib bizga qadar yetib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, maqol va iboralar, topishmoq va tez aytishlar, qo'shiq va termalar, naql va ertaklar, dostonlar, latifa va loflar, askiya va so'z o'yinlari kabi biri ikkinchisiga mohiyatan o'xshash og'zaki usulda yaratilgan so'z san'ati madaniy merosi tarixiy tizimni tashkil qilib, ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

“Folklor” atamasi og'zaki so'z san'ati ma'nosida qo'llanilsa, yuqorida ta'kidlangan madaniy qadriyatini anglatadi. Biroq AQSh va boshqa ko'plab mamlakatlarda og'zaki so'z san'ati bilan birga etnomadaniyatga kiruvchi, uy qurish, kiyim-kechak, xalq tabobati, xalq pedagogikasi, xalq meteorologiyasi, xalq urf-odat va marosimlari, xalq bayram-sayillari va boshqa ommaviy xarakterdagi barcha an'analar “folklor” ma'nosida qo'llanib kelinadi. Biz o'zbek xalqi o'tmish avlodlari tomonidan og'zaki yo'lda yaratilgan badiiy so'z san'atini alohida ilmiy-

amaliy o'rganish uchun uning tarixiga alohida e'tibor qaratish maqsadida ushbu o'quv qo'llanmani tavsiya etmoqdamiz.

Ma'lumki, inson ma'naviyati haqida qayg'urish kecha yoki bugun paydo bo'lib olgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan beo'xoxo qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutloqa yiroq bo'lgan kishi shu an'analar ichida ulg'aygan, uning ongi, shurri shu qadim an'analari tas'sirida shakllangan bo'ladi.

Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa bularning bari o'zek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qushgan.

Folklor turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi.

«Alpomish» dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, «O'zbekiston xalq baxshisi» degan unvon joriy etildi. 2019 yil Termizda «Baxshichilik san'ati» Xalqaro festivali o'tazildi. Bundan tashqari fol klor an'analari bilan bog'liq «Xalq hunarmandchilik san'ati» Xalqaro festivali va 2022 yil «Lazgi» raqsi bo'yicha Xalqaro festival o'tkazish bo'yicha Prezidentimizning Qarorlari e'lon qilinganligi Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotgan yurtimizda fol klor san'atiga bo'lgan e'tiborning naqadar katta ekanligini ko'rsatadi. Bu esa milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri bo'lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi.

«Alpomish» dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir, –deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'aniyat – yengilmas kuch» kitobida. – Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas doston

*bo'lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi».*² Bu nafaqt «Alpomish» dostoniga, balki, butun folklor asariga, milliy – ma'anaviyatimizga berilgan yuksak bahodir. Shuning ham mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor milliy ma'anaviyatimizni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

Mustaqillik davridan oldin folklor asarlari o'rganilmaganmi, nashr etilmaganmi degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. O'rganilgan, tadqiq etilgan va nashr ham etilgan. Biroq, bu nashrlar mukammal nashrlar emasdi. Ularda ko'plab qisqartirishlar, buzib talqin qilinishlarga yo'l qo'yilgandi. Birgina misol: „Rustamxon” dostonining fol'klor arxivida saqlanyotgan qo'lyozmasida Sul-tonxonning farzandli bo'lish oldidan tush ko'rgani shunday tasvirlanadi.,, Sul-tonxon ul kecha yotib tush ko'rdi. U tushida shunday ayon bo'ldi. Bu xudoy bergan farzanding, Qurudum mamlakatiga safar qilsang, o'n to'rt jil deganda borib kelsang shu bolang turadi, bo'lmasa nobud bo'ladi” (Hodi Zarifov nomidagi folklor arxivi. Qo'lyozma, inv.№ 112 , 6-7 –betlar.).

Bu tush motivi Sul-tonxonning Qurudum malakatiga safarga chiqishining sababini hamda tug'ilayotgan farzand Rustamning oddiy farzand emas, - ilohiyot bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi muhim bir jihatdir. Aytish mumkinki, doston ana tush motivi bilan boshlanadi va doston so'ngidagi voqealar shu tush bilan bog'liq holda kechadi. Biroq „Rustamxon” dostonining 1965 yigi va 1985 yilgi nashrlarida bu motiv tushirib qoldirilgan. Oqibatda Sul-tonxonning safarga chiqishi ham noayon bo'lib qoladi.

Yoxud qulyozmada: Ko'rolmaysan, bildim yolg'iz qo'zingdi, kelgin sarson opa, endi birga jilayik, - deya Ximchaoyim Xuroyimga murojaat qiladi. Bu murojaatda „ Sarson, sargordan, ya'ni avvora bo'lgan opa, kelgin, birga yig'laylik ” , - deyilayapti. Nashrda esa oxirgi misra: “Kelgin, chopson, opa , endi birga yig'laylik” - tarzida berilganki, oqibatda chopson so'zining misradagi ma'nosi noaniq bo'lib qolgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

² Ислом Каримов. Юксак маънавият–енгилмас куч.–Тошкент:Маънавият, 2008. –Б.32-33.

Folklori tadqiq etish borasida mafkuraviy tazyiq va chegaralanishlar ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun mustaqillik davri folklorshunosligi tamomila bir yangi folklorshunoslikdir. Bugungi kunda ham faol ijod qilib kelayotgan T.Mirzayev, O.Safarov, O.Madayev, M.Jo'rayev, SH.Turdimov, J. Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning izlanishlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O'zbek xalq ijodi yodgorliklari»ning 100 jildligi nashr etish yo'lga qo'yildi. Bu loyihaning amalga oshishi shubhasiz mamlakatimiz ma'naviy hayotida ulkan voqea bo'ladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Zero, ma'naviyat masalalari hamm davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. XX asar boshida ma'rifatparvar jadidchilar til, adabiyot va tarbiya masalasi o'z davri uchun muhimligini urg'ulashgan. Bu bejizga emas, millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri – ma'aniviyatidan boshlanadi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voya yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng avvola har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'anaviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartarf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bug'inlarida, maktabgacha ta'limdan to'liq o'quv yurtida til o'qitishda, o'rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur.

Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohadi tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi.

Og‘zakilik, variantlilik folklorning o‘ziga xos xusiyati bo‘lib u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog‘liq ekanligini urg‘ulaydi, ya’ni folklor asarlariga turg‘unlik xos emas, u har galgi ijroda o‘zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor - shunchaki so‘z san’ati namunasigina emas, balki xalqning til zahirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo‘y basti bilan o‘zida aks ettirgan, olis o‘tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o‘zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir.

Folklor asarlarida birinchi navbatda mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga o‘tish jarayoni aks etgan ekan, demak til tarixini o‘rganishda xalq ijodi namunalariga suyanib ish ko‘rish lozim bo‘ladi. Tildagi hech bir so‘z o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u zarurat tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi va yoki o‘zlashadi. Qachonlardir mifologik tasavvurni ifodalagan so‘z keyinchalik o‘zining asl ma’nosini unutib yoki dastlabki ma’no qatlami xiralashib, keyingi ma’no qatlamini yuzaga keltiradi. Bizdagi mavjud ertak, doston, qo‘shiq va boshqa janrlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, folklor asarlarida ko‘proq xalqimizning samoviy jismlar, o‘simliklar olami va hayvonat dunyosi bilan bog‘liq eng qadimga tasavvurlari o‘z ifodasini topgan. Bu tasavvurlar tilimizdagi ko‘plab so‘zlarning kirib kelishiga, obrazli badiiy tafakkur tarzining shakllanishiga zamin yaratgan.

O‘zbek tilidagi «Bo‘ri» so‘zi bugun qaysidir o‘rinda salbiy ma’nodagi so‘z sifatida, bugun ko‘chma ma’noasida ishlatiladi. Biroq dostonlariamizda doimiy ravishda keladigan «Chopinganda bo‘riday» misarlari, jonli tildagi «Bo‘rimi, tulki» iborasi «Bo‘ri» so‘zining yuzaga kelish ildizlari qadimiy, totemistik tasavvurlar bilan bog‘liq ekanini urg‘ulaydi.

Alloma Hodi Zarifov «Folklor asarlarining ilmiy ilmiy va badiiy qiymati ularning lug‘at boyligi bilan belgilanadi» degan edi. Xalq dostonlari o‘zbek tili tarixining serqatlamaliligini va buyoqdorligini o‘zida to‘la mujassam etadi.

Shuning uchun xalq dostonlarining tilini tadqiq etish bir tomondan til tarixning qadimiy ildizlari haqida kengroq ma'lumot bersa, ikkinchi tomondan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilini to'laqonli o'rganishda, uni boyitishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili ijod namunalarida tilimizning dialektologiyasi, leksikologiyasiga oida juda ko'p qimmatli so'z va iboralar mavjud. Bu so'z va iboralarni, ayniqsa xalq ijodining gultoji hisoblangan dostonlarimiz tilini o'rganish nafaqt o'zbek tili, balki umumturkiy til uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan dostonlarimiz tili nafaqt folklorshunoslarimiz uchun, balki tilshunoslarimiz, barcha til o'rganuvchilar uchun ulkan manba va tadqiqot obekti bo'la oladi.

Folklor asarlari leksikasini tadqiq qilar ekanmiz, biz unda hozirda iste'molda bo'lgan sheva va arxaik so'zlar bilan bir qatorda bugungi kunda qadimiy ma'nosi o'zgargan yoki unutilgan so'zlarni ham ko'plab uchratamiz. Tilni o'rgatishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o'rin tutsa, qo'shiqlar, maqol, matallar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir.

Folklorning yozma adabiyotga ta'siri, umuman so'z san'ati haqida ketar ekan, folklor ko'plab san'atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san'at ildizlari folklor bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan bo'lsa o'sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtai nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi.

Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir.

Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir.

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, "xalq donoligi" degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi.

Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini Dastlabki vaqtlarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "og'zaki ijodi" deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarif (1934-35 yillar) tamonidan qo'llanilgan "folklor", "O'zbek folklori" sifatida keng ommalashdi.

Folklor – sinkritik xususiyatga ega bo'lib, barcha san'at turlariga xos elementlarni o'zida mujassamlashtirgan, so'z, kuy va ma'lum turlarida raqs uyg'unlikda ijro etiladi.

Folklorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag'zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushinchalardan mukammal diniy e'tiqodiga bo'lgan tushinchalar tadrijiy ravishda bo'y ko'rsatadi.

Folklor asarlari so'z san'ati sifatida o'ziga yaqin yozma adabiyot namunalari va san'atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadi.

Folklarning o'ziga xos xususiyatlari

Jamoaviylik – o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Ammo, jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi. Tabiatda tomchilardan jilg'alar, jilg'alardan daryolar paydo bo'lishini ko'ramiz, biroq daryodan bir hovuch yoki bir ariq suvni ajratib, bu falon jilg'aning suvi deyish mumkin bo'lmaganidek, an'anaviy xalq ko'shig'i, dostoni yoki ertagidan bir band yoki qismni ajratib biror individual ijodkorga nisbat berilmaidi.

Xalq turmushining, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi, inson tafakkurining mifologik tafakkurdan mifopoetik va badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonida alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qiziqchilar va boshqa ijodkorlar, ijro maktablari, ustoz va shogirdik munosabatlari paydo bo'ldi. Xalq orasida o'z iqtidori ijro san'ati bilan ajralib turuvchi: Tilla kampir, Sulton kampir, Jalmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jassoq shoir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin shoir, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Nurmon Abdivoy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir shoir, Xolyor Abdulkarim o'g'li, Bola baxshi, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Qodir Rahim o'g'li va boshqa namayondalar yetishib chiqdi. Bu xil ijodkorlarning talanti, iqtidori, mehnatlari tufayli kollektiv dahosi bilan yaratilgan asarlar avloddan avlodga o'tdi, sayqallandi, yuksak badiiy darajaga yetdi, folklarning mumtoz namunalari bizga meros bo'ldi.

Anonimlik – folklor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (*grek. Anonymis – noma'lum*) bilan ajralib turadi. Folklorda biror bir muallif yo'q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo'shig'imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan avlodga o'tar ekan vaqt va zamon talablariga ko'ra ma'lum o'zgartishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi,

an'analari o'zgarishsiz kelaveradi. Folklorda biror bir asarni kimdir daslab yaratgan bo'lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo'llari xalq og'zaki ijodi an'analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo'lib qoladi. Vaqtlar o'tishi davomida xalq ijrochilari tamonidan yanada ishlov berilib, chinakkam folklor namunasiga aylanadi.

Og'zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og'zaki avloddan avlodga, og'izdan og'izga ko'chishidan paydo bo'ladi. Bu o'rinda umum folkloriy bilim va folklor an'analari asos vazifasini o'taydi. Xotira manbaiy va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo'lmay, butun bir xalqning bilim va an'alaridan iborat bo'ladi. Bu bilim va an'alar ustozdan shogirdga, avloddan avlodga, urug'dan urug'ga o'tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar salohiyatidan sayqal topib yashaydi. Og'zakilikning jonli harakatdagi jarayoni sifatida folklorning yashash tarziga xos belgilari hisoblanadi. Zotan folklor og'izdan og'izga o'tib o'tib yashasa, adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og'zaki ijro etilib kuylansa, adabiyot esa faqat o'qiladi.

An'anaviylik – folklorning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. Ana'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining, ijro usullarining og'izdan og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorligini angelaydi. Og'zakilik folklorning ijro usuli va yashash tarzi bo'lib, o'z navbatida, xotirada ijrochidan ulkan xotirani, yoddan aytishni, eslamoqni, vaziyatga mos tayyor shakl va ifoda vositalarini badiha qilishni taqozo etadi. Bu o'rinda folklordagi an'anaviylik eng qulay va ishonchli quvvat zahirasi hisoblanadi. O'zbek baxshi-shoirilari orasida ko'plab an'anaviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'quvchi – badihago'ylarning borligi – shu an'anaviy ehtiyoj ehtiyojning hosilasidir. An'anaviylik xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga xos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Folklorning ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha davrga xos dunyoqarashlar,

urf-odatlar izlari aniq seziladi. Bu hol folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishining mahsuli hisoblanadi. Masalan: badik, kinna, buray-buray janrlari shuningdek “Sust xotin”, “Choy momo”, “Barot keldi” marosimlari aytimlarida bu holatni kuzatishimiz mumkin.

Variantlilik va versiyaviylik – folklor namunalarning har bir ijrosi o‘ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat o‘ziga xos variantni paydo etadi. YA’ni Folklor ijro jarayonida xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folklorning yashash tarzi. Variantlilik folklor tabiati, uning yaratilishi va jonli og‘zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo‘lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazlilik, poetikasi, janr xususiyatlarini to‘la qamraydi. Variant – ma’lum bir asarning jonli og‘zaki epik an’ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o‘zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir.

Variant folklor asarlarining ommaviylikni aniqlashda, tarqalish chegaralarini belilashda, folklorda kechayotgan o‘zgarishlarning sabablarini o‘rganishda va ijro jarayoni bilan bog‘lik qonuniyatlarni tadqiq etishda boy materiallar berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Variantlilikning muhim bir xususiyati ma’lum bir versiya ichida mavjud bo‘lishidir. Versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo‘lib, biror bir asarning turli talqinlarda, kompozitsion qurilishda, ba’zan qahramonlarning o‘zgacha nomlanishida keluvchi yagona syujet va janr doirasidagi namunalarni o‘z ichiga oladi. Versiyalar ma’lum bir urug‘ va qabilalarning turli joylarga tarqalib, turli ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tishi u yoki bu asarning o‘zaro yonma-yon, qo‘shni yashayotgan turli xalqlar orasiga yoyilishi sababli paydo bo‘ladi. Masalan “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qarindosh va qo‘shni xalqlar orasida mavjud versiyalarini keltirib o‘tish mumkin. Bundan tashqari, xalq ertaklari xusuda ham shu fikrlarni aytish mumkin.

O‘zbek folklori tarixiga oid xorijiy manbalar

Folklor tarixiga oid eng qadimgi manbalar eramizdan avvalgi davrlar O'rta Osiyoga kelgan sayyohlar, savdogarlar va yurtimizga bosqinchilar tarixchilari tomonidan yozilgan kundaliklar, memuarlar hamda harbiy ishlarda faoliyat yurgizgan joshlarning yozma ma'lumotlaridan iborat.

Masalan, eradan avval yashab o'tgan yunon tarixchisi Polienning kitobida sak qabilasi bahodirliklari to'g'risida fol klorga oid lavhalari kiritilgan. U saklar malikasi Sparetraning dushmanlarga ko'rsatgan qarshiligi, eri Amorgni yog'iyalar qo'lidan qanday qutqarganligi haqidagi afsona shulardan biridir. Bundan tashqari, "Harbiy hiylalar" nomli kitobida eroniy bosqinchilarni suvsiz cho'lga aldab borgan va ularni bir o'zi yenggan cho'pon Shiroqning jasorati to'g'risidagi afsonani misol keltirib, shak qabilasi odamlari o'z xalqi uchun jonini ayamasi haqida ibratli voqeani hikoya qilgan.

Eradan oldin yashagan ajdodlarimizning vatanparvarligi, qabila sha'ni uchun o'z farzandidan vatandoshlari ozodligini ustun qo'ygan massaget qabilasi sardori To'maris haqida ma'lumot bergan Gerodot fol klor tariximizdagi xorij mualliflaridan biri. Uning "Tarix" nomli kitobi orqali bizgacha yetib kelgan bu afsona turkiylarning ayollari to'g'risida keyinchalik mashhur bo'lib ketishga sababchi yozma manbalardan hisoblanadi.

Miloddan oldin 6 va 5-asrlar eron bilan yunonlar to'qnashuvlari voqealarida ishtirok etgan Eron va Yunon tarixchilari yodnomalarida ham O'rta Osiyo, xususan, yurtimiz hududlari fol kloriga tegishli qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Masalan, o'lib tiriladigan Siyovush obrazi shunday ma'lumotlardan biridir.

Iskandar Zulqarnayn va uning O'rta Osiyodagi bosqinchiliklari fol klor tariximizda alohida ahamiyat kasb etadi. U bilan yurtimiz tuprog'iga kelgan Ptolomey Lag va Aristotul kabi tarixchilar shohning bosqinchilik ishlari bilan birga yerlik aholi fol kloriga oid qiziqarli ma'lumotlarni yozib borishganligi to'g'risida keyinroq yashab o'tgan Arrian, Plutarx va Yustin singari yunon tarixchilari asarlari orqali bilib olingan. Aleksandr Makedonskiyning Sirdaryo bo'ylari va Maroqand, Sug'diyona, Marg'iyona va Naukata singari shaharlarida yerlik aholi bilan olib

borgan janglari Diodor Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf singari tarixchilar yodnomalarida ifodasini topgan. Ularning jahon miqyosidagi asarlari o'zbek tilida nashr etilmaganligi uchun folklorimiz tarixiga tegishli ma'lumotlarni ayrim ilmiy ishlar va har zamonda bir-ikki qayd etiladigan matbuot shifalari orqali bilish mumkin. Masalan, Diodorning yozishicha, miloddan avvalgi 325 yil Iskandarning yolg'ondan vafot etganligi, uning o'z dushmanlarini qanday aniqlaganligi to'g'risidagi ma'lumot folklor namunasi sifatida el orasida turli afsona va rivoyatlar, ertaklar syujetlari uchun motiv rolini bajargan. Masalan, "Shoxli Iskandar", "Iskandar Zulqarnayn", "Luqmon hakim", "Chinor nega ko'p yashaydi?", "Doro va Iskandarbek" singari o'zbek xalq ertaklari syujet voqealari Iskandar motivi asosiga qurilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerak, o'zbek folklorining xorijlik tarixchi-ijodkorlar faoliyatidan o'rin olishi tasodifiy emas. Chunki yurtimiz qadimdan to hozirga qadar chet elliklarni qiziqtirib kelgan. Ularning siyosiy maqsadlari, ya'ni xalqimiz ustidan hukmronlik qilishi va zaminimizdagi boyliklarga ega bo'lishlari zaminida dushmanlik yotadi. Biroq ularning orasida xalqning madaniyati, tarixi va san'atiga qiziquvchi ijodkorlar ham borligini unutmaslik lozim. Biz yuqorida nomlari tilga olingan miloddan avvalgi rim-yunon tarixchilari o'z hukmdorlari davlat boshqarish hayotida ro'y bergan tarixiy voqealarni yozishlari jarayonida ijodkorlik tuyg'usi ta'sirida otobobolarimiz jasorati va vatanparvarligini hikoya qiladigan afsonalar, rivoyatlar va boshqa og'zaki ijod namunalarini qalamga olganliklarini unutmaslik kerak. Masalan, Gerodotning "Tarix" kitobidan o'rin olgan ikki daryo oralig'ida yashaydigan qabilalar jasoratini hikoya qiluvchi "To'maris", Polianning "Harbiy hiylalar" nomli kitobidagi o'z qabilasi ozodligi uchun jonini fido qilgan "Shiroq" kabi afsonalar otalarimiz dovrug'ini dunyoga tanilishiga sabab bo'lganligini ta'kidlash joyiz. Mazkur va boshqa rim-yunon mualliflari tomonidan beixtiyor ravishda folklor namunalarini kitoblari sahifalarida aks ettirganliklari xalqimizning qadimdan og'zaki so'z san'atiga mohirligi, ulardan avlodlar tarbiyasida xalq pedagogikasida foydalanib kelganligini tasdiqlaydi. O'quv

qo'llanmaning keyingi boblarida "To'maris" va "Shiroq" afsonalari haqidagi ma'lumotlarga kengroq to'xtalib o'tiladi.

Miloddan oldingi 2-1- asrlarga kelib, O'rta Osiyoda yunon-makedon hukmronligi tugay boshlagan. O'sha davr rim-yunon tarixchilarining yozma manbalarida ellinizm mustamlakasi barham topishga Sirdaryo ortidan kelgan ko'chmanchi turkiylarning hujumlari sabab bo'lgan. Rim-yunon tarixiy manbalaridan keyin yurtimiz madaniyati va davlatchiligi tarixi xitoy tarixchilari, sayyohlari tomonidan bitilgan yozma bitiklarda o'z aksini topgan. Masalan, eramizdan avval 145-86 yillar yashagan Sima Tszyan "Tarixiy kundaliklar" nomli kitobida xunlar (turkiylarning xitoycha nomi) hozirgi Sharqiy Sibir kengliklaridan tortib, T yanshan tog'lariga qadar juda katta hududda ko'chmanchilik bilan hayot kechirishgan. Ular shu darajada bir-birlari bilan ittifoq edilarki, boshlariga biror kulfat tushsa, darhol birlashib, uni bartaraf qilishardilar, deya yozgan. Turkiylarning ittifoqi va tahdidlaridan cho'chigan Tszya I (221-206) va uning o'rniga kelgan Xanlar doimo turkiy qabilalar boshliqlari bilan murosa qilishganligi to'g'risida ma'lumot bergan. Sima Tszyan turkiy qabilalarning biror shahri yoki xitoyliklarga o'xshash musahkam shaharlari, istehkomlari bo'lmasalar ham ular nihoyatda tartibli hayot tarziga ega odamlar, deya ta'riflaydi. Shu o'rinda xitoy tarixchilari turkiylarning folkloriga ham e'tibor qaratishgan. Masalan, Farg'ona (xitoycha Parkana) davlatida "samoviy otlar" borligi, u yerda ayollarga alohida hurmat ko'rsatilishiga oid og'zaki so'z san'ati namunalari keltiriladi. Sima Tszyaning yozishicha, ko'chmanchi turkiylar jangovarlik va qabila manfaatlarini himoya qilish fazilatlarini bolalarni go'daklik davridan tarbiyalaganliklarini shunday sharhlagan: "Qabila erkaklari 5-7 yoshli o'g'il bolalarni minishga o'rgatilmagan asov otlarga egar-jabdug'siz o'tqazib, oyoqlarini xuddi ayildek ot qorniga bog'lashgan va bolalar mindirilgan otlarni cho'lga haydab yuborishgan. Yaydoq asov otlar cho'lu biyobonda chanqaganlaricha yugurib horigach, qabila manziliga qaytib keladilar. Shunda qabila oqsoqollari otlar bilan quyoshning taftida obdon qizib, holdan toygan bolalarni otlardan tushirishib, ularning nisbatan baquvvatlarini alohida tarbiya beruvchi ustozlariga topshirganlar. Oqsoqollar

sinovidan o'tmagan bolalar ota-onasiga qaytarilib, kundalik turmushda xizmat qiladiganlar qatoriga qo'shganlar (“Istoriya drevnego mira”.M.:”Prosveshenie”,1989 g.121-str.)

O'zbek fol kloriga tarixiga doir xorijiy olimlar, tarixchi va ijodkorlar qaysi mavzuda bo'masin, ularda eng birinchi planda o'zlari mansub bo'lgan millat va hukmdorlari manfaatlari nuqtai nazari yondoshganlar. Masalan, Aleksandr Makedonsiy bilan yurishlarda ishtirok etishib, “Kundaliklar” yozgan, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashovchi xalqlar to'g'risida ma'lumotlar qoldirgan Ptolomey bilan Aristobul ismli tarixchilarning asarlari real xarakterga ega. Chunki Ptolomey Iskandarning eng ishonchli lashkarboshisi vazifasini bajargan bo'lsa, Aristobul makedoniyalik bosqinchilar yurishlarida qal'alarni buzish, daryo va katta suvlarga ko'priklar qurish singari muhandislik ishlariga rahbarlik qilgan. Har ikkalasi hech kimga ko'rsatmay, “Kundaliklar” tutishgan edi. Bundan xabari bor Iskandar ham ularning “Kundalik”lari kelajakda ahamiyati katta manbalar bo'lishini his etgan edi. Chunki Aleksandr Makedonskiy Makedoniya shohi Filippning farzandi bo'lib, otasi uni o'sha zamondagi taniqli olimlar tarbiyasiga topshirgan va u turli ijtimoiy va aniq fanlar bo'yicha bilim olganligi, ayniqsa, Aristoteldan olgan saboqlari keyinchalik davlatni boshqarish, sharqdagi qator mamlakatlarni istilo qilishda qo'l kelganligi tarixchilar tomonidan e'tirof qilingan.

Aleksandr Makedonskiyning Sug'diyonaga qilgan yurishi, mahalliy aholi va turli shaharlar boshliqlari, yerli donishmandlar olib borgan suhbatlari, shaxsiy munosabatlari xalq og'zaki ijodi va u bilan birga yurgan tarixchilar, yilnomachilar asrlarida u yoki bu darajada o'z ifodasini topgan. Uning yorqin misoli sifatida o'zbek xalq ertaklari, afsonalarida qoldirgan “iz”laridir. Bundan tashqari, Iskandardan bir oz keyinroq yashagan tarixchi, yilnomachi va so'z san'atkorlari xalq og'zaki ijodida saqlanib kelayotgan hamda real tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan albatta, bahramand bo'lishgan. Masalan, Kvint Kurts Ruf degan yozuvchi “Aleksandr Makedonskiyning tarixi” asarini yaratishda eramizdan oldingi 4-3 asrlarda faoliyat ko'rsatgan yilnomalardan foydalanishgan. Oksus (Amu) va Yaksart (Sir) oralig'idagi tarixiy voqealarni o'quvchiga jonli manzaralar

orqali tasvirlashda faqat tarixiy voqealardan tashqari yerli aholi fol kloriga, etnomadaniyati materiallaridan ijodiy bahramand bo'lgan. Shuning uchun uni o'qigan kitobxonda yurtimizning keng cho'lu sahrolari, go'zal bog'-rog'lari, tog'udalalari, o'simlik o'rmon manzaralari namoyon bo'ladi. Demak, mazkur romanda Nautaka hokimining qizi Roksana, Iskandarga qarsh murossasiz kurashgan Spitamen va xalq idealidagi fol klor qahramonlari aks etishi hozirgi zamon kitobxonlariga antik va o'tmish davr tariximiz haqida ma'lumotlar beradi. O'zbek xalq ozaki so'z san'ati namunalari faqat mualliflari ma'lum bo'lgan yozma yodgorliklardan tashqari, yurtimizga savdogar bo'lib kelgan yoki sayyoh odamlar tomonidan o'zlashtirilib, keyinchalik vatanlarida noma'lum kishilar tomonidan kitob shaklida chop etilgan "Ming bir kecha", "To'tinoma", "Kalila va Dimna" singari xalq kitoblari sahifalarida ham uchraydi. Chunki insoniyat hech qachon bir joyda qoib qolgan tarzda yashamagan. Ular ibtidoiy jamoa davridan keyingi tarixiy jamiyat shakllangach, dunyoning turli tomonlariga goh savdo qilish, goh sayohatga chiqishi va goh o'zga yurtlarga bosqinchilik maqsadlarida borishgan. Til, etnik turmush va e'tiqodiy qarashlar turlicha bo'lsa ham, baribir, tirik insonga xos xususiyatlar ularda o'rganish, tajriba almashish va ma'naviy-estetik jihatdan oziqlanish kabi zaruriyatlar og'zaki so'z san'ati namunalariidan bahramand bo'lishgan. Biz yuqorida nomlarini zikr etgan yozma manbalarda bugungi kungacha og'zaki ijroda saqlanib kelayotgan fol klor motiv va syujet voqealari ifodalangan o'zbek afsonalari, rivoyatlari hamda ertaklari mavjud. Buni O'zbek Navoiy nomli o'zbek tili, adabiyoti va fol kloriga instituti olimlari tomonidan chop etilgan va nashrga tayyorlanayotgan og'zaki so'z san'ati durdonalari misolida ham ko'rish mumkin.

O'zbek folklori tarixida Rim-yunon, Xitoy tarixchi-ijodkorlari asarlaridan tashqari, Arab, Eron singari mamlakatlar mualliflarining Vatanimiz madaniyatiga tegishli ma'lumotlari ham bor. Shulardan eng yorqini Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni hisoblanadi. Mazkur doston Eron davlatchiligi tarixi kelib chiqishi, davlat boshqaruvi tizimi kabilarning badiiy tafsilotiga bag'ishlangan. Eramizning taxminan 457 yilidan boshlab, Sug'diyonada yashagan eftalitlar-massegetlar davri

xalq qo'shiqlari va dostonlari "Shohnoma"da Firdavsiy tomonidan mohirona qo'llanganligi tarixchi olimlar tomonidan e'tirof etilishi, ya'ni xalq afsonalari, qo'shiqlari va qahramonlik voqealari dostonidan o'rin olganligi rus olimi V.V.Bartold tomonidan aniqlangan. Chunki, "Shohnoma"da Chochlik dehqon baxshi tomonidan e'talif shohi Vaxshuvorning Peroz bilan bo'lgan jangi haqida kuylaganligini qayd etgan.

Miloddan keyingi arab, rus va boshqa millatga mansub xalqlar mualliflari asarlarida ham o'zbek folklori namunalari va ularning ilmiy-nazariy tahliliga oid ma'lumotlar nashr etilishi davom etgan edi.

Bunga yorqin misol sifatida arab tarixchilari, sayohatchilari va olimlarining ilmiy asarlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlash joyiz, Rimyunon va Xitoylik mualliflar ko'proq o'z hukmdorlari va xalqlari manfaatlarini nuqtai nazaridan bizning folklorimizga yondoshgan bo'lsalar, arab, eron va hindistonliklar tomonidan Movarounnahrda yashagan etnik guruhlar fol klorining ko'proq axloqiy-ma'naviy mohiyatini ifodalashga moyillik kuchli. Bunga misol tariqasida milodimizning 8-9 asrlarida arablar ta'sirida baxshilar tomonidan Rustam dostoni fragmentlari sug'd yozuvida bitilgan parchalari hamda hind xalq ijodi mualliflari tomonidan sug'dcha yozilgan "Kalila va Dimna"ni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, xalqimiz og'zaki so'z san'atining arablar kirib kelganlarida keyin fol klor ruhida budda, moniy va islom dini falsafiy yo'nalishda bizgacha yetib kelgan yozma manbalar orqali ham ko'rish mumkin. Mug' qal'asi xarobalarini o'rganan arxeolog olimlar va etnomadaniyatchi tadqiqotchilarning aniqlashlariga qaraganda, 8-asrga mansub yozma manbalar orasida Samarqand hukmdori va Sug'd shohi darajasiga ko'tarilgan Devashtichlarga tegishli hujjatlar, yorliqlar va turli fol klor uslubidagi xatlar borligi aniqlangan edi. Qadimgi ajdodlarimiz fol kloriga doir afsona, rivoyat va naql janrlariga kiruvchi materiallar sug'd, oromiy yozuvlari ta'sirida runik yozuv-O'rxun-Yenisey yodgorliklari barpo bo'lganligini ham bilish lozim. Chunki mazkur alifbo faqat Vatanimiz madaniyati tarixini o'rganishdan tashqari, ota-bobolarimizning og'zaki so'z san'ati namunalarini qabr toshlari, tosh qoyalarga va toshdan yasalgan monolitlarga yozib,

xalq orasidan chiqqan alplar, qabila qahramonlari, vatanparvar qabila boshliqlari, lashkarboshilari haqidagi real ma'lumotlarni fol klor an'analari uslubida bayon etishgan. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar yeyingi avlodlarga yetib borishi uchun qayg'urishgan. Taniqli o'zbek olimlari Aziz Qayumov, Nasimxon Rahmonovlarning "O'rxun-Yenisey" tosh bitiklariga bag'ishlangan fundamental ilmiy asarlari orqali hozirga qadar saqlanib kelayotgan "To'nyuquq", "Qul tigin", "Bilga xoqon", "Ungin" va "Moyun chur" kabi bitiktoshlar yozma adabiyotning fol klor bag'rida shakllanganligini misollar tahlili orqali asoslashgan. Mazkur bitiktoshlarda madh etilgan qahramonlar og'zaki ijod san'ati ifodalash uslubida Alpomish, Go'ro'g'li, Rustamxon singari folklor obrazlari tasviriga monand. Shuningdek, xalq og'zaki so'z san'atining o'ziga xos ta'sirchanlik xususiyati o'rta asrlarda "Kitobi Dada Qo'rquq", "O'g'uznoma" singari fol klorona yozma manbalar vujudga kelishi uchun zamin yaratdi.

Ma'lumki, O'rta osiyoga arablar kirib kelganidan so'ng madaniy hayotimizda an'anaviy bo'lib kelgan fors tili o'rniga arab tili va yozuvi birinchi planga chiqadi. Buni yurtimizning Birinchi Uyg'onish davri deb hisoblangan 10-11 asrlar ilmiy va adabiy hayotida shakllangan allomalarimiz faoliyatidan bilish mumkin. Abunasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy va boshqa umumbashariyat ilmiy va ma'naviy-falsafiy taraqqiyotiga o'z asarlari bilan hissa qo'shgan Sharq allomalari hamda Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Najmiddin Kubro, Az-Zamaxshariy, Motrudiy va boshqa nomlari Islom olamida tanilgan diniy allomalarimiz o'z asarlarini arab tili va yozuvida yozganlari boisi ham ijtimoiy-siyosiy sharoit ta'siridir. Ularning arab tilidagi asarlarida fol klor merosiga oid ko'plab afsona, rivoyat va pand-nasihath mavzuidagi naqlar uchraydi. Masalan, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Axloq ilmiga doir risola", "Ishq risolasi", Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" kabi asarlarida bugungi kun odamlari ma'naviyati uchun ham zarur bo'ladigan folklor namunalari o'z ifodasini topgan. O'rta asrlar musulmon sharqi ma'naviy-axloqiy hayotidagi falsafiy fikrlarni bayon etishda arab tilidagi juda ko'p kitoblar arab tilida yozilgan vatandoshlarimiz ijodiy faoliyati ham muhim o'rin

tutadi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (Saodatga yo’llovchi bilim), Axmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” (Haqiqatlar xazinasini), Kaykovusning “Qobusnoma”, ShayxSa’diyning “Guliston”, “Bo’ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Hamsa” va Xondamirning “Makorim ul-axloq” va boshqa arab, fors va turkiy tilda yozilgan asarlari dunyodagi axloqshunoslik -ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi asarlari tom ma’noda fol klor an’analarini ruhida yaratilgan. Shuni unutmaslik kerakki, yurtimiz va Sharq xalqlari so’z san’atidagi aksariyat pandnomalar: falsafiy-didaktik asarlar fol klor merosi an’analaridan ta’sirlanish natijasida yuzaga kelgan. Sharq mumtoz adabiyotida ijodkorlarning xalq afsona va rivoyatlari, naql va maqollardan ijodiy foydalanib, axloq-odob hamda ibratli falsafiy fikrlarni kitobxonlarga yetkazish san’ati-talmeh ana shu transformatsiyalash orqali maydonga kelgan. Masalan, milodning 865-925 yillarida yashagan eronlik mutafakkir Abu Bakr ar-Roziyning “Ruhii tabobat”, “Baxt va farovonlik belgilari”, 1111 yil tug’ilgan Abulhamid bin Muhammad G’azzoliyning “Kimyoii saodat” va mashhur tasavvuf shoiri Jaloliddin Rumiyning “Masnavii ma’navii” risolalari o’zlarining fol klor asarlariga xos xalqchil motivlarini hanuzgacha yo’qotmay kelayotganligi og’zaki so’z san’atining naqadar boy ibratli fikrlarga to’laligini tasdiqlaydi. O’rta asrlar yurtimizga savdo ishlari va sayohatchilik bilan tashrif buyurgan arab, fors va ovrupoliklar o’zlarining kundalik daftarlari va yozma qaydlarida o’zbek xalqining nomoddiy madaniyati yodgorliklari, xususan, fol klor namunalari alohida e’tibor qaratishgan. Masalan, Juvayniy, Nasaviy, Ibn al-Asir, Ibn Battuta, ispan elchisi Rui Gonsales Klavixo va frantsuz elchisi arxiepiskop Ioann boshqa mualliflarning yurtimizga bag’ishlangan “sayohatnoma”lari, “kundalik daftarlari” va kitoblarida o’zbek milliy madaniyatiga daxldor qimmatli ma’lumotlar fol klor tarixini yanada chuqur o’rganish uchun qiziqarli materiallar beradi.

Xulosa qilinganda, o’zbek folklori tarixidagi xorijlik tarixchilar, yilnomachilar va sayyohlar tomonidan bizga qadar yetib kelgan turli kitob, maqola va risolalari tarkibidagi og’zaki so’z san’ati namunalari o’tmishda

yashab o'tgan ota-bobolarimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy –madaniyati hamda umumiy dunyoqarashlari qay darajada rivojlanganligini tasdiqlovchi qimmatbaho qadriyatlardir.

Fol'klo tarixini o'rganishda “Avesto”ning o'rni

O'zbek xalqi milliy madaniyati tarixida ikki buyuk kitob – “Qur'oni Karim” va “Avesto”ning o'rinlari alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyoti so'z san'ati tarixiy fol kloriy taraqqiyoti jarayonida ular insonning ma'naviy kamolot yo'lida fol klor yaratuvchilar uchun eng muhim manba rolini bajarib kelishmoqda. Chunki turli e'tiqodiy qarashlar ta'sirida hayot kechirgan odamlar beixtiyor ravishda og'zaki so'z san'ati yaratishlarida o'zlari mansub bo'lgan e'tiqodlarining inson ma'naviyatiga taalluqli g'oyalaridan ta'sirlanishi tabiiy. Buni O'rta Osiyo xalqlari o'tmishida ijod qilingan mif va mifologik tasavurlarning “Avesto” kitobida badiiy tasvir orqali ifodalanganligida kuzatish mumkin.

O'zbek fol kloriga tarixida “Avesto”ning ahamiyatini izohlashda mazkur kitobning yaratilish joyi to'g'risida to'xtalish lozim. Miloddan oldingi taxminan 7-asrlarda Amudaryo qirg'oqlarida qabilalar ittifoqi paydo bo'lishi va undagi nufuzli qabila boshqa qabilalarni o'z xudosiiga sig'inishga majburlashi natijasida ko'p xudolik (politeizm) vujudga kelgan. Bu ayrim odamlarda ijtimoiy norozilik uyg'otadi. Ana shunday odamlardan biri-miloddan avvalgi 7-asr Xorazm hokimligiga qarashli Spitama qabilasida chorva mollari boquvchi Zardusht ismli yigit bo'lgan. Zardusht tabiatan aqlli, odobli va atrofda ro'y beratgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaydigan favqulodda iste'dod egasi edi. U chorvador qabilalarning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari va marosimlarini atroflicha o'rganadi. O'zi yashayotgan qabila va boshqa qshni qabilalar ruhoniylari bilan erinmasdan suhbatlashgach, ko'pxudolikning salbiy hodisa ekanligini anglab yetadi va unda yakkaxudolikka nisbatan ishonchli maqsad vujudga keladi va bu yo'lda kurash olib borishga kirishadi.

Zardusht o'zi mansub bo'lgan dinning rasm-rusmlaridagi xudolariga atab biror hayvonni qurbonlik qilinishga qarshi chiqadi. Chunki ko'pxudolik an'analarda faqat qabiladan tashqari, ayrim urug'lar ham xudolariga atab qurbonlik berishini ko'rib, dahshatga tushadi. Qurbonliklarning ko'pligi natijasida chorva mollarining qirilib ketayotganligi, bundan tashqari, bir-biri bilan yonma-yon yashayotgan qabilalar orsidagi kelib chiqadigan nizolarning sodir bo'lishi ham ko'pxudolik ekanligini obdon bilgach, Zardusht dastlab o'z qabilasi odamlari orasida, keyin tuya minib olib qo'shni qabilalar odamlari o'rtasida ko'pxudolikning zararlarini tushuntira boshlagan. U odamlarga yakkaxudolik g'oyasini tinimsiz targ'ib qiladi. Biroq ko'pxudolik tarafdorlari, ayniqsa, undan manfaatdor bo'lgan ruhoniylar Zardushtga qarshi chiqib xalqni unga gij-gijlar edi. Zardusht yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilayotganida yigirma yoshga kirgan yigit edi. Qishloqma-qishloq, shaharma-shahar nor tuyasiga minib olgan Zardusht 10 yil o'tgach, yagona xudo-Axuramazdani yaratib, uning insoniyat hayoti uchun asosiy iloh ekanligini isbotlay boshlagan. Zardusht targ'ib qilayotgan Axuramazda dunyoga faqat yaxshilik keltirishi, odamlar orasida bir-birlariga mehr-muhabbat, oqibat va hamjihatlik bilan hayot kechirishda g'amxo'rlik qilishi to'g'risidagi fikrlarini eshituvchilar his-tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadigan fol klor namunalari orqali ustalik bilan foydalan bayon etgan. Zardusht ilgari surgan yakkaxudolik mohiyatida oddiy xalq ommasiga ma'qul bo'lgan g'oya-Xurmuzd(Axuramazda)ga sig'inib, undan o'ziga kerakli narsalarni so'rash, shuningdek, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, nur bilan zulmat kabi qarashlar ruhida hayot kechirishga chaqirishdir. Yakkaxudolik ta'limoti xalqqa tobora ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini sezga ko'pxudolik tarafdorlari Zardushtga qarshi chiqishib, hatto, joniga qasd qilish darajasiga yetadi. U Xorazmdan qochib, Eron shohi Vishtasp huzuriga boradi va yakkaxudolik ta'limotining mohiyat-mazmunini shohga tushuntiradi. Vishtasp ham ko'pxudolikdan norozi ekanligini aytib, Zardushtni saroyda olib qoladi. Shu taxlit, zoroastrizm(zardushtiylik)diniy e'tiqodi O'rta Osiyoda paydo bo'lib, Eron, Ozarbayjonga tarqaladi va dvlat diniga aylanadi.

Vishtasp farmoniga ko'ra Zardusht diniy ta'limotini 1200 bobdan iborat "Avesto" pandnoma kitobi shaklida yozadi. U dastlab 12000 ming oltin taxtachalarga yozilib, Vishtaspning saroyidagi bosh otashkadasiga topshiradi. Keyinchalik esa 12 ming ho'kiz terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Milodning 4-asrida Eronni zabt etgan Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) "Avesto"ning teri sahifasiga bitilgan nodir nusxani Elladaga olib ketgan.

Zardusht hayot paytlarida "Avesto" ko'p nusxalarda ko'chirilib, otashparastlik mamlakatlaridagi ibodatxonalarga qo'yilgan edi. Ulardan yana bir Eronning Balx shahrida qurilgan otashkadada Zardusht ruhoniylig qilgan. U hayot chog'larida va vafotidan so'ng "Avesto" yangi-yangi sahifalar bilan boyitib boriladi. Zardusht 77 yoshida Vishtaspning ukasi-ko'p xudolik tarafdori Arjaspning sodiq navkari Bratarvaxsh tomonidan o'ldiriladi. U asos solgan Eron, Ozarbayjon va janubiy Hindiston kabi mamlakatlarda hozirga qadar xalq urf-odatlarini, marosimlarini saqlanib qolgan. Yurtimizdagi otashkadalardan biri Samarqandning "Shohi zinda" tarixiy yodgorligida ham bor. Demak, mazkur dinga Movarounnahrda ham Islom dini kirib kelgunga qadar e'tiqod ko'rsatilgan. Buni O'zbekistonning ayrim viloyat va tumanlarida o'tkazilayotgan marosimlar gulxan yoqib, atrofida bazm uyushtirish, kelinni kuyovnikiga olib kirishda gulxan atrofidan aylantirish va so'z magiyasi bilan bemorlarni davolashda sham yoqish singari odatlar misolida kuzatish mumkin.

"Avesto" kitobi va uning asoschisi Zardusht tom ma'noda xalq og'zaki so'z san'ati durdonalari ta'sirida maydonga keldi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Zardushtning shaxsiy faoliyati, uning yakkaxudolik ta'limotini targ'ib etishda qo'llagan notiqlik mahorati xuddi fol klor namunalari ijrochisiga monand. Chunonchi, "Zardusht" degan ism ham unga xalq tomonidan berilgan. "Zardusht" eroncha "zarat"-sariq, "ushtra"-tuya, ya'ni "Sariq tuya yetaklagan odam" degan ma'noni anglatadi. Odamlarga el-yurt orasida yakkaxudolik ta'limotini targ'ib etish uchun o'sha davrlar fol klorida mavjud bo'lgan xalq maqollari, hikoyatlari, naqlari va qo'shiqlaridan tinglovchi his-tuyg'usiga ta'sir

etadiganlarini usta roviy, qo'shiqchi va baxshi sifatida ijro qilganligi otashparastlik dini bilan shug'ullangan dinshunos va madaniyatshunoslar tomonidan ilmiy ravishda e'tirof etilgan.

“Avesto”ning Iskandar Zulqarnayndan keyin saqlab qolingani ayrim ko'ha nuxxalari bizgacha yetib kelgan. Ular Eron va Yevropa davlatlari kutubxonalarida va muzeylarida saqlab kelinmoqda. Kitobning 1278 yil ko'chirilgan bir nuxxasi o'zbek tadqiqotchilari-fol klorshunos va dinshunoslar tomonidan o'rganilgan. Mazkur nuxxaning besh qismi fol klor tarixi va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun tahlil manbai hisoblanadi.

“Avesto”ning sof diniy yo'nalishdagi kitob emas. Uning bizga qadar yetib kelgan, ya'ni Aleksandr Makedonskiy talonidan saqlanib qolgan beshta qismi quyidagilar:

1. Yasna-otashparastlar ibodati payti ijro etiladigan Zardushtning diniy nasihatlarida va “gota”laridan iborat bo'lib, 72 bobni tashkil qiladi. “Gota”lar “Avesto”ning eng qadimgi va arxaik eroniy lahjalarida yozilgan.

2. Yasht-otashparastlarning Xudoni maxsus ohanglar jo'rligida tavsif etadigan madhiyalari. U o'n bobdan iborat.

3. Vendidot-zulmat dunyosiga qarshi qonunlar majmuasi. Bu bobda diniy qonunlar matni bilan birga qadimgi xalq dostonlari va mifologik tasavvurlardagi zulmat timsoli hisoblangan devlarga qarshi mifologik qahramonlarning nomlari zikr etilgan.

4. Viopard-butun borliq Yaratuvchilik va uni ibodat qilish bandasining burchi, deyilgan ruhdagi ibodat yo'sinlari, qoidalari bitilgan. Mazkur qism 21 bobdan iborat bo'lib, otashparast eroniylarning diniy marosim va bayramlarida ijro etiladigan madhiyalar o'rin olgan.

5. Xurd Avesto-mazkur qism kitobning asosiy mohiyati, insonlar hayotida tutgan o'rni to'g'risidagi pandnomalar berilgan.

“Avesto”ning “Yasna”bobida Zardushtning dunyoga kelishi va tarjimai holi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuni ta'kilash lozim, “Avesto”da ifodalangan yakkaxudolikning asosiy qonunlari, otashparastlik e'tiqodining yetakchi mohiyati

tarixiy shaxs hisoblangan Zardusht nomi bilan bog'liq.U asos solgan yakkaxudolik jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga chiqaradi,degan ishonchli g'oyani xalqqa singdira olgan.Zardusht favqulodda iste'dod egasi bo'lishi bilan birga tabiatan shoir,xalq og'zaki ijodi bilimdoni va faylasuf edi.U tomonidan ilgari surilgan yakkaxudolik dini Axuramazda timsolida insoniyatni ma'naviyat va ezgulikki undovchi ulug' g'oyani ilgari surgan edi.Odamlarni ko'pxudolik jaholatidan qutqarib, yakkaxudolik e'tiqodiga undashning o'zi Zardushtning miloddon oldingi davrlar hayoti uchun juda katta qahramonlik edi.Antik davr O'rta Osiyo va Eron,Ozarbayjon hamda otashparastlik e'tiqodiga topingan ko'pgina xalqlar uchun "Avesto"kitobida bayon etilgan g'oyalarning ko'plari hozirgi davr odamlari uchun ham kamolot yo'liga kirishning ibratli tarbiya vositasi bo'la oladi. Masalan, Zardushtning diniy-axloqiy falsafasiga ko'ra,insonlar har doim toza va pok yurishi,yomonlik keltiruvchilarga murosasiz bo'lish,gunoh qilmaslik,rostgo'y bo'lish,o'zi yashayotgan tuproqni iflos qilmaslik,olovga harom narsalar tashlamaslik,jonivor va parrandalar,hashoratlarga zara yetkazmaslik,eng asosiysi,qalbini rahm-shafqat bilan to'ldirib yashash singari hech qachon eskirmas ma'naviy-axloqiy qarashlarni kitobdagi mifologik va fol klor usulida yaratilgan timsollar vositasida ilgari surgan.

"Avesto"muallifi miloddan avval ming yillar muqaddam Ezgu so'z,Ezgu fikr va Ezgu amallar bilan yashash har bir odam farzandining umr mazmuni bo'lishi chaqirgan dohiyona shiori 21-asr fan-texnika,madaniyat va san'at yuksak darajada rivoj topgan davr odamlari uchun naqadar zarur ekanligini hayot haqiqatlari tasdiqlamoqda.

Endi "Avesto"kitobidagi fol klorga ayrim o'rinlarga e'tibor qaratamiz.Kitobdagi bosh obraz-Axuramazda qiyofasida insoniy fazilatlar ya'ni qadimgi odamlarni doimo to'lqinlantirib keluvchi barcha insoniylik fazilatlarini talqin etiladi.Dunyoni dualistik tushunish odamlar tafakkur qila boshlagan paytdan vujudga kelganligi e'tiborga olinsa,bu diniy-axloqiy kitobdagi fol klor timsollari zimmasida yaxshilik va yomonlik ezgulik va yovuzlik,yorug'lik va zulmat,hayot va mamot o'rtasidagi abadiy kurashning ibtidosi aks etgan.

Axuramazda atrofida faqat yaxshilik urug'ini sepib yuradigan, odamlarga har tomonlama yordam beruvchi timsollar harakat qilsa, yomonlik ma'budi Axriman atrofida faqat yomonlik keltiruvchi yovuz devlar, jodugarlar va boshqa salbiy kuchlar joy olgan. Masalan, kitobning "Yasna" bobidagi 19-faslda adolat va yaxshilik ma'budi Xvarna haqida shunday yozilgan: "Ey, osmon kabi bexato Xvarna! Jahonda tengsizsan, sen davlatu tinchlik homiysisan. Sen tufayli adolat tirildi, nozu ne'mat ko'paydi, odamu parrandalar soni oshdi. Bahorda gulu daraxtlarning yashnashi, tabiatning yam-yashilligi, go'zalligi sendandir. Kimda-kim yomonlikni yod etgay, yaxshilik topmagay. Sen bor ekansan, badbinlar omonlik topmagay. Sen mag'rur turib, dili nopoku tili badbinlardan qurolingni ayamagaysan!"

"Avesto"ning 19-faslida yerning birinchi odam shohi Kayumars (Gavamarta), Jamshid (Yima) obrazlari faqat adolat, yaxshilik, yer yuzini yashnatish, jonivorlarni saqlash va ko'paytirish singari ezguliklar uchun kurashadilar.

O'zbek fol'klori tarixini o'rganishda "Avesto"ning yana bir manba sifatidagi o'rni biz yashayotgan yurt va boshqa qo'shni mamlakatlar aholisining Islomga qadar etnik turmush tarzlarida qo'llab kelgan urf-odat, marosim va ommaviy bayram-sayillari to'g'risida ham ma'lumot beradi. Fol klorshunoslik o'sha etnik turmushdagi tadbirlarning aksariyati otashparastlik e'tiqodi aqidalaridan ko'ra inson hayot kechirishi uchun kerakli real narsalar, ularni asrash, ko'paytirish, tiriklik yo'lida foydalanish kabi yo'riqlardan iborat. Masalan, yer, suv, havo, olovdan me'yorida bahramand bo'lishga chaqiruvchi pandnomalar, shuningdek, shaxsiy gigiena (a'zoi-badanni toza tutish), tuproqni iflos qilmaslik, daraxt va o'simliklarni behudaga nobud etmaslik, kiyim-kechak va oziq-ovqatlarni toza saqlash singari bugungi kun odami uchun ham zarur bo'lgan qoidalar misollar orqali bayon qilingan. Chunonchi, "O't-o'lanlar va mevali daraxtlar, suvlari ravon bo'lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va bolalari sarson-sargardon yuradigan yer eng yomon zamindir", -deya ta'kidlangan ushbu kitobda.

“Avesto”ning bugungi kun oila qurish bilan bog’liq muammolaridan yana biri-yaqin qarindoshlar bilan oila qurmaslikka chaqirganligida namoyon bo’ladi.

Xalq og’zaki ijodiyoti tarixiga daxldor yana bir muhim jihati ko’plab mifologik aytilmalar va ulardagi timsollarda insoniyat yashayotgan zaminni keyingi avlodlar uchun saqlab qolish, uni yanada yashnatishga intiladigan Anaxita, Mitra, Xvarna, Osha, Jamshid, Vertragna va Xvarna kabi mifik obrazlar mardlik, insonparvarlik, jasorat, matonat va faqat yaxshilik g’oyalarini ilgari surganliklari bilan ahamiyatlidir. Ushbu kitobda (bizgacha saqlanib qolgan va 1278 yil qayta ko’chirilgan beshtagina qismda) Zardusht tomonidan xalq og’zida aytib kelinayotgan qo’shiqlar, dostonlar, marosim payti ijro etilgan xalq qo’shiqlari, ularning fol klorona ohanglari to’g’risida ham mukammal olish mumkin. Masalan, koinot va yeru zaminning yaratilishi haqidagi afsonalar, rivoyatlar hamda Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxita, Ardivussuara, Zahhok, Gershasp, Gushtasp, Arjasp, Faridun, Bahrom singari dostonlar syujeti voqealari qahramonlari to’g’risida hikoya qiluvchi liro-epik parchalar bugungi kun odamlariga mukammal axloq-odob normalarini ifodalaydigan bebaho g’oyalar o’z aksini topgan.

Kitobning Axriman timsolida yer yuzidagi barcha yomonlik va razolat, yovuzlik, zulmat, qabohat, shafqatsizlik, yolg’onchilik, insonlarni umr yo’llaridan ozdiruvchi barcha yomonliklar berilib, uning atrofidagi devlar la’natlangan. Umuman, “Avesto” insoniyat yashaydigan Yeru Zaminda yaxshilik bilan yomonlik, yorug’lik bilan zulmat, hayot bilan o’lim bir-biri bilan abadiy kurashda ekanligi, agar insoniyat Axuramazda ko’rsatgan yo’lda yursa, abadiy yaxshilik o’rnatilgan yurtda yashaydi, degan hayotbaxsh g’oyani ilgari surgan. Masalan, “Zardusht so’radi: “Ey jismoniy olam Parvardigori Axuramazda, rosti bilan menga aytil, yer yuzining ko’rki va shodligi bo’lmish o’sha makon qayerda?” Axuramazda: “U shunday bir yurtki, u yerda bandalarim o’zlariga maskan, ibodatlari uchun otashkadalar qurishadi va bola-chaqalari ko’p bo’lishadi, hayvonlari uchun qo’ralar qilishadi, yurtlarida yaylovlar

ko'payib,hayvonlar serob bo'lib,xayru baraka yanada oshadi,oilalar bunyod bo'ladi va noz-ne'matlar mo'l-ko'l bo'ladi",-deya javob beradi.

Folklor namunalarining barcha tur va janrlari g'oyalari "Avesto"da ilgari surilgan fikrlarga mos keladi.Mana shu tipologik yaqinlikka qarab,"Avesto"dagi qo'shiq,afsona,rivoyat va dostonlar xalq og'zaki ijodi an'analari ta'sirida diniy pandnomalarga aylangan,desa xato bo'lmaydi.

"Avesto"ning yaratilganligiga uch ming yil o'tgan bo'lishiga qaramay,o'tparastlik (zoroastrizm)dini qonun-qoidalarini yo'nalishida Zardusht Axuramazdaga murojaat qilib,haqiqatning yuzaga kelishi va uni yer yuzida keng tarqalishi yuzasidan yuzlab savol-javoblar o'tkazgan.Kitobning ana shu pandnoma ruhidagi savol-javoblar bugungi kun odamlari uchun bag'oyat zarur.Masalan,yerga don ekish,hosil yig'ish haqida:"Kimda-kim bug'doy eksa u Osha(Haqiqat)ni ekan bo'ladi,qachonki egatlarga urug' sepilsa,devlar o'rinlarida qochadilar,qachonki bug'doy un bo'lsa,devlar nola chekadilar,qachonki bug'doy xonadonlarga to'kilsa,o'sha xonadonlarga devlar yaqinlasha olmaydi"-deyilishi ramziy mohiyatga ega.Chunki bug'doy,un serobchilik ramzi sifatida har doim e'zozlanib kelgan.Demak,bu yaxshilik keltiruvchi ne'mat mehnat qilish,obodonchilik timsoli bo'lib,insonlar barcha yomonliklarga faqat yaxshilik,mehnatsevarlik va odamlarga hayot beruvchi narsalarni yaratishga doimo intilishlari kerak.Bu asarni o'qish va tahlil qilish uning qomusiy mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek fol kloriga tarixi haqida fikr yuritar ekanmiz,xalqimiz tarixida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-siyosiy,ijtimoiy,ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy bosqichlar xalqimiz nomoddiy va moddiy merosisiz tasavvur etish mumkin emas.

Xususan,miloddan avval va qisman miloddan keyin ham insonlar ma'naviy-madaniyati hayoti tarzida o'ziga xos ijtimoiy-amaliy ahamiyat kasb etgan "Avesto"kitobi ana shunday qadri baland nomoddiy madaniyatimiz meroslaridan biri hisoblanadi.

FOLKLOR TARIXIDA “DEVONU LUG’ATIT TURK” ASARINING AHAMIYATI

O‘zbek xalqi tafakkur rivojida fol klor asarlarining muhim ahamiyati borligi inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Chunki insoniyat madaniyati shakllanish va taraqqiyoti bevosita xalqning so‘z va nutq boyligi bilan bog‘liq. Binobarin, og‘zaki badiiy ijod san‘atini til va nutq boyligining xalq jonli ijrosida yaratilgan va hamon yashab kelayotgan bebaho so‘z durdonalari tashkil qiladi.

O‘rta Osiyoda yashaydigan turkiy xalqlarning tili, etnomadaniyati va boshqa sohalariga tegishli “Kitobi Dada Qo‘rqut”, “O‘g‘uznoma” hamda tosh bitiklarda fol klorga oid ko‘pgina namunalar mavjud. Ular orasida xalq og‘zaki ijodi namunalari alohida o‘rganilgan va izohi berilgan ilmiy va madaniy meros – bu 11-asr yozma yodgorligi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari hisoblanadi. Janubdan to Shimol, Sharqdan tortib Mag‘ribga qadar juda katta geografik kengliklarda istiqomat qilgan turkiy qabilalar so‘zlari-lug‘at boyligini piyoda va ot-eshakda yurib yozib olgan Mahmud Koshg‘ariy ongli ravishda odamlar ozaki ijrosidagi maqol, ibora, ertak va qo‘shiqlarini erinmasdan arab imlosida yozib olgan edi.

Ma‘lumki, Mahmud Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariy 1029-1038 yillar oralig‘ida tug‘ilgan. U 1072 yilda o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarini yozishga kirishgan va uni 1078 yilda nihoyasiga yetkazgan. Bu asarni yozishdan avval u uzoq yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to‘plagan. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar,

turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim".³

Keng ko'lamli to'plovchilik faoliyati olib borgan Mahmud Koshg'ariy o'zining ana shu safarlari chog'ida faqat lug'at uchun lisoniy materiallar to'plash bilangina kifoyalaniq qolmasdan, balki folklor namunalarini ham yozib olgan. Buni olimning "men har bir qabilaga mansub so'zlarning asalish xususiyatlarini va qanday qo'llanilishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida qo'llanilib kelingan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa o'z navbatida shu tilda so'zlovchilarga yetkazsin".

Demak, Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar folklorining qo'shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to'plagan. Shuning uchun ham "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallarini o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy o'rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, "Devonu lug'otit turk" leksikasining o'zbek folkloridagi ko'rinishlariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan H.Zarifov 1961 yil 21 fevralda quyidagilarni yozgan edi: "Devon"dagi leksik va grammatik faktlarni o'zbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, u faktlarning o'zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir".⁴

Shu o'rinda Mahmud Koshg'ariyning folklor to'plovchi sifatidagi muhim bir xususiyati ham ko'zga tashlanib turibdi: olim "ko'k tubulg'on" haqidagi mifologik afsonani keltirar ekan, bu hikoyani u o'ziga hamrohlik qilgan bir kishidan eshitganligini alohida qayd qiladi. Folklor asarini so'zlab bergan aytuvchi, ya'ni ijrochi haqida ma'lumot berish esa xalq og'zaki badiiy ijodi namunasini yozib olishning ilmiy mezonlaridan biridir.

³ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. 44-бет.

⁴ Зарифов Х. "Девону луғотит турк" лексикасининг ўзбек фольклорида кўринишига доир (тезислар) // Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. 96-бет.

“Devonu lug‘otit turk”da “Yada toshi” bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar ham keltirilgan. “Devon”ning 3-jildi, 8-sahifasida quyidagilarni o‘qiymiz: “**Yada** - yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U yerda paydo bo‘lgan bir yomg‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yomg‘inni so‘ndirdi”.⁵

Turkiy elatlar diyorini kezib, “yomg‘ir toshi” to‘g‘risidagi xalq afsonalarini to‘plagan Mahmud Koshg‘ariy bu afsonaviy tosh yordamida tabiatga ta‘sir o‘tkazish marosimini shunday tasvirlaydi: “Bek yadachiga duo o‘qitdi, Shuning uchun shamol esdi. Yomg‘ir yog‘di. Bu hodisa turklar mamlakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg‘ir, sovuq qo‘zg‘otiladi”.⁶ “Devon”ning 3-jild, 322-sahifasida esa “**yatladi**” fe‘liga “afsunchi yomg‘ir yog‘dirish uchun yada toshi bilan duo o‘qitdi”, - deb izoh berilgan.

Yada toshi haqidagi mifologik tasavvurlar qadimgi turkiy qavmlarning deyarli barchasiga ma‘lum bo‘lgan. X asrda yashab ijod qilgan muarrix Abu Do‘lafning ma‘lumotlariga qaraganda, “yomg‘ir toshi”ni mo‘tabar hisoblagan qorluqlar yashil rangli bu toshni aziz bilib sig‘inishar, yog‘in-sochin kamchil bo‘lgan vaqtlarda uning sharafiga qurbonliklar qilisharkan.

Taniqli tilshunos olim L.Budagov esa “yada – sehrli tosh, uning yordamida yomg‘ir va qor yog‘diriladi yoki tindiriladi. Mo‘g‘ul tilidagi “dzada” so‘zi yog‘ingarchilik ma‘nosini anglatadi”, - deb yozgan.

“Yomg‘ir toshi” yordamida afsungarlik qilish udumi Alisher Navoiy davrida ham saqlanganligini “G‘aroyibus sig‘ar”ning “Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblai maqsud” deb boshlanadigan g‘azalidagi ushbu bayt ham tasdiqlaydi:

Yada toshig‘a qon yetgach, yog‘in yog‘qondek ey soqiy,

Yog‘ar yomg‘urdek ashkim chun bo‘lur la‘ling sharob olud.

⁵ Кошғарий М. Девону луғотит турк. 3-том. - Тошкент: Фан, 1963. 8-бет.

⁶ Кошғарий М. Девону луғотит турк. 2-том. - Тошкент: Фан, 1962. 410-бет.

Zero, o'sha davrlarda ham lalmikor yerga ekin ekib, dehqonchilik qiluvchi sohibkorlar suv tanqis bo'lgan yillari yada toshi vositasida tabiatdan yomg'ir tilaganlar. Shuning uchun ham Zahiriddin Muhamad Bobur o'zining "Boburnoma"sida Xoja Mulla Sadrni ta'riflar ekan: "Tolibi ilmligi bor edi, lug'atni xili bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchulug'ni va yadachilikni ham bilur edi", - deydi. Ana shu ma'lumotning o'zi yada toshi haqidagi mifik tasavvurlar va bu tosh vositasida yomg'ir talab qilish bilan bog'liq marosim XVI asrda ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Qozoqlarda *jay tas*, o'zbek, mo'g'ul, oltoy, turkman tillarida *yada*, yoqut tilida *saga*, tuvinchasiga *chag tash* deb yuritilgan "yomg'ir toshi" haqidagi irim-sirim va afsonalar qadimgi turkiy qavmlarning mifologik e'tiqodlari bilan bog'liqdir.

"Yada" toshi vositasida yomg'ir yog'dirish haqidagi mifologik tasavvurlar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Xususan, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Ularbibi qishlog'ida yashovchi 77 yashar Izzat bibi Majidovadan 1991 yildan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, to'yida yomg'ir yog'adigan kishilarni "yadasi bor" deydilar. Agar bola yoshligida qatiq ivitilgan idishning tubini yalasa, to'yida qor yoki yomg'ir yog'adi, deb irim qilinadi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida u yoki bu so'zlar ma'nosini izohlash, sharhlash maqsadida keltirilgan og'zaki nasriy asarlarni mifologik afsonalar, etnogenetik afsona va rivoyatlar, toponimik afsona va rivoyatlar, xalq taqvimi bilan bog'liq rivoyatlar, naqlarga bo'lib tavsiflash mumkin. "Devon"da "Xudxur" (1-jild, 135-bet), "Qaz" (3-jild, 163-bet) kabi toponimik rivoyatlar, "Chigil" (1-jild, 374-bet), "Turkman" (3-jild, 419-422-betlar) singari etnogenetik rivoyatlar, muchal hisobining kelib chiqishi haqidagi taqvimiy rivoyat (1-jild, 330-331-betlar) ham keltirilgan.

Mahmud Koshg'ariy o'z "Devon"ini "maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar...bilan bezash" maqsadida uch yuzdan ortiqroq maqolni kitobga kiritgan. Masalan, "Tilku o'z iniga ursa, ujuz bo'lur" (ya'ni "Tulki o'z iniga qarab ulisa qo'tir bo'ladi") maqolida o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga, ona

zaminiga, vataniga xiyonat qilgan kishining holi xarob bo‘ladi degan purhikmat ma’no mujassamlashgan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi ushbu maqolni keltirar ekan, “bu maqol o‘z elini, urug‘ini yoki mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi” (“Devon”, Indeks-lug‘at, 12-bet) deb qayd qilgan. “Devon”da dangasalik va tanballik (“*Ermaguga bulut yuk bo‘lur*”, ya’ni “Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo‘lar”), mehnatsevarlik (“*Yazin qatig‘lansa, qishin sevnur*”, ya’ni “Yozda mehnat qilgan kishi qishda sevinar”), do‘stlik va hamjihatlik (“*Yalng‘uz qaz utmas*”, ya’ni “Yolg‘iz g‘oz sayramas” yoki “*Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilig o‘prashur*”, ya’ni “Maslahatli ish bitadi, bemaslahat ish yitadi”), mardlik, botirlik, jasurlik (“*Alp yag‘ida, alchaq jag‘ida*”, ya’ni “Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh tirishishda sinaladi”), donolik (“*Alp cherikda, bilga tirikda*”, ya’ni “Botir jangda sinaladi, dono - majlisda”) va boshqa ko‘plab mavzularga doir maqollar uchraydi. Bu esa X-XI asrlarda yashagan ajdodlarimiz qo‘llagan maqollar mavzu jihatidan rang-barang bo‘lganligidan dalolat beradi.

“Devon”dagi paremiologik materiallar xalq maqollarining genetik ildizlarini aniqlash, maqol janrining kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji bosqichlarini o‘rganish, maqollarning badiiy shakli va mazmuniy xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni tadqiq etishda muhim ilmiy qimmatga ega.

Xullas, XI asrning yirik filolog olimi Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar shevasiga oid lisoniy manbalarni to‘plash barobarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, qo‘shiqlar, mif, afsona, rivoyat va naqllar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e‘tiqodiy inonchlar hamda mifologik tasavvurlarga doir boy materiallarni yozib olgan.

Folklor asarlarining yaratilishi va ommalashishi jarayoni xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, milliy mentalitetini aks ettiruvchi dunyoqarashi, an‘analari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi bois, folklori o‘rganishda uni etnografik kontekstdan ajratib tahlil qilib bo‘lmaydi. Bir tomondan, folklor asarlarida xalqimizning etnik tabiati bilan aloqador ko‘plab «etnografizmlar», qadimiy marosim va rituallar bilan

bog'liq an'anaviy motivlar mavjud bo'lsa, boshqa jihatdan folklor asarlari etnologik tadqiqotlar uchun ham boy material beruvchi muhim manba hisoblanadi.

JANRLAR TIZIMINING SHAKLLANISHIDA TARIXIY- FOLKLORIY JARAYON

San'atning manbai hisoblangan xalq og'zaki ijodiyoti insoniyat olamni ilk idrok eta boshlagan paytlardan e'tiboran odamlardagi hayratlanish, o'zini o'rab turuvchi olamga nisbatan munosabatini bildirish holatlari uzoq davom etadigan vaqt davomida sodir bo'ladi. Biz yuqorida tanishgan miflar, ulardan keyingi dunyoni bilish bilan bog'liq inson ongi, o'zining boshqa mavjudodlardan ustun ekanligini his etish tuyg'ulari miflardan keyin yanada murakkabroq tushunchalar yuzaga kelishi uchun undaydi. Mana shu tartibda ya'ni uzoq yillar davrida tafakkur faoliyati rivojlana borib, so'z, nutq va ular vositasida yanada kengroq va ta'sirliroq ifodaga ega afsona, qo'shiq va boshqa shakldagi og'zaki ijod namunalari maydonga kela boshlagan. Chunki ularning zamirida avlodlar davomiyligini ta'minlash bilan bog'liq buyuk ehtiyoj-tarbiya ham mavjud. Xalq ommasi tomonidan qabul qilinadigan eng sodda shakldagi go'daklarni allalovchi va erkalovchi aytimlardan tortib, jamoa mehnat jaryoni va har xil marosimlarda turli qo'shiqlar, chorlovlar, inson ichki kechinmasi ruhiy hislarini ehtiros bilan kuylanadigan qo'shiqlar faqat yaxshilik keltirishga qaratilgan. Yer kurrasining turli tuman qit'alari-yu, rkeaniya orollarida istiqomat qilayotgan barcha insonlar o'z fol klor madaniyatiga ega. Ular ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy turmush kechirishlari qanday tarzda bo'lishmasin, har bir etnik aholi sharoit taqozosiga ko'ra og'zaki so'z san'ati namunalari albatta foydalanadilar. 21-asr ilm-fan inqilobi yuksak darajada yuksalganligi, odamlar ulkan axborot texnologiyalari ummonida hayot kechirishlaridan qat'iy nazar, Yaratganning oddiy bandasi sifatida insonga ato etilgan fazilatlar va taqdir qismatlaridan ayro yashay olishmaydi. Agar fol klor tarixi taraqqiyoti nuqtai nazaridan bu oddiy haqiqatga yondoshilsa, og'zaki usulda shakllanib, insoniyat hayot kechirish jarayonida o'z ahamiyatini yo'qotmay

kelayotgan so'z san'ati hech qachon barham topmaydi. Chunki u tarixiy-fol klorig jarayonga ega. Mazkur jarayon xalq og'zaki ijodining harakatlantiruvchi kuchi va insoniyat tarixiy taraqqiyoti bilan soyadek ergashib boradigan an'anaviy qonuniyatdir.

O'zbek folklori tarixini o'rganishda uning fol klorig jarayoni ichki xususiyatlari haqida to'xtalish muhim natijalar beradi.

1. Tarixiy-folkloriy jarayondagi lirik janrlar bilan epik janrlar munosabati an'anaviy asosga egadir.

2. Qo'shiqlar epik janrlar tarkibiga muvofiqlashganda quyidagi vazifani bajaradilar: a) ertak syujeti voqealari tuguni yoki syujet voqealari epizodi almashinuvi o'rnida kelib voqealar davomiyligini ta'minlashga turtki beradi; b) ertak yoki biror epik janr tarkibiga muvofiqlashgan qo'shiqlar o'sha asar g'oyaviy-badiiyligi uchun qo'shimcha vosita rolini o'ynaydi.

3. Lirik va epik janrlararo munosabatlarning an'anaviy tadriji dostonlar shakllanishi uchun imkoniyat yaratadi.

4. Lirik janrlarning transformativ, ekspozitiv va prezentativ ravishda o'zga janrlar tarkibiga muvofiqlashuvi shartlilik asosida amalga oshiriladi.

5. Epik janrlar tarkibiga lirik namunalarining muvofiqlashishi an'anaviy ijroga ham bog'liqdir.

6. Sun'iy muvofiqlashgan qo'shiqlar epik mazmun mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, folklor asarining ommaviylik, xalqchilik xususiyatlariga zarar yetkazadi.

Naql va maqol o'rtasidagi funktsiyadoshlik aloqalari bu janrlarning qachonlardir bir janr sifatida shakllanib, davr o'tishi bilan tabaqalashganligidan dalolat beradi. Insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlari turli bosqichlarida tafakkur faoliyati taraqqiy etishi bilan ular alohida janrlar shaklida hozirgi holatga kelib qolgan.

Haqiqatdan ham, naql bilan maqol janrlari shakllanishi, xalq og'zaki ijodida ommalashuvi va ular orasidagi munosabatlarning ayrim jihatlarini akademik bayon

etgan fikr asosida tasavvur etsa bo'ladi. Masalan, bu eng ko'p tarqalgan va insonning olijanob fazilatlarini ulug'lash haqidagi naqlar misolida ham namoyon bo'ladi. Mana shunday naqlardan biri "Majnuntol bilan Terak"¹⁵⁰. Bunday tipga kiruvchi naqlarning syujeti metafora vazifasini o'taydi, asosiy maqsad va mantiqiy xulosaga qaratilgan va unda berilgan ramziy obrazlar xatti-harakati ham ana shu yagona didaktik g'oyaga bo'ysunadi. Naql hech qanday an'anaviy ekspozitsiyasiz, to'g'ridan-to'g'ri voqealar qizg'in joyidan boshlanadi. Majnuntol oldiga hadeb kishilar kelaverganidan unga g'ashi kelgan Mirzaterak: "Mening oldimga savlatimdan hayiqib, uncha-muncha odam kela bermaydi. Senga hayronman. Yoningdan odam arimaydi, yo seni nazar-pisand qilishmaydimi?"- deydi. Majnuntolning unga bergan javobi syujet yechimi-naql maqsadini ro'yobga chiqaradi. Ya'ni "Seni kibr-havo bilan osmonga intilasan... Shu bois, odamlar sening oldingga faqat kesib qulatish uchun keladilar. Men bo'lsam, bosh egib turaman, yonimga ko'plab kishilarning kelishi, balki ana shu kamtarligimdandir",- deya bergan javob xalq idealini bayon etadi. Mazkur naqlning mohiyatini "Kamtarga kamol, manmanga zavol" maqoli bilan izohlash mumkin. Zotan, bunday naqlar faqat og'zaki ijro jarayonidagina emas, ertak to'plamlariga kiritib yuborilgan naqlarda, shushingdek, so'nggi yillar chop etilayotgan maxsus to'plamlardagi namunalarida ham mavjud. Ayrim statik mohiyat kasb etuvchi naqlar yechimining didaktik mazmuni yana ham kuchli, ta'sirchan va ommaviy bo'lishi uchun "qissadan hissa" chiqarish uslubiga mos xalq maqollariga moslangani bu janr uchun tipik xususiyatdir.

O'zbek naqlarining umumiy semantik mohiyati xalq maqollaridan biriga mos kelishini hisobga olib, ular orasidagi o'zaro funktsional yaqinlik ildizlari juda qadimgi davrlarga borib taqalishini "Tosh bitiglar", "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilik" kabi manbalardagi xalq maqollari, naql funktsiyasini bajargan janr namunalari tasdiqlaydi¹⁵¹. Demak, naqlar bilan maqollar o'rtasidagi funktsional xususiyatlarga ko'ra juda yaqin o'xshashlik har ikkala janr aytarli bir davrning fol kloriga jarayoni mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Chunki qaysi bir naql syujeti voqealari yechimiga e'tibor, bermaylik, unda muayyan xalq maqoli

mazmuniga xos biror mohiyatni ko'rish mumkin. Masalan, "Xasis boy va uning o'g'illari" nomli naqlda ochko'zlik, uning salbiy oqibatlari haqida hikoya qiladi. Syujet voqealaridan kelb chiqadigan mazmun "Qilmish-qidirmish", "Birovga choh qazisang, o'zing yiqilursan", "Gunohiga yarasha jazosi", "Mening nafsim balodur"¹⁵² kabi xalq maqol va matallari mazmuniga mos keladi. Haqiqatdan ham, bu naqlning yaratilishidan maqsad, boylik, mol-dunyo inson uchun birinchi darajali narsa emas, asosiy narsa-odamgarchilik, yor-birodarlik, inoqlik degan mazmundagi g'oyani ilgari surishdan iborat. Xalq qadim zamonlardan buyon orzuniyat qilib kelayotgan eng yaxshi pedagogik qarashlarini yosh avlodga yetkazishda shunday bir mavzularni tanlaganki, biz ko'rib chiqayotgan "Xasis boy va uning o'g'illari" naqlining yana bir semantik ma'nosi - "Yaxshini ko'rib shukur qil, yomonni ko'rib fikr" qabilidagi maqoliga ham to'g'ri keladi. Chunki, asosiy didaktik g'oyaga bo'ysundirilgan xasis boy, uning ochko'z o'g'illari xatti-harakati tasviri har qanday tinglovchi (kitobxon) da ularga nisbatan munosabat uyg'ota oladigan darajada xalq og'zaki ijodiga xos san'at bor. Chunonchi, xasis boyning "har qanday razillikdan qaytmaydigan bolalari mol-dunyo orttirish maqsadida yo'lga chiqishib, yo'ldan bir oltin g'isht topib olishadi"¹⁵³. Mana shu detal naql syujetining tuguni vazifasini bajaradi. Voqealar davomida oltinga egalik qilish hirsida yongan va odamgarchiligini yo'qotgan aka-ukalar fosh etiladi. Ya'ni ikki katta aka kenjatoyini oziq-ovqat xarid qilishga yuborishib, shu oltinni uchga bo'lguncha, ikkimiz bo'lashib olsak bo'lmaydimi, degan yovuz niyat bilan kichkinani kelgach, bo'g'ib o'ldirish maslahatini qilayotganlarida, ovqat olib kelayotgan shum niyatli kenja: "Bu oltinni butunicha o'zim olsam bo'lmaydimi", deya ovqatga zahar qo'shib bozorga ketishi, uka kelganida tappa bosib, uni o'ldirishi va o'zlari ham ovqatdan zaharlanishib o'lishlari voqeasi berilgan. Bu naqlni har xil saviyadagi tinglovchi har xil ma'noda interpretatsiya qilishi ham mumkin. Ya'ni unga ijtimoiy-milliy tus berib, bir-biri bilan birlasha olmayotgan kishilar guruhini shu naql xulosasi yordamida hushyorlikka chaqirsa bo'ladi. Nashr qilingan naql variantidagi ma'no didaktik funktsiya bajargan. Bolalarda boylik, mol-davlatga nisbatan hirs ug'otmay, ahil, birodar bo'lib yashash tuyg'usini

tarbiyalashga undaydi. Bundan tashqari, yomonlik yo'li bilan topilgan har qanday boylik insonga yaxshilik keltirmasligi, boylik-bevafo narsa ekanligi g'oyasiga ham sha'ma qilingan. Ko'rib o'tganimizdek, naql xulosasidan chiqadigan semantik ma'noni turlicha xalq maqollari ma'nosi bilan izohlash, xalq maqollarining ma'nosini sharhlashda esa mana shu naql kabi va unga o'xshash ibratli fol klor namunalaridan foydalanish mumkinligi bu ikki janr orasidagi o'zaro munosabatlari ko'rsatishga muhim ahamiyat kasb etadi. Naql bilan maqol struktural xususiyatlariga ko'ra o'xshag bo'lmasa ham, ma'no ifodalash funksiyasi jihatdan yaqinligi ularning genetik ildizlari xalq og'zaki ijodining qadimgi davrlariga borib qadalishini ko'rsatadi. Hozirgi paytgacha saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodiga mansub eng kichik namunalaridan tortib, to katta hajmli eposlardagi stilistik birikmalar, turli motivlar, syujetlar, obrazlar yoki ularning ekvivalentlari qadimgi madaniyat yodgorliklarida ham mavjudligi hisobga olinsa, o'zbek fol klorigi janrlari tarkibi bir-biri bilan dialektik bog'liq bo'lgan bir butunlikni tashkil qiluvchi ijtimoiy ong mahsuli ekanligini bildiradi. Janrlar munosabatidagi bu sistema muayyan qonuniyatlar asosiga qurilganligini, semantik ma'no ifodalash uslubiga ko'ra funktsiyadoshlik faqat maqol va naql janrlari munosabatlarida emas, balki maqol bilan ertak, aqol bilan doston, maqol bilan qo'shiq, doston bilan ertak, ertak bilan topishmoq kabi munosabatlarda ham mavjudligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalq maqol va ertaklari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari orqali insoniyat tarixiy bosqichlarining fol kllor janrlarini o'ziga moslashtirganligini ko'rsatish mumkin. Haqiqatan ham, inson qanchalik qadimiy va hayotda ko'p tajribalar orttirganligini ko'p jihatdan uning maqollari ham ma'lum darajada ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodining bu eng ommaviy janri boshqa turlar bilan munosabati ham tarixiy poetika qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Xalq maqollari struktura jihatidan epik janrlarga o'xshamasa-da, xalq ideologiyasi, pedagogikasi, tajribasi, umumiy falsafiy qarashlarini ifodalash funksiyasiga ko'ra, ular bilan barobar, hatto, ustunlikka ham egadir. Binobarin, maqol janri har qanday tarixiy bosqich va har qanday sharoitda ommaviylik xususiyatini yo'qotmagan. Chunonchi, u faqat

og'zaki nutqni boyituvchi vosita vazifasidan tashqari, boshqa janrlar bilan munosabatda ularning ta'siriga qo'shimcha poetik vosita ham bo'lib xizmat qilagan.

O'tmish avlodlar tomonidan yaratilib, xalq ma'naviy madaniyati boyligiga aylangan fol klor merosining tadrijiy yo'li haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish uchun yordam beradigan muammolardan biri-fol klor janrlari munosabatida janrlarning ijro jarayoni va improvizatsiya masalasi sanaladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, bir janrning improvizatsiya natijasida boshqa janr tarkibiga kirishi qonuniy hodisadir. Mazkur hodisa esa eramizdan avvalgi fol klor janrlari munosabati uchun ham tipologik xususiyatdir. Xalq og'zaki ijodi bilan tosh bitiklari munosabatlarini o'rgangan olimlarning tadqiqotlarida qayd qilinishicha, O'rxun-Yenisey yozma yodgorliklari, shuningdek, «Irq bitigi», «O'g'uznoma», «Qo'rquq ota», «Devonu lug'atit turk», «Qutadg'u bilig» va boshqa yozma yodnomalardagi ayrim syujet, motiv, obrazlar eramizgacha yashagan O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida mavjud bo'lgan. Bu fikrlarni jahonning boshqa xalqlari folklori syujetlarida uchraydigan ayrim mifologik tasavvurlar ham tasdiqlaydi.

O'zbek fol kloriga janrlar tarkibining yuzaga kelishida janrlararo munosabat muhim qonuniyat hisoblanadi. Turli struktural-tipik xususiyat va g'oyaviy-ma'naviy mazmunga ega fol klor janrlarining shakllanishidan tortib, differentsiatsiyalashgunga qadar o'z boshidan rivojlanish jarayonini kechirgan.

Janrlar tarixiy-fol kloriga jarayon qonuniyatlari asosida rivojlanadi, takomiliga yetadi va barqaror holatga keladi. Inson tafakkuri taraqqiyoti bilan dialektik aloqada bo'lgan xalq og'zaki ijodiyoti namunalari umumiy badiiy printsipga ega. Ijtimoiy ong shakli sifatida turli badiiy shakl va g'oyaviy-estetik vazifa bajaruvchi janrlar tarixiy-fol kloriga jarayon rivojlanish natijasida o'z takomiliga yetgan. Bu jarayon esa fol klor janrlarining turli munosabatlaridan iboratdir.

FOLKLOR TARXINI O'RGANISHDA OG'ZAKI IJODNING TUR VA JANRLARI

O'zbek xalqi folklor tarixini o'rganishda og'zaki usul bilan yaratilgan so'z san'atini tur va janrlarga ajratib sharxlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. San'atning boshqa turlarida bo'lganidek, folklor asarlarini

ham tuzilishi, g'oyaviy -badiiy xususiyatlariga ko'ra o'zaro o'xshash va farqli tomonlar nuqtai nazardan o'rganishni taqozo qiladi. Bunday farqli va o'xshash tomonlarni ko'rsatish uchun fanda adabiy tur va janrlar terminlari qo'llaniladi. Xalq og'zaki namunalarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'rin almashishi va inqirozi yzma adabiyot sincari folklor tarixida ham yetakchi jarayon hisoblanadi.

Adbaiyotda tur (rod) nihoyatda keng tushuncha bo'li, o'z ichiga janrlarni qamrab oladi. Yunon Aristotel(384-322), Nemis olimi Gegel (1770-1831) va rus olimi V.G. Belinskiy(1811-1848) lar uch turga bo'lib o'rganishgan.

Aristotel o'zining «Poetika»sida badiiy asarlarni yirik uch katta turga ajratadi. Bu guruhdagilar adabiy tilda adabiy tur yoxud adabiy jins deb yuritib kelinadi. Bular: Epos, lirika va dramadir.

Aristotel badiiy asarni tabiatga taqlid deb ataydi.

Adabiy asarlarning bunday turlarga bo'linishi ularning mazmuni, vazifalari, va tasviriy vositalari orasidagi mavjud tafovutlarga asoslangandir.

Epos predmeti voqeadir.

Lirik turning predmeti - lirik kechinma, ruhiy holat.

Drama predmeti - haraktdir.

Adabiy tur tushunchasi shartli tushuncha. U konkret adabiy shakllarda namoyon bo'ladi. Har bir adabiy tur o'z navbatida janr(xil)larga bo'linadi.

Janrning ham maydaroq shakllari bo'lishi mumkin. Masalan, epik asar-doston, qahramonlik, romanik, tarixiy dostonlarga bo'linadi. Umuman, ta'kidlanidek, turlar quwidacicha tasnif etib kelingan;

Epik turga- doston, ertak, latifa, qissa, nowella.

Lirik turca-qo'shiq,terma,lapar,aytishuw.

Dramatir turca-askiya,masxarabozlik,so'z o'yini kabilar kiradi.

Folklor asarlarining tur va janrlarga bo'linishi

O'zbek folklorining tur janlari har xil ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Ayrim janrlar, masalan,maqol, topishmoq,ommaviy xarakterga ega.Doston, og'zaki drama kabi janlar professional ijodkor faoliyati bilan bog'liq.Bu narsa poetik ijod namunalari yaratish, ijro etish, tarqatishda professional ijodkorlar roli kattaligini urg'ulaydi. Ijodkorlar: Baxshilar, ertakchilar, askiyaboz, qiziqchi, dorboz ijrochiligi rivojlangan professional san'at namunasi bo'lib uni ijro etish uchun ijodkor ma'lum tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi kerak.

G'oyaviy tematik va badiiy xususiyatlari bilangina emas balki ijro usullari jihatdan ham farq qiladi. Masalan: Yakka ijrochilik- kollektiv ijrochilik; sozda ijro etish, sozli va sozsiz ijro etilishi bilan ham farqliklarga ega. Folklor namunalari biri kuylash uchun: qo'shiq, biri aytish uchun: Ertak, yana biri kuylash va aytish uchun:doston, yana biri kuylash va raqs tushish uchun: lapar, ayrimlari aytib berish bilan birga ko'rsatish, namoyish etishi (og'zaki drama, askiya) farqlanib turadi.

Folklor janrlari orasidagi bunday bo'linish ularning juda katta g'oyaviy estetik funksiya bajarishi bilan bir qatorda muhim ijtimoiy funksiya ham bajarishini taqozo etadi. Masalan folklorning xo'p mayda, ho'sh=ho'sh, turey-turey kabi turkum namunalari mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, kelin salom, yor-yor, sust xotin kabilar marosim, urf-odatlar bilan bog'liq.

Folklor janrlari qanchalik rang-barang bo'lmasin, farq qilmasin ular yaxlit sistemadir. Folklor janrlari barcha tip asarlar mana shu yaxlit sistemada murakkab o'zaro aloqada bo'lib, bir-birlarini boyitadilar. Janrlarning bunday yaxlit sistemasining shakllanishi va mavjudligi folklor taraqqiyotining asosiy qonuniyatlaridan biridir.

O'zbek folklorining janrlar tizimi boy va rang- barang. Bu janrlar ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'zbek xalq xayotini har tomonlama aks ettirish orqali yaxlit tizim holatiga kelishi tarixiy-folkloriy jarayon an'anaviy qonuniyatlari mahsulidir. O'zbek folklori janrlar tizimidagi janrlar boshqa xalqlar poetik ijodida ham mavjud, ya'ni umumfolklor janrlari (masalan ertak, maqol, topishmoq va hakoza). Shu bilan birga uning o'ziga xos janrlar ham bor (Masalan, askiya, lof, aytishuv, qoraqplpoqlarda to'lg'ov, qozoqlarda aytish). Xalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijro o'ri, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog'liqlik darajasi, g'oyaviy –badiiy xususiyatlariga ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar balki, tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalarining tabiati, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi. Folklor asarlari o'z tarkibiga ko'ra uch turdan iborat ko'rinishda namayon bo'ladi. Ularni umumiy shaklda epik, lirik, dramatik turlarga ajratib tasnif etish qabul qilingan. O'z navbatida bu turlar ichki janrlardan tashkil topgan. Epik tur namunalarida voqelik keng ko'lamli, obektiv syujetli-hikoyaviy shakllarda tasvirlansa, lirik turda subektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlari, ichki his-hayojonlari aks etadi. Dramada esa personajlarning nutqi va harakatlari orqali voqelik tasvirlari beriladi. Epik tur – doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va boshqa janrlardan, lirik tur – marosim lirikasi, mehnat qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar, alla, bolalar qo'shiqlari, dramatik tur esa og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, so'o'yini, qiziqchilik, masxarabozlik kabi janr namunalarini o'zida qamraydi.

Folklorshunoslikda tur deyilganda voqelikni ifodalash yo'li, usuli tushinilsa (epik, lirik, dramatik), janr deganda badiiy shakl tiplari (doston, ertak, qo'shiq, maqol...) tushiniladi. Ammo har bir janr ham ichki xilma-xilliklarga ega, bu uning mavzu mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, ertaklarning ichki ko'rinishlari sifatida

hayvonlar haqidagi ertaklar, sehirli ertaklar, hayotiy- maishiy ertaklar kabi xillari mavjud. Bir qator mutaxassislar maqol va topishmoqlarni maxsus tur sifatida tilga olib o‘tishadi.

Folklor janrlarini ijro xususiyatlari va funksiyalariga ko‘ra ikki yirik guruhga ajratib tasnif etish keng tarqalgan. 1. Marosim folklori janrlari. 2. Marosim bilan bog‘liq bo‘lmagan folklor janrlari. Folklor asarlarining kimga mo‘ljallanganligini hisobga olib ham ayrim guruhlariga bo‘lish mumkin. Bolalar folklorini alohida olib ajratish shundan kelib chiqqan.

Folklorshunoslikda gohi-gohida turlar aro qorishiq holatda uchraydigan namunalarga nisbat liro-epik qo‘shiq yoki ertak afsona singari atamalar qo‘llanilsa-da, bu holat umumiy holat emas.

Xalq badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi folklor namunalarining tadrijida aks etgani kabi u yoki bu janrning yuzaga kelishi, turg‘unlashuvida muhim o‘rin egallaydi. Insoniyat mifologik tafakkur bosqichidan mifopoetik so‘ngra badiiy estetik tafakkur tadrijiga erishdi. O‘zbek folkloridagi aksariyat janr namunalari aynan badiiy estetik tafakkur darajasida mumtoz holatga kelganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham o‘zbek mifologiyasi xususida so‘z ketsa xalq dostonlari, ertaklari mag‘zida turuvchi mifologik tasavvurlarni, ularning bu asarlar syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar qatidan ajratib, tiklab qarash lozim bo‘ladi.

O‘zbek folklorining janrlar tarkibi boyligi, xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu o‘rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo‘lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof kabi faqat o‘zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim.

O‘zbek folklori janrlari xilma-xilligi ijodkorlarning faoliyati va ularning professionallashuvi bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, doston, ertak, og‘zaki drama, askiya kabi janrlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni, muayyan ustozdan ta‘lim etishni talab etadi. Bu janrlar ijrosi maxsus maktablarning paydo bo‘lishini, ularning o‘z an‘analari doirasida shakllanib rivojlanishini ta‘minladi.

O‘zbek folklori janrlari ijro usullari, ya‘ni yakka ijro, jamoaviy ijro, sozli va sozsiz ijroga ko‘ra ham farqlanadi. Ertak, afsona va rivoyat aytilsa, doston ham

kuylash, ham ijro etishga mo'ljallangan. Lapar kuylab va raqsga tushib ijro etilsa, og'zaki drama namunalari so'z (ba'zan kuylab, kuy jo'rligida) va harakat omuxtaligida ko'rsatishga, namoyish qilishga mo'ljallangan. O'lanlar tarafma-taraf kuylangan. Latifa va loflar yakka ijro etilgan.

O'zbek folklorining janrlar tizimi g'oyaviy-badiiy irinsiplarining umumiyliigi, tarixan taraqqiy etgan o'zaro mushtarak munosabatga egaligi bilan yaxlit tizimni tashkil etadi. Ularning barchasida xalq hayoti, uning o'zligini namayon etuvchi xususiyalar, ruhiyat, orzu intilishlar aks etadi. Folklorning barcha janrlari uchun badiiy-estetik prinsiplar ham umumiy ko'rinishga kelgan. Sodda shakl, donishmandlik, badiiy-tasviriy vositalar tizimidagi umumiylik, ramziylik, shartlilik, qahramonlarning yuksak ahloqiy mezonlar asosida aniq bahoga egaligi, syujet va kompozitsion qurilishdagi an'anaviylik ustuvor ko'rinish oladi.

Xalq bilan birga tug'ilgan bu xususiyatlar xalqning tarixi, madaniyati, turmushi, e'tiqodi va tiliga xos xususiyatlarni, milliy o'ziga xoslikni yorqin ifoda etadi.

Epik asarlarning eng yirik turlaridan biri bo'lgan dostonlar boshlamasi garchand ertaklarnikiga o'xshab ketsada, faqat o'zigagina xos bo'lgan jihatlarga ham ega. Bu o'ziga xoslik birinchi navbatda ertakka nisbatan ancha keng qamrovli, epik ijodkor, ya'ni baxshi mahorati bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. Shuning uchun aytish mumkinki, dostonlardagi nasrda saj bilan keluvchi boshlamalarning pishiq puxtaligi, mazmunan boyligi, badiiyatiga qarab doston ijrochisining san'takorlik darajasini belgilab berish mumkin bo'ladi.

«Alpomish» borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, biroq doston muqaddimasi va uning asar strukturasiida tutgan o'rni masalalari yetarli darajada tadqiq etilgan emas.

Epik ijoddagi muqaddimaning o'rganilishi, eng avvola, doston strukturasiining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta'minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asar mohiyatida turgan voqelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada

ko‘pincha qahramon shajarasiga urg‘u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko‘k bilan, ilohiyot bilan bog‘lanishi urg‘ulanadi. Muqaddimlar har matnda, qahramonlik, romanik dostonlarda o‘ziga xos tarzda beriladi. Bu boshlamalar, bir-biridan farqlanib tursada, ularda umumiy jihatlar mavjud. Muqaddimlar:

1. Tinglovchini voqelikka tayyorlaydi, ya’ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqea bo‘lib o‘tadigan joy bilan tanishtiradi.
2. Doston qamrab olgan voqelikning ko‘lami naqadar keng ekanligini urg‘ulaydi.
3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga to‘rtki beradi hamda ular o‘rtasidagi o‘zviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

«Alpomish» dostonida muqaddima: «Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘i ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi». – deb boshlanadi.

«Burungi o‘tgan zamon» bu mifologik tushunchaga ko‘ra ibtidoning boshlanishi, kaosning kosmosga aylanishidir. Gap bu yerda noreallik, hayotiy asosga ega bo‘lmagan badiiy to‘qima haqida gap ketmayapti. Balki, yarmi afsona, yarmi haqiqat, mifologik qobiqqa o‘ralgan o‘tmish, tarix haqida hikoya qilayapti. Ertakdan farqli ularoq dostonni ijro etuvchi baxshi ham, tinglovchi ham undagi voqealar chin haqiqat ekaniga ishonadi. Qolaversa, doston ajdodlarning muqaddas xotirasi, shonli tarixi haqida. Bu shonli voqealar bir necha avlodlar tomonidan kuylanib kelingan, avlodlarga yetkazilgan va ijro etilayotgan zamonda ham davom etmoqda.

«O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli» yuqoridagi o‘tmish tarixiga yanada hayotiylik bag‘ishlaydi. Bu tarix ma’lum bir urug‘, ayni bir paytda butun boshli elat o‘tmishi bilan aloqador ekanini urg‘ulamoqda.

«Dobonbiy» soʻzi dovon, yuksaklik maʼnosida keladi. Bu ism shunchaki tanlanmagan. Hayotda katta ishlarni amalga oshirgan, yuksak marralarga erishgan qahramonning ramziy timsoliy obrazidir. Dostonda bu obraz chizgilari goʻyo mukammal emasdek, doston boshlamasida eslanib, keyin unutilib ketadigan ismdek tuyuladi. Biroq, bu obrazga keyingi jumlar, keyingi voqealar oydinlik kiritadi. Alpminbiydek Alpning dunyoga kelishi oʻz-oʻzidan boʻlmagan. Unga Dobonbiy chekkan zahmat, erishgan donishmandlik sabab boʻlgan.

Boyboʻri bilan Boysari ismdagi «Boy» old qoʻshimchasi ularning shajarasi kimlardan ekanini koʻrsatib turibdi. Biroq eʼtibor qilsak, Dobonbiy, Alpinbiy sanalib, keyin ikki juft ism sanalayapti. Bu bejizgami?

Folklorda egizaklar tushunchasi mavjud. Har ikkala ism ana shu egizaklar haqidagi tushunchaning maʼlum darajadagi badiiy talqinidir. Odatda egizaklar haqidagi mifologik tasavvurda egizaklarning biri katta, ikkinchisi kichik boʻladi. Ona urugʻchilik bilan bogʻliq tasavvurlar ustivor qonuniyat kashf etilayotgan davrda urgʻu koʻproq kenjaga berilib, koʻp holatlarda bevosita ona bilan bogʻlanadi. «Kenja botir», «Uchinchi oʻgʻil» kabi ertaklar, «Alibek bilan Bolibek» dostonlari buning yorqin misolidir.

Faqat bu yerda urgʻu Boysariga emas, aksincha Boyboʻriga qaratilgan. Alpomishning ham Boyboʻrining farzandi ekani bejizga emas. Demak, bu dostonda ota urugʻchilik bilan bogʻliq tasavvurlar boʻy koʻrsata boshlaganidan dalolat beradi. Biroq dostonning boshqa, jumladan, Barchin, Qaldirgʻoch, Surxayil kampir, Tovka oyim obrazlari talqini shuni koʻrsatadiki, dostonda ona urugʻchiligi bilan bogʻliq tasavvurlar ham hali barqaror turibdi.

«Alpomish» dostonida alp- qahramon tugʻilishidan oldin ota – onalarning farzandsizligi aslida ramziy maʼnoga ega boʻlib, gap bu yerda saltanatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana birlashtiradigan yangi avlod – Alpning tugʻulishi haqidadir.

«Alpomish» dostonida millatning boʻlinishi, parokandaligi Boysarining qalmoq eliga koʻchishi orqali ifodalanadi. Zero, turkiy xalqlar tarixning maʼlum bir davrlarida ulkan saltanat, hokimiyat va cheksiz hukmronlikka ega

bo'lgan. O'zaro bo'linishlar, urushlar va boshqa sabablar tufayli bu buyuk saltanatga putur yetgan. So'ngra xalqni, millatni birlashtira olgan yangi avlod – Alplar tug'ilib, turkiy xalqlarning tarix sahnasidagi oldingi yuksak mavqeyi yana qo'lga kiritilgan. Xuddi shunga o'xshash voqealarning badiiy ifodasi har ikkala asarning mohiyatini tashkil etadi.

E'tibor qilsak, «Alpomish»da Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonni faqat Hakimbek ota oladi. Alplik kamoning ko'lda zang bosib yotishi undan oldingi avlod o'z vazifasini oxirigacha bajara olmaganidan dalolat beradi. Bunday vazifani yangi avlod – Alplargina oxiriga yetkazadi. Kamon bilan bog'liq motiv «Dada Qo'rqut kitobida ham o'xshash holatda keladi.

Epik ijoddagi alplik tizimiga turlicha yondoshuv mavjud. Xorijlik olimlar Lord Raglen, Karl Rayxl, Ojal O'g'zular o'z tadqiqotlarida «Qahramonlik qolipi», o'zbek folklorshunoslari esa «alplik tizimi» degan atamani ishlatadi. YA'ni folklordagi qahramon shunchaki qahramon emas, balki uning jasorati, mardligi, qahramonligini bo'rtirib turadigan jihatlar mavjud. Bu jihatlar dostonlarda epik qolip shaklida keladi. YA'ni, qahramonlar ma'lum bir tizimga amal qilishadi. Bunday misollarni yana ko'plab kelirish mumkin.

Dostonlar muqaddimasining ilk jumlasidayoq ajdodlarimizning shonli o'tmishi bilan bog'liq tasavvurlar mustahkam o'rin olgan. Demak, mazkur holat dostonning mifologik qatlami, yuzaga kelish davriga ham ma'lum darajada aniqliklar kiritadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xalqning ko'p ming yillik tarixi, tafakkur tarzi haqida juda boy va qimmatli ma'lumotlar beradi.

«Dada Qo'rqut kitobi» muqaddimasi «Kitob «Rasulalayxissalom zamoniga yaqin Bayat bo'yida Qo'rqut ota degan bir er o'rtaga chiqdi. U kishi o'g'izning donishmandi edi. Aytgani bo'lardi. G'oyibdan turli xabarlar so'ylardi. Haq taola uning ko'ngliga ilhom bahsh etardi», deb boshlanadi. Garchand dastlabki muqaddimada Qo'rqut ota hayoti islom tarixi bilan chambarchas bog'liq holda berilsada, biroq quyma fikr, maqol o'rnida kelgan satrlarda Qo'rqut ota bilan bog'liq qatlam juda qadimiy ekanligi sezilib turadi.

«Dada Qo‘rqut kitobi»ning har bir hikoyasida Qo‘rqut ota asosiy obraz sifatida gavdalanadi: «Dedem Korkut boy boyladi soz soyladi», «Dedem Korkut geldi sadilik caldi boy boyladi soy soyladi? Gazi erenler basina ne geldigini soyladi» va hakoza.

Urug‘boshi, yo‘lboshchi va shuning bilan bir vaqtda epik ijodkor bo‘lgan Qo‘rqut ota haqidagi miflogik tasavvurlar bir narsani: baxshi va shomon aslida bir sinkritik obrazning turli davrlardagi turlicha ko‘rinishi ekanligini isbotlab turibdi.

Bunday evrilishlar xalqning tarixi, qahramonlik o‘tmishi va manaviyatining sarchashmasi bo‘lgan epik ongning taraqqiy etishida muhim rol uynagan. Eposdagi magik jihatlar asta so‘na borib, shomon, tabib, baxshi, yo‘lboshchi funksiyalari bir-biridan tabora farqlana borgan: «..Bayot naslidan Qo‘rqut ota degan er dunyoga keldi. Ul kshi O‘g‘uzning tamom bilguvchisi edi. O‘g‘uz ichida uning bor karomati zohir bo‘lmish edi. Na desa bo‘lardi, g‘oyibdan turli xabar suylardi». Demak u millatning yo‘lboshchisi, donishmandi, qahramoni. Lekin u birinchi galda patriarx shomon qiyofasini o‘zida mujassam etgan ulkan epik ijodkordir. Uning karomtgo‘yligi, g‘oyibdan sirlar so‘ylashiga ham baxshichiligi sabab. «Dedem Korkut geluben sazilik caldi, bu Oguz-nameyi duzdi kosdi, boyle dedi». Demak: «geluben sazilik caldi» - epik an’anani davom ettirdi, «duzdi kosdi»-o‘zining ijrochi emas, ijodkor baxshi ekanligini namoyish etdi, «boyle dedi»-kelgusi avlodga meros qoldirdi.

O‘z tadqiqotlarida Qo‘rqut otaning baxshilik sifatlariga alohida e‘tibor qaratgan Muharram Ergun shunday yozadi: «Bu ise Dede Korkutun Dede Korkut kitabindeki ozan ve gaupten haber verme sifatlarina bastanbasa uygundur»

Dostondagi «Dede Korkut kitabi»dagi: «Dede Korkut dilinden ozan aydur» jumalari, bir tomondan mazkur yodgorlik epik an’ana namunasi ekanini urg‘ulaydigan jihat bo‘lsa, ikkinchi tomondan eposda Qorqo‘t otani o‘ziga pir va ustoz deb bilgan boshqa baxshilar obrazini ham ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Kitobda muqaddima bir necha o‘rinda, ya’ni kitob boshida hamda har bir bo‘lim–doston boshida keladi. Bu muqaddimalar mohiyatan bir-birini to‘ldiradi.

Dostonning dastlabki bo‘lim muqaddimasida Boyindirxonning to‘yidagi Dirsaxonga bo‘lgan, ya’ni farzandi yo‘q odamga izzat-ikrom ko‘rsatilmaganligi bilan «Alpomish» dostonida Boybo‘ri va Baysariga elatning to‘yida izzat – ikrom ko‘rsatilmaganligi, farzandsiz erning farzand ko‘rish uchun chora izlashi va oxir-oqibatda alp farzand ko‘rishi bilan bog‘liq o‘rinlar ayni bir epik voqelikning turlicha bayonidir.

Hali voyaga yetmagan Dirsaxon o‘g‘lining bo‘qa bilan olishib, uni yengishi va Qo‘rqut ota kelib unga ism qo‘yishi ham «Alpomish» dostoni boshlamasidagi Hakimbekning yetti yoshga yetganda Alpinbiydan qolgan kamonni otib, hammani lol qoldirgani va el-ulus yig‘ilib unga Alpomish deb ism qo‘yishi ham juda o‘xshashdir. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

ALPLIK TIZIMI - epik asar, asosan qahramonlik dostonlari o‘zagida turuvchi, shomonlik tasavvurlari bilan bog‘liq tizim. Bu tizimga ko‘ra qahramon Alp bo‘lib tanilishi uchun bir qancha bosqichlarni bosib o‘tishi zarur. Bular: 1) Alpning tanlanishi; 2) alplik «xasta»ligiga duch kelishi; 3) qayta yaralishi (o‘lib-trilishi). Xuddi Alpomish kabi ko‘pgina doston qahramonlari mana shunday bosqichlarni bosib o‘tib, Alp atanadi va epos qahramoniga aylanadi. Alpomish, Go‘ro‘g‘li aynan ana shunday alp qahramonlar hisoblanadi. Dostondagi “alplik kasali”, “alpning qayta yaratilishi” va “alpning tan olinishi” bilan bog‘liq syujet halqalari, epos syujetining ilk qatlamiga taalluqli bo‘lib, bevosita animistik dunyoqarashlar asosida shakllangan hamda alplik tizimining tayanch bo‘g‘inlaridan hisoblanadi. Doston syujeti va talqinida alplik tizimining mavjudligi uning qahramonlik eposiga mansubligini aniqlashda tayanch mezonlardan hisoblanadi.

Afsona va rivoyatning janriy belgilari

Afsona fors tilidan olingan bo‘lib (افسانا), ma’no mohiyatida ikki tushuncha yetakchilik qiladi: 1 – biror voqeani, lavhani hikoya qilish; 2 – bu hikoya uydirma, to‘qimalardan iborat bo‘lishi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida so‘zning bir necha ma’nolari ko‘rsatilgan: “afsona bo‘lmoq”, “afsona to‘qimoq”, “afsonaviy” va

boshqalar. Lekin asosiy ma'no tafakkur fantaziyasi bilan bog'liq bo'lib, aql bovar qilmaydigan uydirma voqealarni hikoya qilish va shu bilan shuhratga ega bo'lish tushunchasi yetakchilik qiladi.

Afsona diffuzion jarayonda mif tarkibida paydo bo'lgan, keyinchalik alohida janr sifatida ajralib chiqqan xalq og'zaki ijodidagi birinchi mustaqil epik tur namunasi hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida avvalgi sahifalarimizda esga olingan "saw" so'ziga murojaat qilamiz:

سَاف saw – otalar so'zi. Chunonchi, رَكَّةٌ عَدْتُمْ ادْفَاسَ sawda mundag' kelir – otalar so'zida shungdog' keladi.

سَاف saw – qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish.

سَاف saw – hikoY. Biror voqeani aytib berish.

سَاف saw – risola, xat, kichik kitobcha.

سَاف saw – so'z, nutq.

سَاف saw – ilgarigi xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi.

Bu janrga mansub asarlar fikriy, g'oyaviy ozuqani miflardan olgani uchun hayotning, insonning, osmon jismlarining paydo bo'lishi haqida ham hikoya qilish an'anasini saqlab qolgan. Ehtimol, shuning uchun ham afsonalarda diniy voqeahodisalar tavsifi ko'proq uchraydi. Xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlarida qayd etilgan shartlilik belgisi afsonalarga ham xosdir. Afsona aytuvchi shaxs o'z hikoyasi qaysi mavzu va qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar aks ettirilayotgan lavhaga tinglovchining to'liq ishonishini xohlagan. Aytilayotgan xabardagi ayrim aniq ma'lumotlar esa muhokama qilish ortiqcha ekanini tasdiqlagan.

Afsonalar og'zaki ijodimizdagi eng ommaviy janrlardan biridir. Ifodadagi soddalik, voqealar sonining cheklanganligi, an'anaviy qism (boshlama)ning, yakuniy qismning mavjud emasligi, aytuvchidan maxsus tayyorgarlik va mahoratning talab etilmasligi bu janrdagi asarlar ijrosini osonlashtiradi. Hikoya

qilish jarayonida alohida estetik ehtirosni inkor etadi. Shuning uun afsonalarni istagan har bir millat vakili aytishi mumkin.

Afsonalar mazmunida eng qadimgi uydirma hodisalar, muayyan hudud nomini izohlovchi toponimik ma'lumotlar sharhlanadi. "Kuygan yor", "Ellik paysa", "Tuya cho'kdi", "Oshoba", "Qonqus" kabi namunalar ana shunday mavzularni o'zida aks ettiradi. Folklor ekspeditsiyasi davomida deyarli har bir qishloq, buloq, tepalik, suv manbalari haqida hayratomuz afsonalarni yozib olish imkoniyatiga ega bo'lganmiz. Ertaklardan farqli o'laroq ularda syujet tizimining barqarorligi kuzatilmaydi. Ularning mavzu yo'nalishini uchga bo'lib tahlil qilish mumkin:

- 1.Sof mifologik afsonalar.
- 2.Tarixiy voqea-hodisalarni izohlovchi afsonalar.
- 3.Mahalliy hududlardagi geografik nomlar bilan bog'liq afsonalar.

Hazrat Xizr, Er Xubbi, Odami Od, Ilyos nomlari bilan bog'liq afsonalarda insonlarning hayotiga homiylik qilish, o'zni kelganda, yo'l ko'rsatish, mushkulni oson qilish g'oyasi ilgari suriladi. Xizr har bir odamning hayoti davomida bir necha marta uchraydi, degan aqida xalqimizda saqlangan. Folklorshunos olimlar M.Jo'rayev va SH.Shomusarov "O'zbek mifologiyasi va arab folklori" kitobida shunday afsonani misol keltirishadi:

"Xo'jai Xizr har kuni peshin namozini Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida o'qir ekan. Bir kuni namoz o'qiydiganlar orasida Xo'jai Xizr haqida gap bo'lib qolibdi. Bir ulug' shayxning muridi shunday debdi:

- Men har kuni namozni shu yerda o'qiyman, lekin biror marta ham Xizrni uchratganim yo'q.

Shunda shayx o'z muridiga:

- Sen qirq kun toat ibodat bilan namozingni o'qisang, albatta, Xizrni ko'rasan, - debdi.

Murid qirq kun namozni kanda qilmay o'qiydi. Qirqinchi kun juldur kiyingan bir chol uning yoniga namoz o'qish uchun o'tiribdi.

Murid:

- Men qirq kun namozni kanda qilmasdan o'qidim. Lekin baribir Xizrni ko'rmadim, - deb tashqariga chiqib ketibdi. Haligi juldur kiyingan chol ham muridning orqasidan chiqibdi. Murid bu choldan necha yoshga kirganligini so'rabdi. Chol bo'lsa:

- Necha yoshga kirganligimni bilmayman, lekin Buxoro yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganligini ko'rdim. Bu masjid daryoning eng chuqur joyida qurilganligini ham bilaman, - debdi.

Murid "bu chol juldur kiyimli desam, es-hushi ham joyida emas ekan", - deb shayxining huzuriga boribdi-da:

- Men qirq kun namozni kanda qilmasdan o'qidim, lekin Xizrni ko'rmadim, - debdi.

- Unda kimni ko'rding, - deb so'rabdi shayx.

- Bir juldur kiyimli cholni ko'rdim. U Buxoroning yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganini ko'rdim, deb aytdi, - debdi murid.

- Sen ko'rgan kishi Xizr bo'ladi. Buxoroning yetti marta buzilib, yetti marta bunyod bo'lganligini Xizrdan boshqa kishi ko'rmagan. Sen gumroh esa buni bilmagansan, - debdi shayx"²⁴.

Bunday mavzudagi afsonalarda xalqning har bir ishni, yaxshilik va ezgulikni sidqidildan, tamasiz qilish kerak, degan o'ta muhim g'oya singdirilgan bo'ladi. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, murid birinchi navbatda namoz o'qishini bir necha marta pisanda qildi. Ikkinchidan, u atayin Buxorodagi Mag'oki Attori masjidida namoz o'qiydi. Chunki u Hazrat Xizrning aynan shu yeda namoz o'qishini eshitgan. O'z-o'zidan muridning namozni ham bejiz o'qimasligi, masjidni ham sababsiz tanlamagani ma'lum bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham taqdir uni g'aflatda qoldirdi. Qirq kun Mag'oki Attori masjidida kanda qilmay namoz o'qigan odamga Xizr uchraydi, degan aqida haq bo'lib chiqdi. Lekin muridning toatida tama yashiringani bois u Xizrni uchratganini o'zi bilmay g'aflatda qoldi. Aslini olganda, afsonaning bosh g'oyasi – murid o'qigan hamma namozlar ham bekor

bo‘lib chiqqani ayonlashadi. Ya’ni toatni, xususan, birovga qilinadigan yaxshilikni beg‘araz amalga oshirgandagina odam savobga ega bo‘ladi, deb ta’kidlanmoqda.

Mavzu jihatdan ikkinchi turga mansub asarlarda tarixiy voqea-hodisalar, turli udumlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holatlar hikoya qilinadi. Masalan, bahor faslida ekin-tikin ishlari boshlanib, dastlabki urug‘lar yerga sepilgan bir vaqtda to‘satdan havoning avzoyi buzilsa, Muso payg‘ambar bilan bir dehqon o‘rtasida ro‘y bergan voqea esga olinadi:

“Kunlardan bir kun Muso payg‘ambar Xudo oldiga ketayotgan ekan, erta bahor bo‘lishiga qaramay, don ekayotgan dehqonni ko‘rib qolibdi. Muso unga hali don ekishga erta ekanini aytibdi. Dehqon tajribasiga ishonib, uning gapini rad qilibdi. Xudo bilan suhbatda Muso bu munozara yechimini so‘raganida, Xudo dehqonning haq ekanini, ammo Muso gapini endi inobatga olishi kerakligini bildiribdi. Shunday qilib, Muso Xudo oldidan qaytayotganida, havo sovugan, qor shamoli esayotganmish. Dehqon esa hayron bo‘lib, osmonga qararmish. Shunda Muso o‘zining haq ekanini dehqonga eslatibdi. Dehqon istehzo bilan kulib: “Don ekish vaqti kelishga-ku kelgan, havoning buzilishi mening sen bilan tortishganim oqibatidir”, - degan ekan. Shu-shu ekish vaqtida havo buzilsa, dehqonning payg‘ambar gapiga ko‘nmaganini eslasharkan”.

Afsonalar badiiy ijodning dastlabki namunasi sifatida odam qalbida ishonch tuyg‘usini hosil qilishga, har bir insonning o‘z qobiliyati, harakati natijasida baxtini topishi mumkinligiga umid paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Masalan, qadimdan taqdir tushunchasi odamlarning ongida mavjud bo‘lgan. Har bir ko‘ngilsiz mushkulotni odam taqdir, deb qabul qilgan. Ammo shunday afsonalar borki, ularda inson taqdiri uning o‘z qo‘lida ekani ta’kidlanadi. YA’ni inson xatti-harakati, niyati, ayniqsa, keskin qarori bilan qismatida o‘zgarish yasashi mumkinligi uqtiriladi.

“Muso kunlardan bir kun Tangri oldiga ketayotganida, yo‘lda oyoq-qo‘li yo‘q majruh bir odamni ko‘ribdi. Odam undan o‘zining taqdiriga jannat yoki do‘zax yozilganini bilib berishni so‘rabdi. Tangri payg‘ambarga: “U odamning oxirgi joyi do‘zax bo‘ladi. Chunki umr bo‘yi uni yemak-ichmakka muhtoj

qilmadim, ammo biron marta “Xudoga shukr” demadi”, - debdi. Muso payg‘ambar qaytishida haligi odam undan javob kutibdi. Payg‘ambar bor gapni aytibdi. Shunda odam: “Bo‘masa Xudoga ayt, men o‘lganimda, tanamni shunaqa katta qilib yuborsinki, boshqa hech kimga do‘zaxdan joy qolmasin”, - debdi. Ana shu gapdan keyin bechora banda jannati bo‘lgan ekan”.

Ma’lum bo‘ladiki, taqdir taqdir bilan, ammo inson muayyan vaziyatdagi o‘zining noan’anaviy qarori yoki harakati bilan katta baxtga erishishi ham mumkin bo‘ladi.

Yana bir tur afsonalar toponimik mavzularga bag‘ishlangan bo‘ladi. “Nurota”, “Hazorasp”, “O‘sh”, “Baliqchi qishlog‘i”, “Obshir ota” kabi o‘nlab afsonalarda shahar, qishloq yoki yana boshqa geografik joylarning nomlari izohi beriladi. Toponimik afsonalarning o‘zi ham mavzuga ko‘ra turlarga ajraladi. Hatto faqat suvli joylarga bag‘ishlangan namunalarni oqar suvlar, buloqlar tizimi bilan tasnif qilish mumkin. Chunki o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi afsonalar mavzu va ifodalangan g‘oya jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Masalan, Hazorasp haqida juda qadimdan shunday bir afsona yetib kelgan:

“Qadimda bu shahar o‘rnini qalin saksovulzor egallagan bo‘lib, bu yerda beshta buloq bor ekan. Sehrli qanotli otlar galasi uchib kelib, shu buloqdan suv icharkan. Sulaymon ismli bir kishi ularni qo‘lga o‘rgatmoqchi bo‘libdi. Buning uchun u bir sehrgarning maslahati bilan buloq suviga may aralashtiribdi. Shundan keyin mingga yaqin afsonaviy ot uchib kelib, buloq suvidan ichib, mast bo‘lib qolishibdi. Parvoz qila olmay qolgan otlarni Sulaymon qo‘lga tushirib, qanotlarini qirqib tashlabdi. Natijada, bu otlar qanotidan ayrilib, yerda yuradigan hayvon bo‘lib qolishibdi. Shundan so‘ng ot nasli odamning yaqin do‘sti va xizmatkoriga aylanib qolgan ekan.

Otlar qo‘lga tushirilgan buloqlar o‘rnida paydo bo‘lgan shaharga Hazorasp deb nom qo‘yibdilar” (Hazorasp – mingta ot ma’nosini anglatadi).

Xullas, afsonalarni tasnif qilishda ularning mazmuni asos hisoblanadi.

Shu bilan birga bunday asarlarni yozib olish davomida kishining xayoliga kelmagan qiziq-qiziq mazmundagi afsonalarga duch kelishimiz mumkin:

“Xudo dunyodagi hamma xalqlarga yer yuzidagi yerlarni bo‘lib beribdi. O‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lgan o‘zbek o‘sha taqsimotga ham kechikib boribdi. Bu paytda o‘zbek olishi mumkin bo‘lgan yerning o‘zi qolmagan ekan. Xudo rahmdil emasmi?! Shuning uchun o‘zbekka:

- Mayli, men o‘zimga ikki daryo oralig‘idan bir parcha yer olib qo‘ygan edim, shu joyga sen egalik qila qol, - degan ekan. Shu-shu o‘zbek hozir O‘zbekiston deb ataluvchi yurtda istiqomat qilarmish. Bu o‘lkaga Xudoning nazari tushgani uchun kuzda dalada qolib ketgan ketmon bahorda novda chiqarib gullarmish”.

Albatta, bunday afsonalar “Shirin qiz” (Shirin ismli qiz bilan husnda musobaqalashmoqchi bo‘lgan Oyning go‘zallik tarozisi pallasida osmonga uchib ketgani haqidagi kosmogonik afsona) kabi keng ommalashmagandir, ammo o‘ta topqir mahorat sohibi tomonidan o‘ylab topilgan go‘zal ijod namunasi darajasida baholanishi mumkin.

Xullas, afsonalar mazmun jihatdan, asosan, axborot yetkazuvchi o‘ta sodda syujetli uydirmalardan tashkil topadi. Ularda ijod qilgan millatning, koinotdagi quyosh, oy, yulduz, sayyoralarning paydo bo‘lishi, geografik nomlarning izohi, turli-tuman tarixiy voqealar, rasm-rusumlar sharhi o‘zining ifodasini topadi. Qadim zamonlardan ajdodlarimiz o‘z hayotiga tegishli har bir savolga, har bir muammoga, an‘ana – udumlarga, hatto o‘zi yashayotgan vatanga ongli munosabatda bo‘lgan va xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida yakuniy xulosasini, tajribasini bildirgan. Folklorshunoslikda afsonalarni tadqiq etish og‘zaki ijod tarixining nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Rivoyatlar. Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib (تپاور), hikoya, qissa ma‘nolarini ifolaydi. Rivoyatlar afsonalardan hayotga yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalarda ro‘y berishi mumkin bo‘lmagan hodisalar hikoya qilinsa, rivoyatlardagi voqealar, ko‘pincha, tarixiy shaxslar, taniqli allomalar, davlat arboblarning hayotlaridagi muayyan lavhalar yuzasidan xabar beradi. Ba‘zan bir voqeani eshitganimizda, uning aynan ro‘y berishiga to‘liq ishonamiz, ba‘zan

alohida fantastik tasvirdan xoli bo'lsa ham hikoyaga ishonmasligimiz mumkin. Shuning uchun afsona va rivoyat o'rtasida keskin farqni belgilash qiyin kechadi. Har holda ko'p yillik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, ishonilgan voqeani rivoyat, ishonish mumkin bo'lmaganini afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun, syujet tizimi jihatdan afsona va rivoyatlarning farqi bo'lmaydi. Faqat rivoyatlar tarixiy dalil, isbot ildiziga ega hisoblanadilar. Chunki rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, uning ishtirokchisi, guvohi tomonidan yozib qoldiriladi yoki og'izdan og'izga o'tmishda ro'y bergan hayratomuz lavha sifatida o'tib yashaydi, ajdoddan avlodga madaniy meros tarzida saqlanadi.

Rivoyatlar o'zida aks ettirgan voqea bayoniga ko'ra afsonalar kabi epik jinsga mansubdirlar. Ular hajm jihatdan qisqa bo'ladi. Matn hajmi qisqa, ifodalangan voqea lavhalari son jihatdan chegaralangan. Badiiy tasvirga ortiqcha urg'u berilmaydi, chunki ularda voqea bayoni ustuvor hisoblanadi. Mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqealar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rin-joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafsini yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Mard, jasurlarning ishlari ham, xoinlarning xiyonati ham unutilmaydi.

O'zbekiston – dunyoda o'zining ilmiy kashfiyotlari, fan rivojiga qo'shgan hissalarini, badiiy ijodda yaratgan asarlari bilan mashhur farzandlar yurti. Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Behzod, Boburdek ulug' insonlar nomini sharaflovchi o'nlab rivoyatlar xalq qalbida saqlanib kelmoqda.

Yurtimiz tarixida ro'y bergan eng qadimgi ibratli voqea haqidagi rivoyat eradan avval mustaqillik uchun jon fido qilgan To'maris va Shiroq nomi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aytish joizki, bu ikki go'zal insonlarning mardligi aks etgan jasorat tarixini bir olimlar afsona, ikkinchilari rivoyat deb ataganlar. Filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarov o'zining "To'maris ko'zlarida

chaqnagan umid” maqolasida bu ikkilanishga ilmiy asosda chek qo‘ydi. Maqolada voqea bayonining rivoyat janriga mansub ekani isbotlab berildi. G‘ururlansa arziydigan jihati shundaki, qadimgi O‘zbek yurtidagi To‘marisning Eron shohi Kirga, Shiroqning Doroga qarshi qahramonligi qadimgi yunon tarixchisi Herodot (eradan avvalgi 484-431/426 yillar orasida yashagan) ning “Tarix”, yunon tarixchisi Polien (eradan avvalgi II asr) ning “Harbiy hiylalar” kitobida saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Agar bu ikki tarixchi olim asarlari butun dunyoga mashhur ekanligini, eron shohlariga qarshi chiqqan vatanparvar shaxslar bizning ajdodimiz ekanini nazarda tutsak, O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan elning dovrug‘i eradan avval ham shuhrat qozongani ma’lum bo‘ladi.

To‘maris Kirni 529 (e.a) yilda mag‘lub etadi va o‘ldiradi. Shiroqning yakka o‘zi 513 (e.a) yilda Doroga qarshi ustidan g‘alaba qozonadi. Agar To‘maris harbiy san’ati bilan yurtini asragan bo‘lsa, Shiroq burun, quloqlarini kesib, go‘yo Doroga tarafida bo‘lgani uchun o‘zini jazolangandek qilib ko‘rsatadi, shoh ishonchini qozonadi va eron qo‘shinlarini sahroda adashtirib maqsadiga yetadi: yurtini qonxo‘r va razil dushmandan xalos etadi. Herodot va Polien bergan ma’lumotlar tarixiy asosga ega bo‘lgani uchun bugun ularni rivoyat tarzida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalq yodida qolgan va keyinchalik rivoyatlarga aylangan ibratli voqealar, ko‘pincha, buyuk insonlar hayoti bilan bog‘lanadi. Mana ulardan bir misol: “Ibn Sino har kuni betob, xasta odamlarni qabul qilar ekan. Ammo navbat bir yigitga yetib kelganida, uni chetlab o‘tar ekan. Kunlardan bir kun yigitning onasi u yotgan to‘shak yoniga bir kosa qatiq qo‘yib, o‘z yumushlari bilan band bo‘libdi. Yigit kosadagi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi. Jonidan to‘ygan yigit alam ustida kosadagi zaharlangan qatiqni jon-jahdi bilan ichib yuboribdi. Ammo bir oz o‘tmay o‘zini tuzuk seza boshlabdi. Soat o‘tgani sayin u sog‘ayibdi. Ertasiga ancha o‘ziga kelib, yana Ibn Sino qabuliga boribdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o‘tibdi. Ajablangan yigit unga e’tiroz bildiribdi. Shunda alloma:

- Siz kecha va avvallari kelganingizda, dardingizga davvo yo‘q edi. Shuning uchun sizni ko‘rmagandim. Chunki men sizga qatiqni to‘shak yoniga qo‘yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edim-da. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yetkazdi. Endi sizga tabibning keragi yo‘q. Siz mutlaqo sog‘siz. Shuning uchun sizni chetlab o‘tdim, - debdi”.

Rivoyat dunyoga mashhur alloma Ibn Sinoning o‘z ilmini qanchalar mukammal egallaganini, ayni paytda, unda har bir mijozdagi o‘zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatish qobiliyati ham rivojlanganini bizga, keyingi avlodlarga ma’lum qilish maqsadida yaratilgan. Shu yo‘l bilan bizning ongimiz, dunyoqarashimiz, kasbimizga bo‘lgan munosabatni ham shakllantirishga xizmat qilishini inkor etolmaymiz. Tarixiy shaxslar bosh qahramon bo‘lgan rivoyatlarda ularning ilmi, zakiyligi, nozik tabiati, ulug‘vorligi, kechirimliligi, har bir ishni sidqidildan bajarishi, eng muhimi, shaxsiy manfaatni ko‘zlashdan uzoqligi va tamasizligi kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Agar e’tibor qilsak, ularning har biri bizga insonning go‘zal siymosi, namunasi sifatida targ‘ib etiladi.

Rivoyatlarning yana bir turi mahalliy hududlardagi o‘rin-joylarning nomiga oidligi bilan ajralib turadi. Muhimi shundaki, bunday rivoyatlarda asosiy e’tibor tasvirlanayotgan voqeadagi fantastik jihatlarga emas, balki hayotni kuzatish, to‘g‘ri xulosalarga kelish, aqlni ishga solish fazilatlariga qaratiladi. Masalan: “Buxoro va Navoiy oralig‘ida katta Malik cho‘li yastanib yotibdi. Uning bir qismini O‘rta cho‘l, tog‘ yon bag‘rini esa Qarnob cho‘li ham deb yuritadilar. Malikcho‘l yelkasidan esa Zarafshon oqadi. Malikning qoq o‘rtasi – avtomobil yo‘li yoqasida Malik darvozasi va yopiq hovuz xarobalari saqlangan. “Malik” rivoyatini bizga Qizil tepaning Kenagas qishlog‘ida yashovchi mashhur Saidmurod Panoh baxshining o‘g‘li sakson yoshli usta Berdi ota aytib bergan edi:

- Bir kuni Buxoro amiri faytunda Nurota, Karmana, Ziyodin, Sultonobodni aylanib kelib charchaydi-yu, cho‘lda soyabon o‘rnattirib, dam oladi. Amirning shotirlaridan biri Malik degich yigit ekan. Amir uxlab qoladi. Shu paytda Amirning burnidan bir chivin chiqib, so‘ng suv to‘la kosa ustida turgan pichoq ustidan yurib o‘tib, sichqon iniga kirib ketadi. Bir ozdan so‘ng chivin sichqon inidan chiqib

keladi-da, yana o'sha suv to'la kosa ustidagi pichoqdan yurib o'tib, podshoning burniga kirib ketadi. Malik botir bu hangomani ko'rib hayratda qoladi-yu, nima qilarini bilmaydi. Amir bo'lsa qattiq uxlagan, boshqa amaldoru xizmatkorlar ham chekkada dam olayotgan ekan. Malik o'sha chivinni o'ldiraman desa, amir uyg'onib qolib unga qo'l ko'targanini ko'rsa, tayinki, boshi ketadi.

Nihoyat, amir uyg'onibdi. Malik uning qo'lga suv quyibdi, amaldorlar davra quribdilar. Amir g'aroyib tushini aytibdi:

- Tushimda bir uzoq cho'lga chiqib ketganmishman. Ancha yurib daryoga yetibman. Daryo ustida temir ko'prik bor ekan. Ko'prikdan narigi sohilga o'tib, bir g'orga kirib ketibman. G'or ichida ikki xum tilla yotganmish. G'ordan chiqib, ko'prikdan o'tib, cho'ldan kechib yana taxtinga kelib o'tiribman. Tushimning ta'birini aytinglar-chi, ne kori hol bo'lar ekan?

Amirning hamrohlari birisi u, birisi bu deyishibdi. Malik dono yigit ekan, u sirni bilibdi-yu, o'zini kasalga solib yotib olibdi. "O'zimga kelib olsam, sizlarga yetib olaman", - debdi. Amir kishilari bilan jo'nab ketibdi. Malik darrov ketmon olib, o'sha chivin kirib chiqqan sichqon inini kavlashga tushibdi.

Haqiqatan u yerda ikki xum tilla bor ekan. Malik tilladan bir xaltasini olib, ahli nomdor, dongdor ustalarni boshlab kelib, shu yerga qishloq qurdiribdi, hovuzlar bunyod etibdi. Ana o'shandan buyon cho'lni "Cho'li Malik" deb atashibdilar²⁵.

Rivoyatlar haqida aytilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:
1.Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarga asoslanadi.

2.Ular mavzu jihatdan turlarga bo'lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi, yo geografik o'rin-joyning nomini izohlaydi.

3.Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko'ra ro'y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va ravon tarzda bayon qilishga ko'proq e'tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

Ertak janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalganidek, o‘zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Ularning juda qadim zamonlardan yaratilganini «ertak» atamasining Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074 yilda yozilgan «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida «etuk» tarzda qo‘llanganidan bilsa bo‘ladi: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan»³¹. Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og‘zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Shuningdek, miflar, afsona, rivoyatlar haqida fikr yuritganimizda, diffuzion jarayonning keyingi bosqichi ertak ekanligini eslatib o‘tganmiz. Demak, agar xalqimiz og‘zaki ijodini qadimgi qadriyatlar sifatida e‘zozlasak, bu xazinaning noyob durdonasi sifatida hech ikkilanmay ertaklarni qayd etish mumkin ekan.

Ertak terminini O‘zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsada, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho‘pchak», farg‘onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so‘zlashuvda ba‘zan afsona, o‘tirik, tural atamalari ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g‘azallaridan birida «cho‘pchak» so‘zini qo‘llaganlar:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo‘lg‘ay,

Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho‘pchak³².

(Baytdagi «cho‘pchak» «Navodiru-sh-shabob»ning 1959 yilgi nashrida «cho‘rchak» shaklida yozilgan. Shuning uchun Alisher Navoiy zamonida «cho‘rchak» yoki «cho‘pchak» atamasi bor edi deb xulosa qilish mumkin bo‘ladi). Ayni paytda baytdagi «uyqu» so‘ziga e‘tibor bering. Ma‘lum bo‘ladiki, oqshom

payti bolalarni uxlatishda ertakning sehrli ta'sir kuchidan bugungi kunda foydalanar ekanmiz, bu an'ana ham bejiz paydo bo'lmaganini qayd etamiz. Darvoqe, H.Olimjonning 1937 yilda yozgan «Oygul bilan Baxtiyor» ertagini eslashimiz ham o'rinli:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar,
O'zi uchar gilamlar,
Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh³³.

Shoir doston boshlanishida (dostonning bosh mazmuni ham «Ozoda chehra» ertagiga asoslanishini ta'kidlash mumkin) xalq ertaklari jozibasini shoirona kashfiyotlar bilan yoritib bergan. Bu misralarda «Tohir va Zuhra», «Yoriltosh» ertaklarining nomi tilga olinishidan tashqari «o'zi uchar gilamlar», «oyni uyaltirgan qosh»lar, «beqanot uchgan otlar», «so'ylaguvchi devorlar», «bola bo'p qolgan chollar» sanab o'tiladi. Haqiqatan ham, «Oygul bilan Baxtiyor» adabiy ertagini yozishda shoirga xalq ertaklarining sirli olami ilhom bag'ishlagan va Hamid Olimjon o'z o'quvchisiga bu ilhom izohini go'zal so'zlar bilan yetkazishga harakat qilgan. Yuqorida keltirgan fikrlarimiz xalq ertaklarining haqiqiy so'z san'ati sifatida qadimdan yashab kelayotganini, xalq hayotida ularda tasvirlangan olam muayyan ahamiyat kasb etganini dalillaydi.

Xalq ertaklarimizning badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

1. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.

2. «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan» boshlamasi va «murod-maqсадiga yetibdi» yakunlanmasi ertaklarning an’anaviy belgisi hisoblanadi.

3. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldir.

4. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I – initsial – boshlanma; M – medial – asosiy qism; F – final – yakunlanmadan iborat bo‘ladi.

Ertaklarning miflardan ijod usulini o‘zlashtirganligi haqida fikr yuritgan edik. Bu an’ana o‘zbek xalq ertaklarining umumiy mazmunida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ehtimol, bu janr asarlarining yashovchanligini ta’minlagan asosiy xususiyat ham shundan iboratdir. Xalq o‘z ertaklarida chegarasiz ravishda xayolot olamini kezib chiqadi. YA’ni ularda xalq fantaziyasi mahsuli bo‘lgan chegara bilmas uydirmalar, transfiguratsiya (bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tish) holatlari tinglovchini o‘ziga jalb etadi. Vaholanki, ertak boshlanmalaridagi “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir och ekan, bir to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan...” (olimlar boshlanmadagi tarkibiy “ekan” qismlarning 20 ga yaqin bo‘lishini belgilashgan) ibora va jumlar mutaxassislar fikricha, ertakda bayon qilingan voqealarning aslida umuman bo‘lmagani va ro‘y berishi mumkin emasligini anglatar ekan. Haqiqatan ham, dostonlarda biz bu mazmundagi boshlanma – zachinlarni uchratmaymiz. Shu bois odatga ko‘ra dostonlardagi voqealar hayotda bo‘lgan deb qabul qilinadi. Ertakda esa tamom boshqa holat hukm suradi. Chunki bu janr boshlanmasidagi “bor-yo‘q”, “och-to‘q” so‘zlarining o‘zi hikoya qilinayotgan voqeaga nisbatan shubha uyg‘otadi. Ammo masalaning qiziq tomoni shundaki, voqea boshlanmasdan atayin shubha uyg‘otishga bo‘lgan harakat tinglovchiga deyarli ta’sir qilmaydi. Biz ertaklardagi uydirmalarga to‘la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho‘pon muvaffaqiyat qozonsa, bu g‘alaba o‘zimiznikidek quvonaveramiz.

Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yer yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin

bo'lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko'p uchraydi. Fransuz, ingliz, xitoy, yapon ertaklari aksariyat hollarda o'zbeklar ijodidagi bu janrdagi asarlar mazmunini takrorlaydi. Faqat fransuzlarda pishloq, uzum; xitoylarda guruch; o'zbeklarda tuxum yoki qatiq kabi narsalar farqi seziladi. Agar boshqa xaqlardagi ertaklar matnida shu yoki boshqa narsalar nomini milliy predmetlar bilan alishtirsak, ko'pincha, boshqa xalqlar namunalari ham o'zbekniki bo'ladi-qoladi. Bu holat sababini avval qayd qilganimizdek, bir xalqdan ikkinchi xalqning o'zlashtirishi deb emas, umumiy hayot tarzining yaqinligi bilan asoslash ma'qulroqdir. Masalan, yoqut xalqidagi "Bekinmachoq", ruslardagi "O'n ikki oy" ("Morozbobo") va o'zbekdagi "Zumrad va Qimmat" ertaklarida voqea tugunidan tortib yechimigacha bir xil yo'nalishda kechadi. Ammo bu asarlarning har biri bevosita o'sha xalq ijodi namunasi deb tan olinadi.

O'zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Mansur Afzalov o'zbek xalq ertaklari yuzasidan ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o'rganilishi tarixiga alohida to'xtagan. Shuningdek, «Farhod va Shirin», «Shirin qiz», «Samarqand», «Shahzoda Nazar Muhammad va Malika Nazarbibi», «Annamurod bova haqida», «Erni er qilgan xotin», «Donishmand Cho'pon» kabi afsona va ertaklar matnlarining yozib olinishi, dastlabki tadqiq qilish jarayoni haqida ma'lumotlar qayd etilgan³⁴. O'zbek ertaklari o'z vaqtida Miyon Buzruk Solihov, Hodi Zarifov, Xolid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G'oziboyev, G'.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi.

Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miqlarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Qalloblik, vijdotsizlik, xiyonat, yolg'onchilik, ma'naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlari hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarni ulug'lash bilan yechimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehrli narsa-buyumlar,

judular, g'ayritabiiy hodisalar esa tom ma'noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi.

Xalq ertaklarining mazmun va hayotdagi voqealarni tasvirlash yo'nalishiga ko'ra uch turi mavjudligi M.Afzalov, K.Imomov tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Bu tasnifga ko'ra ertaklar sehrli va hayotiy turlarga bo'linadi. Ammo ayrim adabiyotlarda hayvonlar haqidagi, sehrli, maishiy turlarga bo'linadi. Mansur Afzalov tasnifida yana hayvonlar, sehrli-fantastik, hayotiy-satirik turlar ham ko'rsatilgan. Umumiy tahlilning oson va tushunarli bo'lishi uchun biz ana shu tasnifga binoan ish ko'rishni ma'qul topdik. Ertaklarni tasnif qilish qanchalar murakkab ekanligini ularni tahlil qilish jarayonida o'zingiz anglab yetasiz.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklarni ayrim mutaxassislar sehrli-fantastik ertaklar turkumiga mansub hisoblaydilar. Xususan, K.Imomov, G'.Jalolov o'zlarining tadqiqotlarida hayvonlar ishtirok etadigan ertaklarni sehrli ertaklar qatorida tahlil qiladilar³⁵. Bu asarlarda hayvonlar ishtiroki, ularning asar qahramonlari bilan suhbatda bo'lishlari olimlarning sehrli ertaklar deb atashlariga asos beradi. Biz bu atamani shartli ravishda qabul qilamiz, chunki sehrli ertaklarning hayvonlar ishtirok etmagan mazmundagilari ham yetarli bo'lib, ularni alohida tahlil qilish mumkin. M.Afzalov hayvonlar haqidagi ertaklarning o'zida turli farqlanuvchi asarlar borligini qayd etadi. Ularning birinchi turiga mifologik mazmun ifodalanganlarini qo'shadi. Ma'lumki, qadim zamonlar totemizm va fetishizm tushunchasi nuqtai nazaridan ajdodlarimiz har bir narsa-predmetni, shu jumladan, hayvonlarni o'zlariga homiy deb bilganlar. Ular tasavvurida odamlar totem va fetish yordamida muayyan yutuqlarga erishishlari mumkin hisoblangan. Bu haqda miflar haqida to'xtaganimizda ham ma'lumot berganmiz. O'zbek ajdodlari bo'ri, ilon, ot va boshqa bir qator hayvonlarni o'zlariga homiylik qilishini ruhan his etganlar. Ertaklarning dastlabki namunalarida aynan ana shu dunyoqarash asosida asarlar yaratganlar. «Bo'ri», «Cho'loq bo'ri», «Ilon og'a», «Ayiq polvon» kabi ertaklar shular jumlasidandir.

«Quyosh yerining pahlavoni» ertagida ona ayiq Rustamni parvarish qiladi, uning hayotida homiy sifatida o'rin egallaydi. Rustam va otasi – yamoqchi cholga

qo‘lidan kelgancha yaxshiliklar qilib dushmandan asraydi. Mansur Afzalov «Ilon og‘a» ertagini alohida ajratib ko‘rsatadi: “Ilon – kuyov niqobini olsa, insonga aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa, u kaptar bo‘lib uchib ketadi. Ilon og‘aning onasi va xolasi yalmog‘iz kampir bo‘ladi. Ular Ilon og‘a bilan qizga ko‘p to‘sqinlik qiladilar. Lekin Ilon og‘a va qiz o‘z tadbirlari orqali yalmog‘iz kampirni yengib, murod-maqсадlariga yetadilar”/Xususan, «Cho‘loq bo‘ri» ertagida podshohning kenja o‘g‘li afsonaviy tilla qushni olib kelish uchun safarga chiqqanida cho‘loq bo‘riga duch keladi. Unga non beradi. Bo‘ri undan yordamini ayamaydi. Qush uchun safarga chiqqan bola bir qiz va ot bilan uyiga qaytadi. Yo‘lda akalarining holidan xabar oladi. Ammo akalari uning ko‘zlarini o‘yib, chohga tashlaydilar. Ertak oxirida kenja o‘g‘il baribir murod-maqсадiga yetishadi, akalari jazolanadilar. Bu turdagi ertaklarning mohiyati totem hisoblangan hayvon va qushlarning asar qahramoniga o‘zlarining sehrli fazilatlarini vositasida yordam berish bilan izohlanadi. Shu mazmundagi yana bir ertak «Kenja botir» deb ataladi. Unda homiy sifatida ot qatnashadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yana bir turida majoziy fikr yuritish usuli ustuvordir. Bunday ertaklar farzandlarga pand-nasihati, tarbiya berish maqsadida yaratilgan. Har qanday vaziyatda birga bo‘lish, do‘stlikni qadrlash kerakligi ertakning bosh g‘oyalari hisoblanadi. Inson bir-biriga yaxshilik qilsa, albatta, o‘zining orzusiga yetishadi, degan falsafa asosida to‘qima voqealar, qiziq-qiziq obrazlar o‘ylab topiladi. «Susambil» ertagi ana shunday asarlar qatoridan o‘rin olgan. Ho‘kiz, eshak afsonaviy Susambil shahrida erkin, to‘kin hayot kechirmoqchi bo‘ladilar. Ularga xo‘roz, kalamush, arilar ergashadilar. Uzoq qiyinchilikdan so‘ng maqsadga yetadilar. Ammo bu yerda ularga bo‘rilar hujum qiladi. Shunda ho‘kiz ularni suzadi. Kalamushlar yer kovlab, bo‘rilarni go‘rga tiqmoqchidek qo‘rqitadilar. Arilar chaqadi. Xo‘roz qichqirib, eshak hangrab bo‘rilarni bezovta qiladi. Oxir-oqibat bo‘rilar ahil birodarlardan zo‘rg‘a qochib qutuladilar. O‘z galalariga borib vahima soladilar. Natijada, butun bo‘rilar Susambildan qochishga majbur bo‘ladilar. Hayvonlar esa to‘kin hayot kechiradilar³⁸. Bu ertakda baxtga erishish oson emas, ammo erishilgan baxtni

saqlab qolish undan ham qiyinroqdir, degan dono fikr hayvonlar misolida majoziy tarzda o'z ifodasini topgan. «Ovchi, Ko'kcha va Dono» ertagida ham kaptar, sichqon, qarg'a, toshbaqa, kiyikning do'stligi ularni bir necha marta o'limdan qutqaradi. Faqat samimiy, beg'araz do'stlik oqibatida kaptarlar to'rdan, kiyik tuzoqdan, toshbaqa ovchi solgan xaltadan qutuladi. Bu fikrlar zamirida ham faqat do'stlikni qadrlash g'oyasi o'z ifodasini topgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning keyingi turi ko'proq ma'rifiy maqsadni amalga oshirish uchun yaratilgan. Otalar farzandlariga o'z hayot tajribalaridan saboq berishlari kerak. Farzand o'z oilasida katta bo'layotgani sabab atrofida yashayotgan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaydilar. To'g'ri, ular qo'y, ot, echki, tovuq, eshakni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar, muayyan tasavvurga egalar. Ammo bo'ri, ayiq, ilon, tulki, burgutni ular bilmaydilar. Shuning uchun ertaklarda ularning hayot kechirish tarzi yuzasidan muayyan ma'lumotlarni berish lozim bo'ladi. Bu tasnifdagi hayvonlar haqidagi ertaklarda bo'rining vahshiyliги, odamga hujum qilishi mumkinligi, tulkining ayyorligi, laylak tumshug'ining uzunligi, kiyik dumining to'mtoqligi izohlangan asarlar vujudga kelgan. Darvoqe, ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, bunday ertaklarning asosiy qahramoni sifatida, ko'pincha, echki ishtirok etadi. Bir qator ertaklarda nima uchun qarg'a qora, kiyik dumi to'mtoq, musicha ko'kragi nima uchun chakichlanganga o'xshaydi kabi savollarga javob beriladi. Ular qatorida «Bo'ri bilan tulki», «Kiyik bilan kadi», «Xo'roz bilan tulki», «Laylak bilan tulki», «Buzoq, echki va qo'zi» kabi namunalar bor. Masalan, «Kiyik bilan kadi» ertagida «Kadi kiyikni qo'rqitadi. Kiyik kadidan o'ch olmoqchi bo'ladi va uni dumiga bog'lab cho'ktiradi. Kadi kiyikni suv tagiga tortadi. Kiyik qirg'oqqa intiladi. Oxiri kiyikning dumi uzilib to'mtoq bo'lib qoladi. Kiyik dumi kaltaligini masxara qilgan barcha kiyiklarning dumini bir-biriga bog'lab qo'yadi-da, «mergan kelyapti», - deb qochadi. Dumi bog'langan kiyiklar ham har tomonga qochadilar va dumlaridan ayriladilar. Shunday qilib, kiyiklarning dumi to'mtoq bo'lib qolgan ekan»³⁹.

Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e'tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Ba'zan bu

maqsad kulgili mazmunga ega holda bayon etiladi. Tulki bilan bo‘riga bag‘ishlangan ertaklarning birida go‘sh tishlab ketayotgan bo‘ridan tulki: «Bo‘rivoy, qayerdan kelayapsan?» - deb so‘raydi. Bo‘ri: «Popdan», - deb javob beradi va og‘zidagi go‘sh tushirib yuboradi. Ikkinchi marta xuddi shunday vaziyatda tulki yana so‘raydi. Shunda bo‘ri: «G‘ijduvondan», - deb javob beradi. Kulgili vaziyat ifodalangan bunday ertaklarda, bir tomondan, shunchaki hazil nazarda tutilgandek tuyiladi. Ammo ularning zaminida odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati aks etadi.

Xullas, hayvonlar haqidagi ertaklar mazkur janr shakllanishidagi dastlabki namunalarni tashkil etgan. Ularda qadimgi ajdodlarimizning mifik dunyoqarashi o‘z ifodasini topgan. Keyingi namunalarda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy, maishiy munosabatlar majoziy usulda o‘z ifodasini topgan. Ularda, asosan, ko‘proq tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutilgan. Va, nihoyat, bu turdagi ertaklarning nisbatan keyin yaratilgan namunalarida ma‘rifiy ma‘lumot berish maqsadi amalga oshirilgan.

Sehrli ertaklar. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o‘xshashlik haqida fikr borganida, ko‘proq sehrli ertaklar nazarda tutiladi. Inson qadim zamonlarda ham xayol surgan, o‘zicha turli-tuman g‘aroyib voqealarni o‘ylab topgan. Aslida, miflarning vujudga kelishida ham ajdodlarimizdagi aynan ana shu xususiyat yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik fantastik voqealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrli dasturxonlarga, oltin qaynaydigan xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko‘rish mumkin bo‘lgan jomlarga, oynalarga o‘tgan. Bunday voqealarni o‘ylab topish ajdodlarimiz orzulari, havaslari bilan asoslangan. Yo‘l azobidan aziyat chekkan inson uchar gilam, ot, manzilga ko‘z ochishda yetkazgan bo‘rini o‘ylab topgan. Oziq-ovqat topishga qiynalgan odam esa ochil dasturxonning ijodkoriga aylangan. Natijada, sehrli ertaklardagi voqea-hodisalar haqiqiy ma‘noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasiga aylangan.

Ilm-fan taraqqiyotida katta kashfiyotlar, odatda, olim xayolida paydo bo‘lgan reja – gipotezadan boshlanadi. Gipoteza asta-sekin rivojlanadi va hayotga tatbiq etilishining loyihasi shakllanadi. Olim ana shu loyihaning ilmiy zaminini

topganidan so'ng kashfiyotning amalga oshishi uchun sharoit yaratilgan bo'ladi. Sehrli ertaklar bir jihatdan inson ongida yaratiluvchi ana shu gipotezalar yo'nalishini boshqargan, deb xulosa qilish uchun yetarli asos bor. Gap shundaki, bugungi kunda oddiy hayot haqiqatiga aylangan velosipeddan tortib avtoullov, poyezd, samolyotlar; telefon, telegraf, radio, televideniye, elektr chiroqlarning kashf etilishini bevosita ertaklarda aks etgan orzular bilan dalillaymiz. Uyali telefonni aytmasizmi, to'quv dastgohlari, har xil kimyoviy, fizikaviy kashfiyotlar bosqichma-bosqich tahlil etilsa, ularning hammasini biz bir oz oldinroq sehrli ertaklar voqealarida uchratganimizga amin bo'lamiz.

Sehrli ertaklar bosh qahramonga nimadir (ko'pincha, farzand) yetishmasligi, qahramonning yetishmayotgan narsasiga ega bo'lishi, unga nimadir qilishning (gapirish, alohida bir eshikni ochish, biror narsaga qarash va h.k) taqiqlanishi, taqiqning buzilishi, kuchli raqibga duch kelish, xavfli safarga chiqish, safar yakuni, raqib bilan olishuv, murod-maqсадga yetish kabi lavhalardan iborat bo'ladi. Taniqli olim V.Y.Propp yuqoridagi tartibning jahon xalqlari ijodidagi sehrli ertaklar matni tarkibini tashkil qiluvchi asosiy unsurlar ekanini chuqur ilmiy asosda misollar bilan isbotlab berdi⁴⁰. Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan g'ayritabiiy mo'jizalar ro'y berishi, afsungarchilik, sehrli voqealar, bir narsaning ikkinchisiga aylanishi, bular hammasining muayyan tizim (V.Y.Propp tavsiyasi) tartibida hikoya qilinishi sehrli ertaklar xususiyatini hosil qiladi. Hamid Olimjon ifodalagan «O'zi uchar gilamlar», «O't bog'lagan qanotlar», «Beqanot uchgan otlar», «Qiz bo'lib ochilgan gul», «So'ylaguvchi devorlar», «Bola bo'p qolgan chollar» kabi tasvirlar aynan sehrli ertaklar matnlari bilan bog'liq ekani ma'lum bo'ladi.

Aksariyat hollarda sehrli ertak voqeasi farzandsizlik motividan boshlanadi. Ammo tez orada asar qahramoni farzandga ega bo'ladi. Bu hodisa olma, arpa yoki biror narsa yeyishdan, ba'zan o'z-o'zidan ro'yobga chiqadi. Tug'ilgan bola bilan dastlabki tanishishdanoq uning g'ayrioddiy fazilatleri borligi ayon bo'ladi. Bu fazilat, avvalo, uning o'ta tez sur'atlar bilan katta bo'lishida ko'rinadi. Farzand

voyaga yetgach esa o'zi yashayotgan muhitga ta'sir etadi va hayotda keskin o'zgarishlarga erishadi.

Sehrli ertak qahramonlari o'lib qayta tirilish xususiyatiga ega ekanliklari bilan ham bizni o'ziga jalb qiladi. To'g'ri, o'lgan odamga jon ato etilishi qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashi ifodasi sifatida baholanadi. Ammo ayni paytda o'lgan odam ruhining kun, oy, yillar davomida o'zi yashagan xonadondan ajramasligi, turli shakl-hoatlarda qarindoshlariga ko'rinib turishi sehrli ertaklarda oddiy tasvir vositalariga aylanganini ham qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Xalq ongida insonning biron yaxshiligi, albatta, taqdirlanishi lozim. Asar qahramoni semurg'ga, ayiqqa, laylakka ko'rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo'ladi. Uning yordamidan foydalangan hayvonlar keyinchalik sehrli imkoniyatlari bilan qahramon hamrohiga va biron olijanob maqsadni qo'lga kiritish vositasiga aylanadilar. Ayrim ertaklarda esa adolat aynan ana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Xususan, «Ur to'qmoq» ertagidagi chol davolagan laylak unga bir martagina lutf ko'rsatib qolmaydi. Balki o'z sehri ta'sirini oxirigacha amalga oshirib, uning qo'shnisi qilgan xiyonatni oxirigacha fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat tasodifiy emas, qonuniy ajrim ekani voqealar mohiyatiga singdirib yuboriladi.

Sehrli ertaklar jozibasi, ko'pincha, asardan o'rin olgan mo'jizaviy safarlar, hayratomuz to'kinlik aks etgan lavhalar, xayol bovar qilmaydigan jodu va afsonaviy uchrashuvlar tasvirida o'z ifodasini topadi. Ertaklarda hayot shu qadar mazmunli va bebaho ehsonki, unda bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalar tizimining o'zi yo'q, yechimi topilmas muammo uchramaydi, degan xalq falsafasi nafas oladi. «Mohistara» ertagida Odil ismli podshohning farzandi bo'lmaydi. Oxiri Diloru ismli kichik xotini o'g'il tug'adi va uning ismini Shavkat qo'yishadi. E'tibor bering: shoh ismi Odil, kichik xotini – Diloru, kutib-kutib ko'rgan farzandi – Shavkat. Ota o'z farzandini aqlli, ilmli, harbiy san'atning mohir egasi, xulqli-axloqli qilib tarbiyalaydi. Yana e'tibor bering: podshoh o'g'lini o'z davlatiga ishonib erka va ishyoqmas qilib o'stirmadi. Podshohlik davlati o'tkinchi ekanini ta'kidladi. Shavkat o'n yetti-o'n sakkiz yoshga yetganida ovga chiqadi. Ovda

to'rtala tuyog'i sadafdan, har bir oyog'ida to'rttadan oltin halqasi bor, shoxiga oltindan, kumushdan, marvariddan, brilyantdan naqshlar ishlangan kiyik uchrabdi. Shundan keyin odamni hayratga solgan ov boshlanadi. Kiyik xuddi Shavkatning yonidan qochib o'tib ketadi. Shavkat dunyoni unutib uni quvlaydi va jannatmakon boqqa boradi. Uni fayzli chol kutib oladi. Kiyik uning qizi Sayyora ekan. Ertak voqeasi aslida shu yerda yechimini topishi kerak edi. Ammo Shavkat cholning taqdiri bilan qiziqadi. Ota unga Mohistara ismli go'zal haqida xabar beradi. Chol yigitlik paytida Mohistaraga oshiq bo'lgan ekan. Mohistara ismli ma'shuqadan xabar topgan Shavkat uning ishqida ikkinchi safarga o'tlanadi. Yo'lda sirli yoy, gilam, jom va qalpoqlarga ega bo'ladi. Yoydan otilgan o'q, albatta, nishonga tegar edi. Gilam uchadi. Qalpoq uni kiygan odamni g'oyib qiladi. Jom istalgan tilakni bajaradi. Shavkat bu narsalar yordamida Mohistaraga ega bo'lish rejasini tuzadi. Xalq og'zaki ijodining xos xususiyatlari haqida to'xtaganimizda shartlilikni tilga olgan edik. Chol yoshligida Mohistara qanchalar go'zal bo'lsa, Shavkat uning yurtini topib borganida ham o'zgarmagan edi. Xullas, Shavkat o'z aqli, topqirligi, mardligi, zehni bilan Mohistaraga uylanadi. Murod-maqsadiga yetadi⁴¹. Ertakni o'qigan, aslida, tinglagan odam yaqin bir kun davomida (ertakning hajmi katta) o'zini sirli bir olamda yurgandek his qiladi. Qimmatbaho toshlar, serhosil mevali daraxtlar, to'kin dasturxon, parichehra go'zal qizlar, dabdabali saroylar, sirli yoy, gilam, qalpoq, jomlar uni o'rab turadi. Ertakni eshitar ekanmiz, Shavkat Shavkat emas, biz o'zimizni Shavkatdek his qilamiz. Sehrli ertak badiiyati, undagi so'zlar magiyasi bizni ruhan o'z og'ushiga oladi. Ertakni tinglagan odam xalqning cheksiz xayoliy voqealar o'ylab topishiga qoyil qoladi, ijrochisiga tahsinlar o'qiydi. Eng muhimi, bezaklangan kiyik, bexato otadigan o'q-yoy, odamni g'oyib qiladigan telpak, uchadigan gilam, niyatni bajaradigan jom, boshqa ertaklardagi daryoga aylangan sochiq, changalzor bo'lib qolgan taroq – hamma-hammasiga tinglovchi ham, kitobni o'qigan o'quvchi ham deyarli ishonadi. To'g'risini aytsak, ertak bilan muloqot qilayotgan paytda undagi voqealarga ishonmaslik uchun vaqt ham bo'lmaydi.

Shunday qilib, sehrli ertaklarni mazkur janr shakllanayotgan davr mahsuli deb baholasak, xato bo'lmaydi. Ulardagi hayratomuz go'zal tasvirlar asarni ijro qilish davomida ertakchining mahorat darajasiga ko'ra qo'shib borgan bo'lishi mumkin. Tajribali va iste'dodli aytuvchi o'zi eshitgan va endilikda aytmoqchi bo'lgan ertagiga ijodiy yangiliklar qo'shgani ehtimoldan xoli emas. Sehrli ertaklar inson fantaziyasi cheksiz ekanini isbotlaydi. Ular turmush tashvishlaridan mushkul holatga tushgan ota-bobolarimizning ovunish vositasi bo'lgan. Ertakni aytish yoki maza qilib eshitish ajdodlarimizga iroda, kelajakka ishonch bag'ishlagan. Ayni paytda xalq og'zaki ijodi namunalarning tom ma'noda so'z san'ati ekanini isbotlovchi dalil sifatida ham xizmat qilgan. Millatdagi katta avlodning keyingi farzandlar uchun pand-nasihat merosiga aylangan.

Hayotiy-maishiy ertaklar. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To'g'ri, bu turdagi ertaklarda sehrli-fantastik belgilarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo, oddiy odamlar qo'lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritadi. Bevosita real hayot, turmushda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar asos qilib olingani uchun ham bunday asarlar turkumiga maishiy ertaklar atamasi berilgan. Ularda haqiqiy hayotdagi inson – millat vakili (xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin), uning imkoniyati darajasidagi jismoniy kuchi, ilmi, aqliga voqealar zaminida tavsif beriladi. Aksariyat hollarda asar qahramonlarining ismlari ham qayd etilmaydi. Chol, kampir, bir odam, o'g'il, qiz, kambag'al kabi nomli insonlar mazkur ertaklarning qahramonlari bo'lib kelaveradi. Bu bilan dono xalq ertakda bevosita tinglovchi aholining har biri asar qahramoni ekanini ta'kidlagan bo'lishi mumkin. Ba'zan esa shaxs haqidagi ma'lumotlar o'ta aniq shaklda beriladi. Ertakchi bu usul bilan ham qahramon taqdiri to'qima emasligini uqtirgandek bo'ladi. Filologiya fanlari doktori Komil Imomov shunday deydi: «Hayotiy-maishiy ertaklarda qahramon obrazi folklorga xos individuallashtirilgan bo'lib, uning ismi, avlod-ajdodi, elat, urug'i hamda voqealar sodir bo'ladigan o'rin-joy nomlarigacha mukammal aniq beriladi. «O'tgan zamonda, Bog'dod

tomonda, Mo‘majon kampir degan ayol yashar ekan. U qizidan qolgan nabirasi G‘aflatjonni bola qilib boqar ekan»⁴². Ma‘lum bo‘ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta‘kidlashdan iborat bo‘ladi. Keyingi maqsad asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush lavhalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo‘lib yetishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir.

«Uch og‘a-ini botirlar» ertagida mo‘ysafid ota o‘z o‘g‘illarini qo‘rqmas, jasur qilib o‘stiradi. O‘z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: «To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz». Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Xalqimizda «Och qornim, tinch qulog‘im» degan maqol bor. Maqolda odam ba‘zan nochor turmush kechirishi mumkin, lekin bezovta kechgan soniyadan ko‘ra och qorin bilan yashash afzal ekani ko‘rsatilmoqda. Ota nasihatining birinchisi ana shu vaziyatni izohlaydi. YA‘ni tinchlikdan ulug‘ ne‘mat yo‘qligi qayd etilmoqda. Bu falsafaning aniqligini o‘zingiz hayotda sinagan bo‘lsangiz, ajab emas. Xalqimizda «Maqtanma g‘oz, hunaring oz» maqoli ham bor. Yo‘q va amalga oshmagan ishlar qancha maqtalgani bilan amalga oshib qolmaydi. Maqtangan odam yuzi shuvit bo‘ladi. Xalqimiz «Mehnat – mehnatning tagi rohat», deydi. YA‘ni: «Qimirlagan qir oshar» deganlaridek har bir kimsa hayotga ishonishi, harakat qilishni kanda qilmasligi lozim. Quduqdan suv topa olmagan sahrodagi yo‘lovchi umidsizlikka uchrab to‘xtab qolmasligi kerak. Ma‘lum bo‘ladiki, ertakni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzandga qiyinchiliksiz hayot kechirish kalitini tutqizishdan iborat ekan. Nasihatga amal qilish esa ertakda bayon etilgan voqealarda namoyon bo‘ladi. Og‘a-inilar ajdar, sher, qaroqchilar to‘sig‘idan o‘z tadbirkorliklari bilan oson o‘tadilar. Ammo kenja botir bog‘da uxlab yotgan podshohga zahar solmoqchi bo‘lgan ilonni qilich bilan chopib, qurolini qiniga solayotganida podshoh uyg‘onib qoladi va kuyovini qotillik qilmoqchi bo‘lishda ayblaydi. Ana shu voqeadada ham

haqiqat, adolat oxir pirovardi g'alaba qiladi. Ertak mohiyati unda ifodalangan lavhalar davomida yechilib boradi.

Hayotiy ertaklarda to'g'rilik va egrilik, mehnatsevarlik va dangasalik, poklik va nopoklik, mardlik va xiyonat doimiy ravishda qarama-qarshi qo'yiladi. Xalq ertak davomida kichik, e'tiborga arzimaydigan unsurlardan ustalik bilan foydalanadi, vaziyat yechimini ular orqali hal qiladi.

«Tuhmatga uchragan kishi» ertagida bir boy ko'chada jiyanining xotinini ko'rib, unga uylanmoqchi bo'ladi. Insofga kelgan amakidek jiyanini savdoga jo'natib yuboradi, ammo keliniga uylana olmaydi. Kelin karvonboshining qo'liga tushadi. Bu yerda ham tuhmatga uchraydi. Zo'rg'a qochib qutuladi. Yo'lda bir o'g'rini o'limdan qutqaradi. Lekin o'g'ri unga tuhmat qilib karvonga sotib yuboradi. Taqdir kelinni qutqaradi. Ammo bu safar kelin o'g'rilar to'ldasiga duch keladi. Yana ozodlikka chiqadi va oxir pirovardida bir shaharga podishoh bo'ladi. Ertak oxirida kelinga tuhmat qilgan odamlarning hammasi bir joyga to'planadilar va haqiqat ro'yobga chiqadi. Ertakning bosh g'oyasi ma'naviy poklikni ulug'lash. Xalq «Haqiqat bukiladi, ammo sinmaydi» maqolining izohini bu ertakda ifodalashga harakat qilgan. Har bir lavha muayyan maqsadni amalga oshiradi. Inson idroki chegarasiz quvvatga ega ekanligi isbotlanadi. Bir yoshgina kelinning boshidan o'tgan mudhish hodisalar, uning turli tuhmatlarga bardosh berishi tinglovchiga «Sening peshonangdagi mushkulot kelinniki oldida arzimaydi-ku» degan fikrni ta'kidlagandek bo'ladi. Ertak yakunida yana bir ibratli hikmat bor. Kelinning eri tuhmatchilarni jazolash haqida gapirganida, xotini:

- Yo'q, ular bilan teng bo'lish kerak emas, - deb javob beribdi»⁴³. Demak, xalq yomon va yovuz odam bilan muomalada bo'lishni, hatto, uni jazolashni ham unga teng bo'lish alomati deb baholaydi. Aynan shu bois o'zbek xalqi, millat mentaliteti haqida gap borganda, oliy himmatlilik, bag'rikenglik tilga olinadi. Binobarin, hayotiy ertaklar (ularni folklorshunoslikda «hayotiy-maishiy», «hayotiy-satirik», «maishiy» ertaklar deb ham yuritadilar) qahramonlari o'zbek millatining ramziy vakili ekan. Ular xalqqa iymon, vijdon, erk, idrok, iroda, qanoat, aql, hunar, ilm haqida tarbiyaviy tushunchalar beradi.

Xalq ertaklari badiiy soʻz sanʼatining goʻzal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, bir och ekan, bir toʻq ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqsadiga yetibdi» degan yakungacha tinglovchi diqqati voqealarga toʻliq ravishda jalb etadi. Undan keyin nima boʻladi, bu hodisa qanday tugaydi, degan savollar tinglovchi xayolini band etib turadi. Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham ularning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Mazmun jihatdan hayotning turli masalalari ertaklar tematik diapazonini taʼminlaydi. Ularning hajmi mazmunda ifodalangan voqealar tizimiga, muammolarning yechimiga bogʻliqdir. Shuning uchun ham oʻzbek xalqi ertaklari bir necha daqiqada aytib tugallanishi mumkin. Ayni choqda guvoh zamondoshlarimiz xotirasiga ishonsak, bir necha kechalar davomida aytiladigan namunalar ham bor. Folklorshunoslikda ertak janri bugungi kunda asta-sekin yoʻqolib bormoqda, degan mulohazalar yoʻq emas. Ammo 2006, 2009, 2010 yillarda Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatida oʻtkazilgan folklor ekspeditsiyalari bu fikrni bildirishga hali erta ekanini ham koʻrsatdi. Talabalarimiz bir qator ertaklarni ham yozib olishga muvaffaq boʻldilar. Bu ijobiy holatning bosh sababini ham ertaklar badiiyatidan axtarish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ertaklar syujeti puxta oʻylab tuzilgan rejaga boʻysunadi. Har bir voqea ikkinchisi bilan uzviy bogʻlanadi, keyingi lavhalar avvalgilaridagi tushunchalarni rivojlantirib boradi. Ertaklarda xalq milliy tiliga mansub soʻzlardan oʻrnida foydalanish seziladi. Aytuvchi oʻz hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar oʻn toʻrt kunlik oydan goʻzal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega boʻladilar. Ertaklarda juda boy va turli-turli oʻxshatish, sifatlash, mubolagʻalar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham ogʻzaki ijodimiz tarkibidagi bu asarlar haqiqiy maʼnoda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar – injulari darajasida eʼzozlanadi.

DOSTON JANRI VA UNING XUSUSIYATLARI

Xalq og‘zaki ijodidagi biron asarning yoki lug‘at boyligimizdagi so‘zning qadimiyligini aniqlash uchun uni yondosh xalqlar ijodida yoki o‘sha millat tilida mavjudligini o‘rganish yaxshi natija beradi. Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganini dalillaydi. Prof. To‘ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip - manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo‘rqut kitobi"ning uchinchi bo‘y (doston)i "Bamsi Bayrak" o‘zining syujet voqealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta’kidlaydi⁷⁹. Olimlarning ma’lumot berishiga qaraganda, XIX asr oxirida Y.F.Kal o‘zbek-qo‘ng‘irot urug‘i aynli aymog‘iga mansub baxshi Omonnazardan dutor jo‘rligida doston tinglagani va bu doston “Alpomish” dostoni bo‘lishi kerakligi haqida ma’lumotlar ham bor. Shunday qilib, “Alpomish” dostoni o‘zbek qahramonlik eposining eng qadimgi va mukammal namunasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. O‘zbek folklorshunosligida uning o‘nlab variantlari to‘liq va parcha holida yozib olingan. Qadimgi an‘analar asosida doston kuylagan Jasoq baxshi, Yo‘ldosh baxshi, Jumanbulbul, Ernazar baxshilar o‘z tajribalarini Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan, Abdulla shoir, Nurman Abduvoy o‘g‘liga meros qilib qoldirganlar. “Alpomish” bu bebaho merosning noyob va betakror mo‘jizasi bo‘lib shuhrat topdi. 1928 yilda Mahmud Zarifov ustoz Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan ikki oy davomida “Alpomish”ning to‘liq matnini yozib oldi. Bugungi kunda dostonning Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Xushboq Mardonaqul o‘g‘li, Berdi baxshi (Berdiyoy Pirimqul o‘g‘li), Saidmurod Panoh o‘g‘li, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li variantlari nashr etilgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li aytgan doston esa bir necha marta ustoz H.Zarifov va T.Mirzayev nashrga tayyorlagan shaklda e’lon qilindi.

Aytish mumkinki, agar baxshilar mahoratini belgilashda “Alpomish” dostonini ijro eta olishi yozilmagan qoidalardan muhimi hisoblansa, folklorshunoslikda bu doston haqida maqola yozish yoki kitob e’lon qilish har qanday o’zbek olimi havas qilgan voqea belgisidir. Shuning uchun o’zbek xalq og’zaki ijodini o’rgangan, ilm rivojiga munosib hissa qo’shgan olimlar H.Zarifov, G’ozi Olim Yunusov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, M.Saidov, B.Sarimsoqov bugungi kunda esa T.Mirzayev, M.Jo’rayev, SH.Turdimov, J.Eshonqul kabi mutaxassislar mazkur doston tahliliga bag’ishlangan maqolalari, tadqiqotlari, asarni nashrga tayyorlashdagi ishtiroklari bilan folklorshunoslik ilmimizni boyitdilar. Ayni paytda H.Olimjon, M.Shayxzodaning doston yuzasidan bildirgan mulohazalari hali o’z qimmatini yo’qotmagan.

“Alpomish” dostoni haqida mazkur qo’llanmadagi fikrlar Fozil Yo’ldosh o’g’li variantiga asoslanishini qayd etish ham maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, “Alpomish” dostoni deyarli hamma epos bilan shug’ullanuvchi olimlarning e’tiborini o’ziga jalb qilgan ekan, asar o’ta murakkab bo’lgani sababli bildirilgan mulohazalarda ham turli yondashishlar, munozarali tahlillarning mavjudligi ham tabiiydir. 1952 yil “Zvezda Vostoka” jurnalining 2-sonida A.Abdunabiyev va A.Stepanovning “Xalqchillik bayrog’i ostida” maqolalari e’lon qilingan. Bu maqola avvalroq “Pravda Vostoka”, “Literaturnaya gazeta” sahifalarida ham chop etilgan edi. Mazkur maqolada mualliflar sobiq sho’ro tuzumidagi siyosiy muhit hukmiga asoslanib, avval xo’jako’rsinga folklorshunos olimlarning yaqin qirq yillik xizmatini shunchaki maqtaydilar va birdan ularni mafkuraviy ongsizlikda ayblashga o’tadilar. Ular folklorshunos ustozlarimizning eng katta xatosi sifatida “Alpomish”ga bo’lgan munosabatni olishadi. “Xalqqa qarshi asarlardan biri “qahramonlik eposi” namunasi deb atalmish “Alpomish”dir”, - deyiladi maqolada. Shundan keyin M.Afzalov, M.Shayxzoda, V.Jirmunskiy, H.Zarifov, H.Olimjon kabi haqiqiy olimlar asossiz tanqid qilinadi. Bu tanqiddan “Alpomish” muzikali dramasini yozgan Sobir Abdulla ham bebahra qolmaydi. “Tanqidchilar” dostondagi Hakimbek va Qorajon, Boybo’ri va Boysari munosabatlarini, Kayqubodning Qalmoq yurtiga podshoh bo’lishi voqealarini, xalq

ogʻzaki ijodidagi oʻziga xos xususiyatlarni, tasvir uslublarini, hayotni koʻrsatishdagi yoʻnalishlarni mutlaqo tushunmagan, aslida, tushunishni istamagan holda xulosalar chiqaradilar. Masalan, epos qahramonining anʻanaviy hisoblangan “Dunyoni kezay, dushmani jazolay” – gapi “Qalmoq yurtini bosib olay”, - deb tushuniladi. Vaholanki, dostonlarda dunyoni kezish va raqibni magʻlub etish tushunchasi asar qahramonining biron yurtni bosib olish niyatida ekaniga mutlaqo mos kelmaydi. Qorajonning Alpomishga koʻrsatgan yordami mualliflar tomonidan “qulning egasi xizmatini bajarish” deb baholanadi. Alohida taʼkidlash lozimki, maqolani yozgan “olimlar” “Alpomish”ni xalq dushmani deb eʼlon qilish bilan uzoq muddatli rejalarini amalga oshirishni boshlagan edilar. Keyingi navbatda “Avazxon”, “Zulfizar”, “Ravshan”, “Rustami doston”dek asarlar turganini ham ochiq aytib oʻtishadi. A.Abdunabiyev va A.Stepanovlarning xalq ogʻzaki ijodining tabiatini tushunmagan holda maqola yozishga kirishganlarini Toʻra Mirzayev shunday bayon etadi: “Shuni ochiq-oydin aytish kerakki, A.Abdunabiyev va A.Stepanovlar “Alpomish” dostoni haqida maxsus tadqiqotlar olib bormaganlar, xalq orasidan biror band qoʻshiq yoki bitta maqolni ham yozib olmaganlar. Xabardor kishilarning maʼlumotlariga qaraganda, ular dostonning arxivdagi biror varianti qoʻlyozmasini oʻqib ham chiqmaganlar, faqat Fozil shoir variantining ruscha tarjimasini asosida qoralab yozganlar, xolos”⁸¹. Adabiy hayotda kimdir maqola yozadi, kimdir kitob nashr qiladi. Adabiyotda ana shu maqola yoki kitobga javob qaytargan ikkinchi olim ham boʻladi. Natijada ilm rivojlanadi. Ammo “Xalqchilik bayrogʻi ostida” oddiy maqolalardan emas edi. Avvalo, oʻsha paytda Said Ahmad, Hamid Sulaymon, Shuhrat, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo kabi shoir, yozuvchi, olimlar taqdirida ozodlikdan mahrum boʻlishdek mudhish voqealar roʻy berayotgan edi. Siyosiy hujum ishtirokchilari endi “Alpomish”ni qoralash bilan gʻazab moʻljalini xalqqa qaratmoqchi edilar. Bu maqsadga erishdilar ham. Vaziyatning ketishidan choʻchigan ayrim olimlar daryo oqimiga qarshi bora olmadilar. “Alpomish”ni xalqqa qarshi bosqinchilik gʻoyasi aks etgan doston darajasiga yetkazishdi. Ana shunday paytda, akademik Aziz Qayumovning xotirasida aytilishicha, juda chuqur mulohaza yuritib muammoning yechimini

topish talab qilingan va bu yechimni Gʻafur Gʻulom topishga muyassar boʻlgan. Oybek va Gʻafur Gʻulom davlat odamlariga “Alpomish”ning faqat Fozil Yoʻldosh oʻgʻli variantiga asoslanib hukm chiqarish toʻgʻri emasligini bahona qilishib vaqtdan yutishga erishishgan⁸². Koʻp oʻtmay vaziyat oʻzgargan va “Alpomish” (qisqartirilgan shaklda boʻlsa ham) xalqqa qaytarilgan. 1956 yilning sentabr oyida oʻzbek olimlarining say-harakatlari bilan “Alpomish” dostoni haqida hududiy kengash oʻtkazilgan. Kengash natijasi oʻlaroq “Alpomish” eposi haqida” deb nomlangan maqolalar toʻplami nashr ettirildi. Toʻplamda H.T.Zarifov, V.M.Jirmunskiy, A.K.Borovkov, SH.M.Abdullayeva, H.S.Sulaymonov, M.Shayxzoda, M.Afzalov va boshqa olimlar bir ovozdan “Alpomish”ni himoya qilib chiqdilar va “Zvezda Vostoka” jurnali maqolasidagi qoralovning asossiz ekanini isbotladilar. Afsus, bu olimlar erishgan gʻalabani Fozil Yoʻldosh oʻgʻli koʻrishga muyassar boʻlmadi. Ammo, eng muhimi, goʻzal doston ustidagi qora bulutlar tarqaldi, “Alpomish” ozodlikka chiqdi.

“Alpomish” dostoni haqidagi keyingi munozarali fikrlar endi ilmiy ahamiyatga ega boʻldi. Dostondagi “zakot” voqeasi dostonning qahramonlik eposi sifatida oʻzbek xalqining xalq boʻlib shakllanishidagi ahamiyati, asardagi Alpomishning ikki safari, dostonning yaratilish yuzasidan bildirilgan mulohazalar, variantlar oʻrtasidagi oʻxshashlik va tafovutlar bilan bogʻliq munozarali qaydlar qahramonlik eposini oʻrganish jarayonidagi tabiiy holat deb baholanishi mumkin. Bu oʻrinda V.M.Jirmunskiy, M.Saidov, B.Sarimsoqov va boshqa olimlar chiqishlari haqiqatning qaror topishidagi harakat deb baholansa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgoʻy boʻlishga, oʻz yurtimizni, oilamiz qoʻrgʻonini qoʻriqlashga, doʻstu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga oʻrgatadi”,- degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, gʻoyasi, badiiyati, millatimiz tarixida tutgan oʻrni mujassam etilgan. 1999 yilda dostonning ming yillik toʻyi katta tantanalar bilan nishonlandi va oʻzbek xalqining ajdodlar yodini,

qadriyatlar qadrini o‘rniga qo‘yib esga ola boshlaganini isbotladi. Qabila, urug‘, elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor B.Sarimsoqov doston o‘zbekning birlashuvi, mustaqil xalq bo‘lib uyg‘unlashuvida qanday muhim vazifani bajarganligini ta’riflab, shunday deydi: “Dastlab qabila, so‘ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan “Alpomish” dostoni keyinchalik o‘zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi”. Haqiqatan ham, doston mazmunida Amu yoqasida yashagan aholi tarixiga oid juda ko‘p lavhalar aks etgan. Qahramonlarning o‘zaro munosabatlari: ota – o‘g‘il; ota – qiz; ona – o‘g‘il; ona – qiz; aka – uka; er – xotin; yurtni boshqaruvchi – el; oilaviy burch – farzand burchi – el oldidagi burch – vatan oldidagi burch va boshqa yo‘nalishlarda moddama-modda aniq tarzda ifodasini topgan. Natijada, doston shunchaki tinglovchining vaqtini o‘tkazish uchun yaratilgan ermak emas, xalq qahramonlik eposiga yuklatiladigan vazifani bajaruvchi asarligi ravshan bo‘lib qoladi. Avvalo, dostondagi mifik dunyoqarash elementlarini aniqlashga urinaylik. Hakimbek, Qaldirg‘och, Barchinoyning tug‘ilishidagi ilohiy homiylik belgilarini eslang. Yoy, o‘q, tush, qo‘riq kabilar jonsiz narsa-predmetlarning homiyliги belgilari, ot, tuya, g‘oz kabi hayvonlar totemizm tushunchalar ekani “Alpomish”ning juda qadimiy asar ekanini tasdiqlaydi. Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan yoy yordamida Alpomish nomini oldi. Tarixchi olimlarning ma’lumotiga ko‘ra, o‘ta qadim zamonlarda farzandlarga ism qo‘yish odati bo‘lmagan ekan. Yoki biron qahramonlik ko‘rsatguniga qadar uning ismi vaqtinchalik hisoblanar ekan. Haqiqiy ismini esa yigit hammani qoyil qoldirib qahramonlik ko‘rsatganida olgan. Hakimbek bor-yo‘g‘i yetti yoshida Asqar tog‘i cho‘qqilarini o‘z o‘qi bilan uchirib yubora olgani uchun “Alpomish” degan ismga ega bo‘ldi. Alpomish ismi ikki qismdan iborat bo‘lib, “Alp” – ulkan, “pomish” – bahodir, pahlavon ma’nosini bergan. Ikki qism qo‘shilganda ulkan pahlavon ma’nosida qo‘llangan. Doston qahramonlarining aksariyati ismi muayyan ma’noni ifodalagan. Alpinbiy – ulkan + qabila boshlig‘i; Dobonbiy – dovon + qabila boshlig‘i; Boybo‘ri – katta bo‘ri (ba’zi ma’lumotlarda oq bo‘ri); Boysari – katta tepa yoki oq tepa; Kuntug‘mish –

kun (quyosh) tuqqan; Hakimbek – dono, ilmi, aqli; Qaldirg‘och – inson va Tangri o‘rtasidagi aloqachi qush; Barchinoy – yovvoyi o‘rdak kabi ma’nolar bilan bog‘lanadi⁸⁵. “Alpomish” dostoni faqat ijro jihatidan emas, mazmun, g‘aroyib tasodifiy voqealar tasviri, qahramonlar sarguzashtlari, hayotiy muammolarning qo‘yilishi bilan ham murakkabdir. Masalan, ilm tarixida bir ayolning bir nechta aka-ukalar bilan bitta oila bo‘lib turmush qurishi – poliandriya haqida ma’lumotlar bor. Biz Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining bunday oila tizimi haqida ma’lumoti bor-yo‘qligini bilmaymiz. Lekin ustozdan o‘rganilgan matnga fidoyilik, ustoz fikrini ikki qilmaslik, ustoz gapini buzmaslik odati Fozil otani doston aytishda bir necha marta alp aka-ukalar nomidan Barchinga qarata: “...yo birimizga teg, yo barimizga teg”, - deyishga majbur qilgan. Insoniyat tarixidagi minglab yillar oldin o‘tgan poliandriya oila tushunchasi, qanday qilib, “Alpomish”da saqlanib qoldi? Yana qizig‘i shundaki, na Boysari, na Barchin alp aka-ukalarning gaplariga ortiqcha asabiy munosabatda bo‘lmaydilar, bu gapni oddiy maishiy hayot holati sifatida qabul qiladilar. Bunga o‘xshagan hozirgi ijtimoiy hayot nuqtai nazaridan tushunish va atroflicha sharh berish o‘ta qiyin voqea lavhalari dostonida juda ko‘p. Olimlar ularga imkon darajasida ilmiy izoh berishga harakat qilib kelmoqdalar. Dostonning tinglovchi e’tiborini o‘ziga jalb etuvchi nuqtasi baxshi tomonidan hikoya qilinadigan dastlabki voqealar bayonidan boshlanadi. Shoir qadimgi o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo‘ri, Boysari biylar (urug‘ boshliqlari) o‘tganini hikoya qiladi. Demak, aka-uka Boybo‘ri va Boysarigacha Boysun-Qo‘ng‘irot elatidagi hayot bir maromda favqulodda hodisalarsiz kechgan ekan. Ammo Boybo‘ri va Boysariga kelganda, ular farzand ko‘rmadilar. Mana shu holatning o‘zi bizga “endi nimadir bo‘ladi” degan xabarni berayotgandek tuyiladi. Bundan keyingi hayotda muayyan o‘zgarishlar bo‘lishiga farzand yo‘qligi bilan tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Chunki xalqimizda uzoq kutilgan yoki Yaratgandan tilab-tilab olingan farzand hamisha favqulodda ro‘y beradigan yangiliklardan xabar beruvchi omil sifatida baholanadi. Xalq bu farzandning dunyoga kelishi zarurligini asoslash uchun juda chiroyli badiiy vaziyatni o‘ylab topgan: chupron to‘yi mazkur holatning yechimiga aylanadi. Boybo‘ri va Boysarini to‘yda o‘ta haqorat bilan

kutib olishadi. Qashqadaryo, Surxondaryo va yana ko‘p viloyat, hududlarda to‘yga otda borgan mehmonning oti jilovini chavandozdan olib maxsus tayyorlangan joyga bog‘lash va ulov oldiga beda tashlash odati bor. Bu udum hozir ham saqlangan. Boybo‘ri va Boysariga esa hech kim e‘tibor qilmaydi. To‘yda etakdan joy tegadi. Oshning qoldig‘ini suzib berishadi. Bunday munosabatdan aka-uka ranjiydi. Ayni shu paytda bir chapanitob boybachchaning gapi haddan oshib ketadi. U odam: “Bu to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?” – deb ularning nafsoniyatiga tegadi. Aka-uka sakson tillani chupronga tashlab turadilar, lekin to‘yda yeyilgan oshning qarzi faqat to‘yda berilgan osh bilan uziladi. Buning uchun esa asosli sabab bo‘lishi – yo o‘g‘ilga sunnat to‘yi qilish, yo qiz uzatishda yurtga osh berib, to‘y xabarini qilish shart.

Doston matnini o‘qir ekanmiz, xalq og‘zaki ijodidagi epik asarlarga xos xususiyatlardan biri – farzandning yetishmovchiligi oxir pirovardida xursandchilik bilan yakunlanishiga guvoh bo‘lamiz. Asarni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzand dunyoga kelganidan keyin boshlanadi. “Alpomish”da ham Boybo‘ri o‘g‘il va qiz ko‘rdi, Boysari qizli bo‘ldi. Ana shu yangilikdan so‘ng qahramonlik eposi o‘z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazifani bajarishga kirishadi. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov bu vazifani qabila urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va mamlakatni boshqaruvchi davlat tizimining vujudga kelishi bilan bog‘laydilar. Bu g‘oya keyinchalik M.Saidov tomonidan rivojlantirildi. Olimning fikricha, mamlakatni boshqaruvchi davlatni vujudga keltirish g‘oyasi jamiyat yoshlari Hakimbek, Qaldirg‘och, Barchin tomonidan ilgari suriladi. Hakimbek “zakot” tushunchasini o‘ylab topdi. Uning otasiga aytgan zakoti ramziy ma‘noni ifodalaydi. Uni islom dinidagi zakot deb qabul qilish to‘g‘ri emas. Uzoq o‘tmishda soliq yig‘uvchini zakotchi deb atash odati bo‘lganligini hisobga olsak, Alpomishning taklifi soliq ekani ravshanlashadi. Boysari nutqida bu ma‘no yanada aniqlashadi. U akasining o‘g‘li borligini yuziga solganini, akasiga zakot berguncha o‘zga yurtda juzya berib yashagani ma‘qul ekanini ta‘kidlaydi. Vaholanki, islomda zakotdan hech kim voz kechgan emas. Aksincha, har bir odam Allohning zakot berishga yetkazgani uchun shukr qilgan.

Qolaversa, islomiy zakot iqtisodiy qiyinchilikdagi odamga beriladi. Dostonda esa Boybo‘ri zakotni o‘ziga berishni talab qilmoqda. Ustiga-ustak belgilangan zakot hajmi bitta uloqdan iborat. Ma’lum bo‘ladiki, Boysari bor-yo‘g‘i bittagina uloqni zakotchilarga topshirsa, o‘zining Boybo‘ri hukmida ekanini tan oladi. Boysari esa bu holat ro‘y berishini istamaydi. U o‘zini Boybo‘riga har tomonlama teng deb biladi. Yana bir vaziyatga e’tibor bering. Boysarining qalmoq yurtiga ko‘chishini Barchin ma’qullamaydi. Natijada, u Alpomishni qo‘llaydi. Xullas, Alpomish tug‘ilgunga qadar totuv yashayotgan el endilikda ikkiga bo‘linadi. Endi Alpomish zimmasida bo‘lingan aholini o‘z harakati bilan birlashtirish vazifasi turadi. Bu vazifani bajarish uchun Alpomish qalmoq yurtiga safar qilishi va musofirlikda yashayotgan yurtdoshlarini Boysun-Qo‘ng‘irotga qaytarishi kerak. Mazkur maqsadni amalga oshirish rejasi baxshi tomonidan juda asosli tuzilgan: Barchinga qalmoq alplari sovchi qo‘yishadi. Barchin xat yozib, Alpomishni Qalmoqqa chaqiradi. Ammo Boybo‘ri o‘g‘lining o‘zga yurtga safar qilishini istamaydi. U maktubni sandiqqa yashirdi. Ana shu sabab bilan doston voqealarining faol rivojlanishi Qaldirg‘och harakatiga bog‘lanadi. Uning tashabbusi bilan Alpomish qo‘riq vositasida Boychiborga ega bo‘ladi va otasining ixtiyoriga qarama-qarshi ravishda Barchinga uylanish uchun Qalmoqqa jo‘naydi. Qalmoqda esa uni katta sinov kutayotgan edi. Professor M.Saidov fikricha, bu sinovni, aslida, kelajakda davlat boshqarishni bo‘yniga oladigan Alpomish uchun Barchin o‘ylab topadi. Uning mulohazasiga ko‘ra davlat boshqaruvchisi zotdor otga, sifatli yoyga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga u odam jang san’atini, ayni paytda yoydan o‘q otishni bilishi, jismonan baquvvat bo‘lishi shart. Barchin butun vujudi bilan u qo‘ygan to‘rt shartni Alpomish bajarishini xohlasa-da, musobaqalarning hammasida o‘zini betaraf, odil qilib ko‘rsatadi. Ot poygasida qatnashayotgan Boychiborga yig‘lab murojaat qiladi va undan marraga birinchi bo‘lib kelishini so‘raydi. Kurashda Alpomish bilan Ko‘kamanning kuchi teng kelib turganda, sevgilisi oriyatiga tegib, g‘olib kela olmasa raqib bilan kuch sinashish navbatini o‘ziga berishni talab qiladi. “Alpomish” dostonidagi bu kabi lavhalar davlatni boshqarish oson ish emasligini qayta-qayta ta’kidlash uchun kiritilgandek tuyiladi.

Dostonning birinchi qismi asarni ijod qilgan ajdodlarimiz tomonidan qo'yilgan dastlabki dovonni egallash bilan belgilanadi. YA'ni Alpomish Boysun-Qo'ng'iroq aholisini bir davlat chegarasida boshqarishni niyat qildi va bu niyatiga Qalmoqqa ko'chib ketgan yurtdoshlarini qaytarish bilan erishdi. "Alpomish" ijodkorlari Boysaridagi o'jarlikni atayin bo'rttirib ko'rsatadilar va uning Qalmoqda qolishini asoslaydilar. Natijada, Alpomishning Qalmoqqa ikkinchi safari dalillanadi. Muhimi shundaki, Alpomishda Qalmoq podshosi Toychixonning mamlakatini to'g'ridan-to'g'ri bosib olish niyati yo'q edi. Toychixon Boysari chorvasini zo'rlik bilan tortib oldi va o'ziga podachi qilib zulm o'tkazdi. Boysari zulmga chiday olmay qiziga maktub yozishga majbur bo'ldi. Ikkinchidan, Alpomish ikkinchi safarida Surxayil qo'ygan tuzoqqa ilindi. Yetti yil zindon azobini boshidan kechirishga majbur bo'ldi. Endi Alpomish Toychixonni jazolashga haqli edi. Doston ijodkoriga qoyil qolish kerakki, bosh qahramonning yetti yil zindonda yotishi davomida tinglovchini zeriktirmasdan ko'plab qiziqtiruvchi lavhalarni o'ylab topgan. Doston bilan yaqindan tanishgan tinglovchi yoki matn o'quvchisining diqqati bir daqiqa ham bo'shmaydi. Avvalo, Alpomishning zindonga tushishi, keyinchalik g'oz ishtirokidagi lavhalar, Shakaman tog'idagi kampir va ovchi yigit voqeasi, Qorajonning do'stini ozod qilish maqsadida Qalmoqqa kelishi, Tavkaning doston mazmuniga aralashuvi, Surxayil va Toychi munosabatlari, bozor epizodlari, Kayqubodning Alpomishga yordami kabilar shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, biz, bir tomondan, Alpomish taqdiri guvohiga aylansak, ikkinchi tomondan, yirik epik tasvir yakunidagi qahramonlar harakatidan qoniqish hosil qilamiz. Qadimgi zamonlarda biron yurt haqiqiy ma'noda mustaqil hisoblanishi uchun uning tasarrufida qaysidir mamlakat bo'lishi shart hisoblangan ekan. Bu masala mutlaqo bosqinchilik bilan bog'lanmagan. Go'ro'g'li turkumi dostonlarida Chambilga hujum qilgan podshohlar keyinchalik Go'ro'g'liga qaram bo'lganiga ko'p marta ishonch hosil qilganmiz. "Alpomish"da ham o'xshash holat ro'y beradi. Hakimbek Surxayil kampirni, Toychixonni o'ldiradi, Kayqubodni Tavkaga uylantiradi, Qalmoq yurtida Kayqubod Alpomishni zindonga tashlash hiylasini o'ylab topadi, bu yerga o'z odamini podshoh qiladi. Ikkinchi safari ham

g'alaba bilan yakunlanadi. Natijada, qadimgi tushunchalar asosida Boysun-Qo'ng'iro't mustaqilligini ta'minlagan bo'ladi. Dono xalqimizning har bir tadbiriga ana shunday bir qarashda ko'zga ko'rinmaydigan yechimlar vositasida hayotiy muammolarni hal qilish mahoratiga qoyil qolish kerak. Muhimi, xalqning ana shunday zukkolik bilan tuzgan doston mazmunini tashkil qiluvchi rejasi Alpomish vositasida hayotga tatbiq etiladi. Alpomish butun o'zbek xalqining ramziy timsoliga aylanadi. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq variantlarida ham unga nisbatan o'zbek so'zining son-sanoqsiz tarzda qo'llanilishi fikrimiz dalilidir. Alpomishdagi tadbirkorlik, mardlik, o'z baxti, kelajak hayoti uchun kurashga chanqoqlik, vaqtinchalik muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik, imonini pokiza saqlash fazilatlari, aslida, o'zbekka xos asosiy belgilardir. U zindonda yotganida yaralangan g'ozni davolaydi. Shunda Bobir ko'lida g'ozni ko'rganini eslaydi. Zindonda, tutqunlikda yotishni jarohatlangan g'ozga qiyoslaydi. Zindondan qutulib, Kayqubodni Qalmoqqa podshoh qilib o'z vataniga qaytganida ham tadbirkorlik bilan ish ko'radi. U Qultoy, Qaldirg'och, Boybo'ri, onasi Kuntug'mish, Ultontoz, Bodombikachlarning hammasi bilan yakkama-yakka uchrashib chiqadi. O'zini Qultoy qilib ko'rsatish bahonasi bilan do'st-dushmani xolis ajratib oladi. Zero, davlatni boshqaruvchi inson atrofidagi mulozimlari maslahati bilan ish ko'rsa, qachondir adolatsizlikka yo'l qo'yishi mumkin bo'ladi. Alpomish esa kim bilan qanday muomala qilishni o'zi bevosita sinagan voqeasiga ko'ra belgilab chiqadi. Dostonda Alpomishning o'z oilasiga qaytishini tasvirlashda baxshi doston eshitayotgan tinglovchilarga turli yo'llar bilan hayotda ziyrak bo'lish kerak, degan o'gitni ham berib o'tadi. Xususan, Qultoy Alpomishning Alpomishligiga ishonmaydi. Shundan keyin Alpomish chap yelkasidagi Qultoy panjasining dog'ini ko'rsatadi. Shundan keyin Alpomish Qultoy qiyofasida yurtdoshlari bilan uchrashadi. Bu ko'rinishlar tasvirlangan doston sahifalari xuddi badiiy filmdagi ekran lavhalarini eslatadi va har safar "Qultoy"da Alpomish belgilari namoyon bo'ladi. To'yga ketayotgan xotinlarning tugunlarini mutlaq bo'shatadi. Bir qozon oshni pishmay turib quritadi va h.k. Xuddi shunga o'xshagan nozik belgi Yodgorning yoy ko'tarishida baxshining o'ta mahoratli tasviri bilan

ifodalanadi. Yodgor Arpa ko'lida yotgan o'n to'rt botmon yoyni to'yxonaga olib kelishi kerak edi. Baxshi bu o'rinda shunday deydi:

Jahontitrar Yodgorowozasiga,
Quloqsolingbuso'zning mazasiga.
O'nto'rt botmon parliyoyni sudrab
Kelib qoldi Qo'ng'iro't darbozasiga.

E'tibor bersak, baxshi bizga alohida so'zning mazasiga quloq solishni va o'n to'rt botmon yoyni sudrab kelganini ta'kidlamoqda. Xo'sh, nima uchun aynan yoyni sudrab kelganiga urg'u berilmoqda. Gap shundaki, bu ma'lumot bilan ham Alpomishning tirik ekani qayd etiladi. Agar yoy turkiy xalqlarda yurtga egalik belgisi hisoblansa, Alpomish tirik bo'lgani uchun ham Yodgor yoyni hali ko'tarish huquqiga ega emas. Yodgorning yoyni sudrab kelganiga urg'u berilishini shu holat bilan izohlash mumkin. Baxshining mahorati yana dostondagi voqealar zaminida muttasil ravishda Alpomish ta'siri aniq sezilib turishi bilan namoyon bo'ladi. Qizig'i shundaki, biron voqea tasvirlanar ekan, Alpomish unda ishtirok etadimi-yo'qmi uning nigohi mazkur voqeani kuzatib turgandek tuyiladi o'quvchiga. Dostondagi Barchinoy bilan bog'liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan bayon etiladi. U zukkoligi, tadbirkorligi, donoligi, mardligi jihatdan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampir o'g'illari Barchinoyni zo'rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo'lganlarida, qiz alplardan birini ko'tarib yerga shunday zarb bilan uradiki, alpning og'zidan ko'pik sachraydi. Shundan so'ng alplar Barchinga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo'ladilar. Barchinoy Alpomishni sevadi, ammo bu iliqlik undagi mas'uliyat tuyg'usini inkor etmaydi. Chunki Barchin Alpomishni faqat oila boshlig'i sifatida emas, Boysun-Qo'ng'iro't eli davlatining boshqaruvchisi, yangi tuzumdagi komil inson bo'lishini ham nazarda tutadi. Alpomish bilan oila qurganidan so'ng unda yangi fazilatlar paydo bo'ladi. Ayniqsa, Yodgor tug'ilganidan so'ng Barchin mehribon ona, umr yo'ldoshidan ajralgan ayolga aylanadi. Professor B.Sarimsoqov Barchinning Ultontozga majburan turmushga chiqishi munosabati bilan shunday deydi:

“...Barchindek alp qizning doston syujetining ikkinchi qismida Ultontozdek tagizoti betayin bir xizmatkorning zo‘ravonligiga ko‘nib, taqdirga tan berib o‘tirishi kishini ajablantiradi. Chunki o‘z baxti uchun to‘qson alpning zo‘ravonligiga dosh berib, ularga shartlarini o‘tkaza olgan bu ayol nega endi Ultontozga turmushga chiqishga ko‘ndi? Olim o‘z savoliga o‘zi javob berib, bu rozilikni eposdagi shartlilik bilan izohlaydi. Shubhasiz, biz bu mulohazaga qo‘shilamiz. Ammo, bizningcha, masalaning yana bir tomoniga ham e‘tibor berish maqsadga muvofiq. Xususan, alplar bilan munosabatda Barchin rasman turmushga chiqmagan qiz edi. Qalmoqlar yurtida uni himoya qiluvchi kuch yo‘q bo‘lgani sabab alp aka-ukalarga qarshi o‘zi kurashga otlangan. Ikkinchi qismda esa Barchin o‘ldi deb hisoblagani bilan aslida Alpomish tirik-ku. O‘z oilasini, o‘z qo‘rg‘onini Alpomish dushmanlardan o‘zi asrashi kerak. Qolaversa, Ultontozga bu safar ham Barchin qarshi chiqqanida, Alpomish bajarishi lozim bo‘lgan katta kurash vazifasi o‘z qadrini yo‘qotar edi. Shunday qilib, baxshi dostonida Barchin ishtirokini tasvirlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘radi va uni eng go‘zal fazilatlariga ega ayol sifatida tasvirlaydi.

Dostondagi Qorajon obraziga alohida ehtiyotkorlik bilan yondashishimiz lozim. Chunki Qorajon makkor Surxayil kampirning o‘g‘li bo‘lishiga qaramay tabiatan adolatli shaxs. Onasi Barchinoyga sovchilikka ketayotganida aynan Qorajon uni yo‘ldan qaytaradi. U Qo‘ng‘irot elidan kelganlarning tinchligini buzishni ma‘qullamaydi. Biroq Surxayil Barchinni Qorajonga olib bermoqchi ekanini eshitib, onasiga oq yo‘l tilaydi. Qorajon dostonida juda sodda va samimiy shaxs deb tasvirlanadi. U onasining sovchilikdan “bo‘ri” bo‘lib qaytganiga osongina ishonadi va butun Boysari urug‘i orasida rosa kulgiga qoladi. Ammo taqdir uni Alpomish bilan yaqinligini qayta-qayta tasdiqlaydi: Alpomishning mozoristondagi tushini u ham ko‘radi. Murod tepada uning navbatchiligi paytiga Alpomishning Qalmoqqa safari to‘g‘ri kelib qoladi. Bularning hammasi yetti aka-ukadan Qorajonning boysunliklarga bo‘lgan munosabatini belgilagan bo‘lib chiqadi. Xalq og‘zaki ijodida bir qahramon mardligi oldida ikkinchisining tan berishi umumiy an‘ana hisoblanadi. Qorajon ham Hakimbek oldida o‘zining qoyil

ekanini tan oladi. U bilan aka-ukalari o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ladi. Qorajon tushida islomni qabul qilgani uchun qalmoqlardan ko'ra boysunliklarga ko'proq ergashib ish tutadi.

Dostonda ijobiy qahramonlarning fazilati salbiylari bilan munosabatga kirishilganda aniqroq seziladi. Bu o'rinda Boybo'ri, Boysari, Ko'kaldosh va Surxayilni alohida qayd etish lozim. Badiiy adabiyotda qahramonning salbiy, ijobiyligidan qat'i nazar asarda tasvirlanish darajasi mukammallikka erishsa, go'zal obraz deb atash qabul qilingan. Masalan, "O'tkan kunlar"dagi Homid, "Mehrobdan chayon"dagi Abdurahmon go'zal obraz hisoblanadi. Chunki ular haqiqiy insonda nafrat uyg'otadi. YA'ni bu o'rinda qahramonning fe'li emas, yaratilishi jarayonidagi adib mahoratining namoyon bo'lishi asos hisoblanadi. Aytmoqchimizki, "Alpomish" dostonidagi eng go'zal obrazlardan biri bu Surxayildir. Agar xolis baho beradigan bo'lsak, Surxayil nihoyatda aqlli, hushyor, tadbirkor, irodali, o'z maqsadiga erishuvchan kampir. Doston sahifalarida uning ismini uchratganimiz zahoti ko'nglimizda g'ashlik paydo bo'ladi. Bu g'ashlik ko'pincha o'zini oqlaydi. Chunki hiyla o'ylab topishda, xiyonat chegarasini belgilashda uning oldiga tushadigan qahramon faqat "Alpomish"dagina emas, umuman, xalqimiz og'zaki ijodida boshqa uchramasa kerak. O'z harakatlarini juda asoslaydi. Raqib kuchini to'g'ri baholaydi. Vujudga kelgan vaziyatni juda aniq belgilaydi va zudlikda undan foydalanish rejasini tuza oladi. Axir o'zingiz o'ylab ko'ring, Alpomish mast yotganida yoqishdi – yonmadi, uni qurol yaralay olmadi. Shunda Surxayil zindonni o'ylab topadi. Undan oldin Alpomishni butun yigitlari bilan bandi qilish rejasini ham u tuzadi. Hatto Alpomishning ishonchini qozonish uchun Toychixon askarlari kelayotgani haqida xabar ham beradi. Bu xabardan avval Toychixon bilan kelishib olgan edi. Uning har bir harakati Alpomishga qarshi qaratilgan. Tavkaning Hakimbek zindoniga lahm kavlaganini ham Surxayil fosh etadi. Xullas, Surxayilning salbiy badiiy obraz darajasidagi fazilati shu qadar mukammal ishlanganki, undan har qanday mohir va tajribali adib mahorat maktabi sifatida foydalanishi mumkin. Ma'lum bo'ladiki, "Alpomish" qahramonlar tizimini yaratish bo'yicha ham eng oliy darajadagi badiiy asar deb baholanishga loyiq ekan.

“Alpomish” dostoni badiiy jihatdan ham mukammal asar. Faqat siz badiiylik deganda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko‘laminigina tushunmasligingiz lozim. Chunki badiiylik tushunchasining o‘zi juda murakkabdir. “Alpomish” dostonida qabila-urug‘chilik munosabatlarining tugallanishi va davlatning vujudga kelishi aks etgan dedik. Masalaning qo‘yilishi boshqa, uni badiiy mukammal holda ishonarli qilib tasvirlash boshqa. “Alpomish” dostoni asrlar davomida xalqimizni mardlik, qahramonlik, adolat, irodalilik ruhida tarbiyalab keldi. Mana shunday vazifani sharaf bilan bajarib kelgan asar, albatta, badiiylik talabiga javob bera oladigan bo‘ladi, ya’ni asar ijrosini tinglovchilar qiziqish bilan qabul qiladilar. Qahramonlarning g‘alabasidan qalblari quvonchga to‘lsa, mag‘lubiyatidan tashvishga tushadi. Asardagi voqealarga u to‘liq ishonadi. Ayrim kamchiliklar esa uning xayoliga ham kelmaydi yoki kamchiliklarni sezmaslikka urinadi. Aynan mana shunday ruhiy holatning vujudga kelishi ham asar badiiyati darajasidan ma’lumot beradi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li mohir va tajribali baxshi bo‘lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosini, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta’riflaydi. Tomoshabin ko‘z oldida jonli voqea tasvirini namoyon qiladi. Asardagi qahramon xatti-harakatlarini dalillashga e’tibor beradi, shuning uchun ham tinglovchi ko‘nglida doston mazmuni bilan bog‘liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

“Alpomish” dostoni badiiy tasvir vositalari: mubolag‘a, o‘xshatish, sifatlashlarga juda boy. Masalan: “Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyini qo‘liga ushlab ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi, Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi⁸⁷”. Lug‘atlarda og‘irlik o‘lchovi “botmon” O‘rta Osiyoda 2 puddan 16 pudgacha vaznga ega ekani ko‘rsatilgan. Agar 1 pud 16 kilogrammga teng bo‘lsa, 14 botmon eng kichik hisobda 224 kilogramm bo‘ladi. 7 yoshli Hakimbekning bronzadan quyilgan (birichdan bo‘lgan) shu qadar og‘ir yoyini ko‘tara olishi, unga mos o‘q joylashi va

o‘qni otib, katta tog‘ning cho‘qqisini uchirib yuborishi tinglovchilarda hayrat uyg‘otadi. Ammo tinglovchi bu voqeaning sodir bo‘lganiga shubha qilmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini avliyolar qo‘llashgan. Shohimardon pirining o‘zi qalandar qiyofasida kelib, Hakimbek deb ism qo‘ygan. Mubolag‘ali o‘rinlar alplar gavdalari, Barchin, Qaldirg‘och go‘zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, ot poygasida juda o‘rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o‘xshatishlar bor:

Ostingda bedoving xalloslar qushday,
Achchig‘ing chillali muzlagan qishday.

Bu satrlarda masofani tez bosib o‘tadigan Boychibor qushga, Alpomishning g‘azabi atrofni muzlatadigan qishga o‘xshatilyapti.

Dostonda:
Davlat qo‘nsa bir chivinning boshiga,
Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga.
Ot chopsa gumbirlar tog‘ning darasi
Urushda bilinar mardning sarasi–

kabi hikmatli so‘zlar tez-tez uchraydi. Ma‘lum bo‘ladiki, “Alpomish” dostonining o‘ta qiziqarli voqealardan tashkil topgan mazmuni so‘z san‘atining go‘zal badiiy vositalari bilan bezatilgan holda tinglovchiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham doston asrlar osha xalqimiz tomonidan sevib tinglanmoqda va o‘qib kelinmoqda.

Xalq qo‘shiqlarining janr xususiyatlari

Qo‘shiqlar folklorda eng qadimiy va eng boy janrlardan biri hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» kitobidan joy olishi ham bejizga emas.1. Bu bir tomondan xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang

bo'lganligini, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ularni tasniflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvala «qo'shiq» deganda biz nimani nazarda tutishimiz lozim? Og'zaki ijod namunasi bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan ma'lum bir individual ijodkor tomonidan yaratilgan qo'shiq o'rtasida qanchalik o'xshashlik va farq mavjud?! O'xshashlik har ikkala qo'shiqning ham musiqaga, ohangga, ma'lum bir o'lchov – vaznlarga amal qilishidadir. Xalq qo'shig'i yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlardan an'anaviyligi, jamoaviyligi, maishiy yo'nalganligi, variantlilik, ya'ni asrlar davomida xalq tomonidan og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilib, og'zaki meros qilib qoldirib kelinayotganligi bilan tubdan farq qiladi.

Xalq qo'shiqlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qo'shiqlar mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borganligining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun qo'shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o'rta asrlarda, hamda kuni kecha yoxud bugun yuz berayotgan voqealarning, kechinmalar o'z ifodasini topadi.

Turkiy xalqlarda «qo'sh» so'zi uch ma'noda: «kuylamoq», «qo'sh qo'shmoq» – yer, haydab, ekin ekmoq va juft ma'nolarini bildiradi. Har uch ma'no ham bir-birini inkor etmaydi.

«Qo'sh» mavsum, ya'ni bahor marosimida ilohlarni ulug'lab aytilgan qutlov, alqovdir. (Saxa turklarida shonmonlik qo'shig'i – kuturuu – so'zi kut – ruh, uruu –ulug'lamoq, qutlamoq ma'novlarini anglatadi).⁷ Shuning uchun «kuylamoq»ning bevosita hosildorlik kulti bilan aloqadorligi, ekin-tekin payti bu qo'shiqning kuylanishi albatta shart bo'lgan.

Qo'shiqning qo'sh bilan o'zaro bog'liq ekanini folklorshunos olim Asqar Musaqulov o'rinli izohlab bergan.²

Ma'lumki qo'shiqlar asosan to'rtliklardan tashkil topgan. Ikki misraning birikib, juftlik, ya'ni «qo'shiq» hosil qilishi shunchaki tasoddif emas. U xalq hayoti bilan bog'liq qadim tasavvurlarning mahsulidir.

Qo‘shiq so‘zi «Devonu lug‘otit turk»da «koshug‘», Yusuf Xos Hojibda «qoshuq», Haydar Xorazmiyda «qo‘sh», Mahmud Umar Zamahshariyning «Muqaddimatul- adab» asarida «qo‘shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo‘shiq», «surud», «ayolg‘u», «lahn», «turku», Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobirnonoma»sida «qo‘shiq» shaklida kelganini ko‘ramiz.⁸ Alisher Navoiy ham, Bobur ham xalq qo‘shiqlarini nazarda tutganda «qo‘shiq» kalimasini ishlatadi. Qolgan paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.³

Folklorshunos olim Muzayyana Alaviya o‘zbek qo‘shiqlarini

1.Lirik;

2.Mehr baytlari;

3.Terma;

4.Mehnat qo‘shiqlari;

5. Mavsum marosim qo‘shiqlariga bo‘ladi.

F.Karomotov xalq qo‘shiqlarini: maishiy, oilaviy-marosim, mehnat, tarixiy va sotsial norozilik qo‘shiqlariga bo‘lib tahlil etadi.

Asqar Musaqulov qo‘shiqlarni uch guruhga:

a)marosim: to‘y va motam qo‘shiqlari;

b) nomarosim lirika: mehnat qo‘shiqlari, allalar, termalar,ishqiy-maishiy qo‘shiqlar;

v) bolalar folkloridagi lirik qo‘shiqlarga bo‘ladi.

Bu tasnifni boshqa tasniflarga qaraganda nisbatan mukammal deyish mumkin.

Shu o‘rinda qo‘shiqlarni qaysi mezonlar asosida tasnif etish lozim, degan savolning qo‘yilishi tabiiy albatta.

Xalq qo‘shiqlari tasnifi

Bizning nazarimizda qo‘shiqlarning tasnifida eng avvola bitta mezonga amal qilish lozim. To‘g‘ri qo‘shiq janrining ichdagi tur va uzvlarning har biri o‘z spetsifik xususiyatlariga ega ekanligi tabiiy. Biroq bu xususiyatlar ularni tasnif

etilishida yaxlit bir mezondan kelib yondoshishga monelik qila olmaydi. Shunday ekan qo‘shiqlar ijro o‘rni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: 1) ijro o‘rni; 2) poetik strukturasi, 3) musiqiyliigi va raqsga munosabatiga qarab tasnif etilishi lozim.

***Ijro o‘rniga qarab tasnif etilganda qo‘shiqlar:
marosim va nomarosim qo‘shiqlariga ajraladi.***

O‘z navbatida marosim qo‘shiqlari ham ikki: ***mavsum marosim va oilaviy-maishiy marosimlar qo‘shiqlariga bo‘linadi.*** Mavsumiy marosim qo‘shiqlari tematik va funksional xususiyatlariga ko‘ra, yilning to‘rt mavsumi bilan bog‘liq (navro‘z, sust xotin, choy momo, obla baraka, yasun-yusun) bilan bog‘liq qo‘shiqlarni kiritish mumkin.

Marosim qo‘shiqlari inson hayotining eng muhim davrlari, burilish nuqtalari (tug‘ilish, balog‘at, uylanish, o‘lim) va ularning tabiatga munosabati o‘z aksini topgan bo‘lib, maishiy, psixologik hamda estetik funktsiya ham bajarib keladi.

Ayrim mavsumiy marosim qo‘shiqlari davrlar o‘tishi bilan lirik qo‘shiqlarga aylangan holatlar mavjud. **«Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon – kichkina», bolalarning «Boychechak», «Cho‘chvara qaynaydi», «Oftob chiqdi olamga» qo‘shiqlari ana shular jumlasidandir.** Bu qo‘shiqlar dastlab faqat mavsum marosimida ijro etilgan. «Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon kichkina», «Boychechak» bevosita Navro‘z – ya’ni bahorgi marosim bilan bog‘liq.

Oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlari safiga to‘y, farzandning to‘g‘ilishi, xatna to‘yi va nikoh to‘yi, matom-marosimi bilan bog‘liq yig‘i–yo‘qlov, motam yor-yorlari va shomon aytimari bilan bog‘liq kinna, badikni kiritish mumkin.

Biroq davrlar o‘tishi bilan ko‘proq maishiylik kasb eta borgan va uni istagan paytda kushnoch, folbin yoki tabib ijro etish mumkin. Shuning uchunso‘zning magik qudratiga asoslangan matnlarni biz aytimlar deb tahlil etish tarafdorimiz.

Nomarosim qo‘shiqlari esa asosan lirik qo‘shiqlardan tashkil topgan bo‘lib, marosim qo‘shiqlaridan farqlanib turadigan jihati ularning biror-bir

marosim bilan maxsus bog‘lanmaganligi, istalgan paytda, istagan joyda aytilishidir. Bu yo‘nalishdagi qo‘shiqlar:

1. Mehnat qo‘shiqlari.

2. Tarixiy qo‘shiqlar.

3. Termalar.

4. Bolalar qo‘shiqlari: allalar, huyalar, bolalarning o‘zi tomonidan kuylanadigan qo‘shiqlar.

5. Lirik qo‘shiqlarga bo‘linadi.

Mutaxassislar mehnat qo‘shiqlarini xalq lirikasining eng qadimiy janrlaridan biri sifatida bilishadi. Mehnat qo‘shiqlari ham qachonlardan maxsus marosimlar tarkibida ijro etilgan. Keyinchalik davrlar o‘tishi bilan marosim unutilib, faqat qo‘shiq matni qolgan. Misol uchun qo‘sh, o‘rim, oblo baraka, ho‘p mayda, yorg‘ichoq qo‘shiqlarini olaylik. Qadimda qo‘sh haydash ham, o‘rim ham, oblo baraka ham maxsus marosim sanalgan.

Mehnat qo‘shiqlarining o‘zi ko‘plab a) dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar (qo‘sh, oblo baraka, yorg‘ichoq qo‘shiqlari), b) chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar (sog‘im qo‘shiqlari: husheyhushey, turey-turey, churey-churey), v) kasb hunar (charx, bo‘zchi, gilam to‘quvchilar va hokoza) qo‘shiqlaridan tashkil topgani holda, **tarixiy qo‘shiqlar** tarixda bo‘lib o‘tgan biror bir voqea yoxud shaxs haqida to‘qilgan satrlardir. Tarixiy qo‘shiqlarning eng go‘zal namunasi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit–turk kitobi»da keltirilgan. Bu kitobdagi to‘rtta marsiyani yig‘i-yo‘qlov namunasi emas, tarixiy–qahramonlik qo‘shig‘i namunasi sifatida o‘rganmoq lozim. O‘zbeklardagi «Namoz», «Mardikorlar» kabi qo‘shiqlarni ham ushbu turkumga kiritish mumkin.

Termani mutaxassislar ham lirik, ham epik turga kiritishadi. To‘g‘ri termaning profesional ijodkor– baxshi tomonidan ijro etilishi, doston kuylash an‘anasi bilan chambarchas bog‘liqligi uni epik tur deya tadqiq etish imkonini beradi. Biroq unda epik voqelik emas, ijodkorning ma‘lum bir holatdagi kechinmalari o‘z ifodasini topadi. YA’ni baxshi terma kuylash orqali o‘zini doston aytishga, tinglovchini esa doston tinglashga tayyorlagan. «Kunlarim»,

«Dumbiram», «Nima aytay» ana shunday termalar sirasiga kiradi. «Oq olma qizil olma» to‘plamida noma’lum shoirdan yozib olingan «Bibi shaylanayotir» termasi shu paytgacha yozib olingan termalarning eng go‘zal namunasi.

Bolalar qo‘shiqlari atamasini ham keng ma’noda tushunmoq kerak. Birinchi o‘rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan qo‘shiqlar: Alla va huyalar. Alla hamma uchun tushuanrli. «Huya» bu O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo‘shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an’anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti. Ikkinchisi esa bolalarning o‘zi tomonidan kuylanalidigan qo‘shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko‘k terak», chorlamalar shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining asosiy qismini lirik qo‘shiqlar tashkil etadi. Bu o‘rinda lirik deganda biz sevgi muhabbat haqidagi ishqiy-maishiy qo‘shiqlarni nazarda tutamiz. *Lirik qo‘shiqlar ham 1) Aytishuv yo‘nalishidagi (O‘lan va lapar) aytishuv yo‘nalishida bo‘lmagan, turli mavzudagi qo‘shiqlarga ajratib tasniflash mumkin.*

O‘lan ham, lapar ham qadimda to‘y kuni, qiz uzatish marosimida aytilgan. Qiz va yigitlar tarafma, taraf bo‘lib shodu-xurramligini, baxtiyorligi yoxud afsus nodamatini, xullas kechinmalarini qo‘shiq orqali ifoda etishgan. Har ikkalasi ham aytishuvga, ya’ni qiz va yigitning so‘z musoboqasiga asoslanadi. Faqat laparlarda voqebandlik kuzatilsa, o‘lanlarda bu holat kuzatilmaydi. Bugungi kunda o‘lan ham, lapar ham istalgan sharoitda, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. O‘lanlar asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan, kuchmanchi hayot kechirgan urug‘lar orasida uchrasa, laparlar esa ko‘proq o‘troqlashgan hayot tarziga mosligi ko‘zga tashlanadi.

Qo‘shiqlar ohang yo‘liga ko‘rab farqlanganda ular asosan ikkita katta guruhga ajraladi.

b) Voqeband bo‘lmagan – to‘rtlik qo‘shiqlar.

a) Voyeqeband –to‘rtlik qo‘shiqlar.

Voqeaband qo'shiqlarda yuqorida ta'kidganimizdek har bir to'rtliklar ma'lum bir voqea bilan o'zaro birikib keladi. Bu yerda to'rtliklarning ketma-metligi turg'un holatga kelib, voqeabandlik hosil bo'ladi.

Misol uchun:

Oqti, oqti, oqti

Aminaxon oqti.

Hasan-Husanlar bilan,

Soylarga botdi.

Uni ko'rib onasi

Bilagidan tortdi.

«Tortmang, onajon, tortmang»,

Deb soyga oqdi.

Aminaning kovushini

Soylardan topdi.

Qilgan sayohatlari

Qon bo'lib oqti.

G'isht ko'prik tagida

Uch kuncha yotti.

Chilvir-chilvir sochlari,

Balchiqqa botdi.

Yalli, yalli, yalli,

Yallining boshi.

Aminaxonning yoniga botgan,

Soylarning toshi.

Bu qo‘shiqda Aminaxon ismli qiz balog‘at yoshiga yetib, bir yigitning yolg‘on va‘dasiga ishonib, homilador bo‘lib qolgani, onasi bilib qolgach, qiz nomusiga chiday olmasdan o‘z joniga qasd qilgani, uch kundan keyin uning jasadini ko‘prik tagidan topib olingani hikoya qilinmoqda.

«Savrixonning ro‘moli» qo‘shig‘ida ham aynan shunday voqeabandlikni ko‘ramiz. Bunday voqeabandlik kelin salom, yor-yorlarda va ayrim mehnat qo‘shiqlarida ham uchraydi.

Voqeaband bo‘lmagan qo‘shiqlarda har bitta to‘rtlik mustaqil alohida bir kechinmani ifodalab keladi. Ularni faqat ohang va naqoratlar bog‘lab turadi.

Devor ustiga devor,
Devona bo‘lsin akang.
Boshida shoyi ro‘mol,
Parvona bo‘lsin akang.
Yaqu-yaqu yaquyaq. Yaqu-yaqu yaquyaq.

Tog‘lar boshi o‘rama,
Kiyik shoxi bo‘rama.
Boy qizini bermasa,
Boyni xudo urama.
Yaqu-yaqu yaquyaq. Yaqu-yaqu yaquyaq.

Holat qo‘shiqlar. Hamma qo‘shiqlarda kechinma, holat aks etsada holat qo‘shiqlarida qahramon hech kimga murojaat qilmaydi, balki o‘z holatini anglatishga harakat qiladi.

Yor yurgan ko‘chalarni,
Supuray sochim bilan.
Chang chiqsa suv sepay,
Kizdagi yoshim bilan.

Murojaat qo‘shiqlar.Bunday qo‘shiqlarda qahramonning so‘zlari kimgadir – sevgilisi, yaqinlari yoki boshqa bir kimsaga murojaat tarzda bo‘ladi.

Otma meni toshlar bilan,
Uchib ketay qushlar bilan.
Qushlar qaytsa, men qaytmasam,
Ko‘zing to‘lsin yoshlar bilan.

Aytishuv qo‘shiqlarining eng go‘zal namunasi O‘lan va laparlardir. Ularda qiz va yigit jo‘ft bo‘lib yoxud tarafma-taraf bo‘lib, aytushuvda o‘zaro musoboqalashadilar.

Yigit:

Kakang keldi deganda, kakang keldi, yor-yor.
Xurozlarning ichida, dakang keldi, yor-yor.
Qiziq-qiziq o‘landan ayt oxun qiz, yor-yor,
Tarp bo‘lib aytmoqqa akang keldi, yor-yor.

Qiz:

Bulbullarning qo‘ngani gul bo‘ladi, yor-yor,
Olamdagi bor so‘zni, til biladi, yor-yor.
Tarp bo‘lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,
Oxunliging bu yerda kim biladi, yor-yor

Qo‘shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to‘rtliklardan iborat bo‘lib aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi. To‘rtliklar qo‘shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e‘tirof etishadi. Qo‘shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo‘shiqning ohangdorligini ta‘minlab, uning poetik xususiyatini ko‘chaytirishga xizmat qiladi.

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda, mayda-yo, mayda.	7+5=12
Qalqon tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda.	7+5=12
Temir tuyog‘im hayda, mayda-yo, mayda.	7+5=12
Xirmonni qilgin mayda, mayda-yo, mayda.	7+5=12

(Yanchiq qo‘shiqlari)

Takrorlar xalq qo‘shiqlari badiiyati tizimidagi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Satr boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishdan qat’iy nazar takrorlar qo‘shiqdagi ilgari surilgan mazmuni ochib berishga xizmat qilish barobarida ohang va kuyning yaxlitligini ta’minlab beradi.

Qo‘shiqlardagi naqoratlar esa an’naviy naqoratlar va noan’anaviy naqoratlarga bo‘linadi. An’anaviy naqoratlarda: **So‘z; misra; to‘rtlik** takrorlanib keladi. Bular an’anaviy naqoratlar. Bu naqoratlar turli xil qo‘shiqlarda uchrashi mumkin. To‘g‘rirog‘i bu yerda ohangni ushlab turuvchi naqoratlar qoladi, faqat matn o‘zgaraveradi. Har qanday matn ushbu naqorat ohangiga moslashadi. Takrorlarda matn bilan chambarchas bog‘liqlik ko‘zga tashlansa, naqoratda mazmun bilan bog‘liqlik sezilmaydi. Bu o‘rinda ohang muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari faqat ayrim qo‘shiqlarning o‘zigagina xos bo‘lgan ma’lum **tovush** (Ha, hu) va **misra** takrorlanib kelish holatlari borki, ularni noan’anaviy naqoratlar sifatida baholash mumkin.

Qo‘shiqning kuyga munosabatiga kelsak, hamma, hatto motam qo‘shiqlarida ham musiqiy ohang mavjud, biroq motam marosim qo‘shiqlari biror bir musiqiy asbob jo‘rligida kuylanmaydi. Motam marosimi va ayrim mavsum marosim qo‘shiqlarini inobatga olmaganda hamma holatlarda qo‘shiqlarga biror musiqa asbobida kuy chalinishi mumkin. Shunga ko‘ra qo‘shiqlarni: **1.Soz bilan ijro etiladigan qo‘shiqlar; 2.Hech qanday sozsiz ijro etiladigan qo‘shiqlarga bo‘lish mumkin.**

Hozirgi jonli jarayonda o‘zbek qo‘shiqlari doira, dumbira, dutor, balomon, tor va hakoza musiqa asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Qanday musiqa asbobi tanlanishi qo‘shiq mazmuni va ijro etilayotgan vaziyatdan kelib chiqiladi.

Qo‘shiq va raqs haqida so‘z ketar ekan, ularning hamma davrlarda kuy bilan birgalikda uyg‘unlikda qaralganligining guvohi bo‘lamiz. Fuod Ko‘prili turklarning adabiy qarashlari diniy tasavvurlar hamda raqs va musiqa bilan

birgalikda taraqqiy etganini yozadi. Yoxud «Chig‘atoy lug‘ati»da qo‘shiq «raqs havosiga bog‘langan kuy» tarzda kelgani aytiladi.

Qo‘shiq va raqsning eng mukammal uyg‘unligini biz «Beshqarsak» qo‘shiqlari va o‘yinida ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘yinni o‘rgangan san‘atshunos olim Muhsin Qodirov uni o‘zbek xalq san‘atining qadimiy ko‘rinishlaridan biridir deydi. Bu o‘yinda qarsak va qo‘shiq qaytariqlari alohida ahamiyatga ega. Raqqoslar doira shaklini yasab qarsak ohangiga mos harakatlar qilishadi. Qarsakning turlari ko‘p: mayda qarsak, yakka qarsak, qo‘sh qarsak va hakoza. Cholg‘u asbobi vazifasini ko‘pincha qarsaklar bajaradi. Biroq bu qo‘shiq kuysiz ijro etiladi degani emas. Qarsak ham, kuy ham, naqoratlar ham eng mukammal uyg‘unlik kasb etadi. O‘rtada raqqos turli harakatlar bilan raqs tushadi, davradagilar qarsak chalib, kuyga mos qo‘shiq ijro etishadi. Qarsak o‘yinlarida naqoratlar muhim ahamiyatga ega.

Hoy bola-bola, yor-yor,

Omon bola yor-yor.

Hay-hu, ho-ho-ho.

Oq otingni maqtaysan,

Bo‘z otimga yetmaydi.

O‘yinchingni maqtaysan,

Qarsoqchidan o‘tmaydi.

Hoy bola-bola, yor-yor,

Omon bola yor-yor.

Hay-hu, ho-ho-ho.

Bu raqs o‘yin sifatida san‘atshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsada, bu o‘yinning verbal qismi, ya‘ni so‘z komponenti olimlar e‘tiboridan chetda qolib

kelmoqda. Bu raqsda kuylanib kelinayotgan «Omonyor», «Gulbog'», «Dig'ajon», «Hoy bola-bola, yor-yor»lar xalq qo'shiqlarining eng yorqin namunalari.

Tasnifni yana davom ettirish mumkin. Misol uchun erkak va ayol qo'shiqlari, har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, Surxondaryo, Qashqadaryo; Jizzax, Samarqand, Buxoro; Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona hamda Xorazm qo'shiqlari deyish ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqlaridagi maishiy yo'nalganlik va ijro o'rni masalalari uning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi omillardan hisoblanib, ularning tasnifida eng avvala har bir janrning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va bugungi jonli og'zaki ijro jarayonidagi holati, poetik xususiyatlari, badiiy tasviriy vositalari, mifologik tafakkur tabiati, obrazlar tizimi yaxlitlikda olib qaralishi zarur bo'ladi.

O'ZBEK BOLALAR FOLKLORI

O'zbek fol kloriga tarixida bolalar fol kloriga o'rganishning muhim ahamiyati bor. Chunki eng qadimgi xalq og'zaki ijodining aksariyati bevosita bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan. Buni bolalar aqlini peshlash va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan alla, erkalama, topishmoq, tez aytish, sanama, maqol va jonivor va hayvonlar timsoli qatnashgan ertaklar misolida ko'rish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerak, insoniyat har doim avlod davomiyligi uchun kurashib kelmoqda. U hech qachon o'zining farzandlarini taqdir ixtiyoriga tashlamagan. Odamzod bolalarining sog'lig'i va ularni oziq-ovqatlari bilan ta'minlash vazifalaridan tashqari, ularning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, aql-idrokini rivojlantirish yo'lida ham qayg'urgan. Bolalar fol kloriga esa ana shu qayg'urishning yorqin isbotidir.

O'zbek fol kloriga umumfol kloriga tarixining ajralmas tarkibiy qismi. Bolalar fol kloriga ikki yo'nalishda shakllangan. Birinchisi, bolalar o'yinlari. o'zaro muloqatlari jarayonida yaratilgan bo'lsa, ikkinchi yo'nalish bu – kattalar tomonidan yaratilib, bolalar tarbiyasiga moslashtirilgan. Maqol, topishmoq, erkalama, tez aytish va bollar ertaklari ana shu taxlit maydonga kelgan.

Bolalar fol klori ilm-fan,yozuv va o'qish paydo bo'lgach,yanada faollashdi.Mazkur jarayonda bevosita bolalar adabiyoti vakillarining xizmatlari beqiyosdir.Quddus Muhammadiy,Zafar Diyor,Po'lat Mo'min,Anvar Obidjon,Xudoyberdi To'xtaboev,Tursunboy Adashboev va boshqa so'z san'atkorlari xalq og'zaki ijodiyotidan bahramand bo'lganlari holda adabiy ertaklar,topishmoqlar,erkalamalar va qo'shiqlar yaratishgan.Ma'lum bo'ladiki,yozma adabiyot paydo bo'lmasidan avval bolalar adabiyoti vakillarining bu sohadagi vazifalari bolajon odamlar,iste'dodli kishilar tomonidan og'zaki uslubda bajarilgan.Ana shunday bolalar fol klori namunasi onalar "Alla"lari,"Erkalama","Tez aytish","Sanama"kabilar dunyoga kelishiga sabab bo'lgan.Bolalar fol klori namunalari bolalar "O'yin fol klori" tarkibida ko'plab uchraydi.Shuning uchun bolalarning o'zlari tomonidan ijod etilgan bu merosida hajm jihatdan cheklanish bor.Masalan,"Laylak keldi yoz bo'ldi,qanoti qog'oz bo'ldi","Oymoma pilla,qanotlari tilla" qabilidagi qo'shiq shaklidagi aytilmalar matni bolalik tushunchalari doirasida yaratilganga o'xshaydi."Oq choynakka oq qopqoq,Ko'k choynakka ko'k qopqoq"yoki "Qishda kishmish pishmasmish,Pishsa kishmish qishmasmish" singari tez aytishlarni bemalol kattalar tomonidan yaratilgan desa bo'ladi.

O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari inson hayoti ibtidosidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan burkangan. Insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga xos madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Oilada farzand tug'ilgan kun, unga ism qo'yish, bolani ilk marotoba beshikka bela shva dastlabki qorin sochini olish, ilk qadamni bosishi, o'g'il va qizlarni birinchi bor maktabga borishi, muchal yoshiga to'lishi, maktabni bitirishi, nikh to'yi, kumush, oltin va olmos to'ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotidagi unitilmas voqealardir.

O‘zbek xalqi odatlari orasida chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog‘liq an‘analari tizimi alohida o‘rin tutadi. Bu tizim chaqaloq tug‘ilganida qarindosh-urug‘, yor-birodarlardan suyunchi olish, bolani cho‘miltirish, ilk bor ko‘ylak kiydirish, chaqaloqqa ism qo‘yish, kichik va katta chillani o‘tkazish, bolani beshikka solish kabi maxsus tadbirlardan tarkib topgan.

Marosim ishtirokchilari esa baravariga “yo‘q-yo‘q” – deb javob beradilar. Shunda momo chaqaloqni beshikning eniga qaratib yotqizadi va marosim qatnashchilaridan yana rad javobini oladi. Uchunchi marta esa bolani to‘g‘ri, ya‘ni o‘ng qilib yotqizadi va marosim qatnashchilari ham “o‘ng-o‘ng”, - deb buni tasdiqlaydilar. Momo bolani birinchi marta yotqizayotgan paytda:

Beshik bolasi bek bolasi,

Beklar beshigini keltiring-a,

Beshik bolasi bek bolasi,

Beklar jotgan beshigida jotsin-a,

Egajoni keldi-ya,

Kuchuklari qochsina,

O‘toviga egajoni keldi-ya,

O‘ngmi, chapmi? – deb chaqaloqni beshikka belaydi.

Shundan so‘ng “uyquchi”, “qo‘rquv-qo‘rquv”, “sog‘ bo‘lsin” kabi udumlar bajarilgan. Chaqaloqni belagan momo oq-qora ipni eshib turib, marosimda ishtirok etayotgan har bir kishining yoniga borib “uyqingizni bering”, “uyqingizni bolaga berdingizmi” – deydi. Ular “uyquni berdim” degach, go‘yoki uyquni olganday bo‘lib, qo‘lidagi ipga bitta tugun tugadi. Shu tariqa hammaning uyqusini “yig‘ib olib”, tuginni beshikning boshiga bog‘lab qo‘yadi.

Mustaqillik yillarida «Muchal yoshi» oila a‘zolari, do‘stlar davrasidagina emas, maktablarda ham uyushtiriladigan bo‘ldi. Keyingi yillarda muchal yoshi respublikamizning ko‘pgina maktablarida ota-onalar ishtirokida Navro‘z arafasida tantanali tarzda o‘tkazilmoqda.

Bolalar folklori madaniyat tarixida alohida o'rganilgan. Bu turdagi nomoddiy meros Toshkent davlat san'at va madaniyat institutining "Folklor va etnografiya" yo'nalishi fan dasturiga kiritilgan. Shu soha bo'yicha mutaxassislicida bilim oladigan talabalar "Bolalar folklori"ni chuqur va atroflicha o'rganadilar.

O'zbek xalqi hali yozuv paydo bo'lmagan oldin farzandlari jismoniy jihatdan baquvvat odamlar bo'lib yetishishlari bilan birga ularning aql-idrok faoliyatlari, atrofida sodir bo'layotgan narsa va hodisalarga nisbatan tez fikr yurgiza olishlari, shuningdek, tez xulosa chiqara olishlari singari ong faoliyatlari tarbiyasiga ham e'tibor qaratishgan. Bolalar folklori namunalari o'zlaridagi bola va go'dak tushunchalariga mos kelishi, ular yengil anglab yetishlari uchun til qurilishining soddaligi, badiiy vositalarga boyligi va ularning ruhiyatiga mosligi bilan kattalar folkloridan farqi bor. Masalan, beshik qo'shiqlari deb nomlanadigan "Alla", bolalar aql-idroki va voqelikni tez anglay olish qobiliyatlarini peshlovchi "Topishmoq", "Tez aytish" va "Sanama" singari bevosita bolalar ruhiga mos yaratilgan folklor asarlari aytilishi ya'ni ijrosi, talaffuzi osonligi va tinglovchi xotirasiga tez o'rnashishi xususiyatlari borligi bu yo'nalishdagi nomoddiy madaniyat merosiga xosdir.

Bolalar folklori namunalari ijro vaziyati va jarayoniga qarab shartli ravishda quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Oilaviy muhitda unga aytiladigan pand-nasihatlardan va bolaning kundalik ota-onasi va qarindoshlari bilan munosabatlari jarayonida aytiladigan folklor namunalari.

2. Bolalar o'yin-folklori jarayonida ijro etiladigan folklor namunalari.

3. Bolalarning ta'lim olish maskanlarida ularga kattalar tomonidan bayon etiladigan folklor namunalari.

4. Bola yashaydigan qishloq, mahalla odamlari tomonidan aytiladigan folklor namunalari (ommaviy urf-odat va marosimlarda katta odamlar hamda o'smirlar, yigitlar tomonidan bajariladigan an'anaviy tarbiya bilan bog'liq ibratli hatti-harakatlar).

So'nggi davrlarga kelib, komp yuter va boshqa axborot vositalari yuksak darajada rivojlangach, an'anaviy bolalar fol kloriga tomosha san'ati turlariga o'ta boshladi. "Zangori ekran" va internet saytlarida mul'tifilm, bolalar qo'shiqlari tasvirlangan kliplar maydonga keldi. Bu holat bir tomondan hisob kelayotgan avlodni virtuallasuvi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan hayot kechirish yo'lida samarali foydalanishlari uchun qulaylik tug'dirdi. Biroq bola qalbida go'zallik, mehr-shafqat va axloq-odob tuyg'ulari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan onalar allasi, bobo-buvilar aytadigan ertaklari, tabiat o'zgarishi munosabati bilan aytib kelingan qo'shiqlar mehrgiyosi asta-sekin so'nib bormoqda. Zamonaviy olim va pedagoglar ta'birlari bilan aytganda, bolalar "robot odamlar"ga aylanishib bormoqda. Bu haqda Yevropa ruhshunos va pedagoglarining ilmiy-amaliy tajribalari matbuot sahifalarida bot-bot yoritilmoqda. Chunki buloq suvidek fol kloriga san'ati inson bu yorug' olamni taniganidan buyon so'z vositasi yordamida odamzod qalbini eritadigan beqiyos ma'naviy qadriyatlari orqali o'zining boshqa mavjudodlardan ustunligi va bu zaminning aziz va mukarram egasi qilib yaratilganligini anglab kelgan.

Yurtimizning Sharq ilm-fani va so'z san'atida yuksak muvaffaqiyatlar qozongan Ibn Sino, Aburayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy va Alisher Navoiy singari allomalar ham xalqimiz tomonidan bolalar uchun yaratilgan fol kloriga asarlari, xalq pedagogikasi an'analari ta'sirida voyaga yetishgan. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaralsa, bolalar fol kloriga milliy qadriyatlarimiz tizimida uni saqlash, ilmiy-nazariy o'rganish va zamonaviy madaniy-ma'rifiy ishlarda intensiv foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Bu haqda 15-asr so'z mulkingning sulтони Alisher Navoiy: "Beshik atrofida chinliku xitoyliklar yig'ilishib yuz ohang bilan alla aytar edilar. Go'dakning ko'zidagi noz boshqalarning ko'zidan uyqusini qochirar edi va ular Farhodning uyqusini keltirish uchun alla aytar edilar", -degan edi. Yoki tibbiyotfanining allomasi Ibn Sino ham inson farzandlarning har tomonlama tarbiyasida ona allasi va u tomonidan ijro etilgan tovush ohangining nihoyatda ahamiyati borligini ta'kidlagan.

Bolalar fol kloriga va o'yinlari bilan ilmiy tadqiqot olib borishgan o'zbek olim-fol klorshunoslari: G'ani Jahongirov, Oxunjon Safarov va Shomil Galievlar farzandlarimiz uchun yaratilgan og'zaki so'z san'ati va o'yinlari bolalar va o'smirlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida bebaho meros ekanligini har tomonlama asoslashgan.

Bolalar fol kloriga respublikamizdagi yetishib chiqayotgan san'atkorlar, yozuvchi-shoirlar va boshqa soha vakillari voyaga yetishida muhim tarbiya bosqichi rolini bajaradi. Bunga misollar istalganicha topiladi.

XULOSA

“Fol klor tarixi” fani bo'yicha taqdim qilinayotgan o'quv qo'llanmada xalq og'zaki so'z san'atiga oid ayrim fikr va mulohazalar bayon etilib, fan sohasi yo'nalishida tavsiyalar berildi.

“Fol klor va etnografiya” bo'limi talabalari xalq og'zaki so'z san'atining insoniyat madaniyat tarixida tutgan o'rni va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, uning milliy qadriyat sifatidagi yashab kelishi masalalari bo'yicha muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarida ushbu qo'llanma o'ziga xos yo'llanma beradi.

O'zbek fol kloriga tarixida insoniyatning ilk og'zaki ijodi mahsuli miflardir. Jahon va o'zbek fol klorshunoslari ijtimoiy ong shakllarining maydonga kelishida har bir xalqning qadimgi avlodlari tomonidan yaratilgan mif va mifologik tasavvurlar dastlabki manba deya ilmiy xulosaga kelganlar. Xususan, Asqar Musaqulov, Mamatqul Jo'raev, Jabbor Eshonqulov, Shomirza Turdimov va G'ulom Akramov kabi folklorshunos olimlar tadqiqotlarida o'zbek miflari, mifopoetik tasavvurlari xalq ertak, doston va qo'shiqlari chuqur ilmiy tahlil etilgan va miflar san'atning barcha turlari uchun ham asosiy manba rolini bajarganliklarini ta'kidlaganlar.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti janrlar tizimi maydonga kelishi va o'zbek xalqi milliy madaniyati tarixiga baho berishda yurtimiz fol kloriga namunalarning xorijlik tarixchilar, yilnomachilar va yozuvchilari tomonidan qadimda yozib qoldirishgan

manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.Chunonchi,miloddan avval yashagan Rim-Yunon tarixchilari,o'sha davr hukmdorlari tarixini yozib borgan solnomachilari va ayrim sayyohlari xotiralari,kundaliklarida o'zbeklarning qadimgi ajdodlari ko'rsatgan jasoratli janglari,etnik turmush tarzlarida o'z qabilalari sha'ni va ozodligi yo'lida olib borgan kurashlari,yosh avlodlari tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlari ana shunday manbalardir.Ular o'zlari bilmaganlari holda O'rta Osiyo va turkiy el istiqomat qilgan joylar odamlari qahramonliklarini hikoya qiluvchi tarixiy afsonalar,rivoyatlar va xabarlarni yozgan kitoblarida aks ettirgan.Olimlarimiz ularni tanqidiy o'rganishib,ota-bobolarimizning ma'naviy-axloqiy hayoti,vatanparvarliklari,insonparvarliklari va boshqa bugungi kun avlodlarimiz uchun ibrat bo'ladigan qimmatli qadriyatlarni yozib olishib nashr ettirmoqdalar.

Qadimgi davrlar xalq og'zaki ijodi insoniyat ma'naviy-madaniyati,ma'rifiy rivojiga yordam berishda bergan.Buni miloddan avvalgi 7-5 asrlar O'rta Osiyo,Eron va Ozarbayjonda tarqalgan otashparastlik dinining muqaddas kitobi "Avesto",uning muallifi Zardusht faoliyatidagi fol klor ruhidagi qoidlar,qo'shiqlar,dostonlar va mifopoetik aytimlar misldida ko'rsaish mumkin."Avesto"da tasvirlangan Axuramazda,Angramanyu,Yima.(Jamshid),Rustam,Bahrom timsollardagi yaxshilik,ezgulik,ezgu so'z,ezgu amal va ezgu fikrlar bilan sug'orilgan.Ularga zid ravishda zulmat,yovuzlik va yomonlik kuchlarini Axriman boshchiligidagi Devlar timsollari yaratilgan."Avesto"dagi ana shu mifologik timsollar o'zbek fol klorida hali bu din paydo bo'lmasdan oldin ota-bobolarimiz og'zaki ijodi namunalarida mavjud bo'lgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli qarori. "Xalq so'zi", 2017-yil 1-iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil 3-dekabr, 48-son, 921-modda.
3. Mirziyoyev SH.M. O'tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil 7-aprel.
4. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. ГИХЛ. М., 1947, с.461.
5. Мирзаев Т. Халқ бахшлари эпик репертуарининг асосий хусусиятлари.Т.: "Фан", 1979. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: "Ўқитувчи", 1990, 228-238-бетлар.
6. Мирзаев Т. Фольклор иждокорлари ва ижрочилари. Ўзбек фольклори очерклари, I том. Т.: "Фан", 1988, 18-бет.
7. Раҳмонов Н. Кўҳна битиктошлар. Т.:Ф.Ғулом нашриёти, 1991., Тўхлиев Б. Юсуф Хос Хожибнинг "Қутадғу билиг" асари. Т.: "Ўзбекистон", 1991.
8. Жалолов Ғ.О. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. Т.: "Фан", 1976., 23-бет.
9. Саримсоқов Б. Маросим фольклори. Т.: "Фан", 1986.
10. Мусоқулов А. Халқ кўшиқларининг тарихий асослари. "Фан", 1999.
11. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: "Ўқитувчи", 1990, 71-бет.
12. Оймомада аждарҳо. Ўзбек халқ фантастикаси. Т.: "Ёш гвардия", 1983: Асотирлар ва ривоятлар. Т.: "Ёш гвардия", 1990, Лайлак келди, ёз бўлди. Эртақлар ва ривоятлар. Т.: "Меҳнат", 1990.
- 13.Қаранг: Остроумов Н.П. Сказки сартов в русском изложении. Т.:1906., Он же, Пословицы и поговорки сартов. Т.: 1885, Ликошин Н. С. Пол жизни в Туркестане. Спб.:1916 ва бошқалар.
- 14."Ўрхун-Енисей" ёдгорликлари, "Девону луғатит турк", Юнон-рим тарихчиларининг асарлари таркибидаги фольклор ва тарихий материаллар, ҳамда 18-19-асрларда яратилган халқ китоблари назарда тутилади.
- 15.Путилов Б.Н. Историко-фольклорный процесс и эстетика фольклора. Проблемы фольклора. М.: "Наука", 1975, с.18
- 16.Ойсулув. Достон. Қўлёзма варианты, айтувчи: Рўзи бахши Қултўра ўғли, ёзиб олувчи: Абдиолим Эргашев. 3-умумий дафтар, 249-саҳифа, 1979.
- 17.Эргашев А. Шерабадская дастанная школа. АКД, Т.:1991, с.14-15.
- 18.Алпомиш ва Рустамхон. Т.:Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985, 13-бет.

19. Богатьрев И.Г. Вопросы теории народного искусства. М.:»Искусство», 1971., стр. 393.

20. Тошкент Давлат маданият институти ўқитувчи ва талабалари билан 1983-90 йиллар орасида ўтказилган фольклор-этнографик экспедицияси архиви материалларидан.

21. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. O‘quv qo‘llanma. T.: “MUMTOZ SO‘Z”-2010. 248 b.

22. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari . O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan” - 2009. 192 b.

23. Jo‘rayev M., Eshonqulov J.. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan texnologiyalar” -2017. 192 b.

24. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. T.: “Aloqachi” - 2008. 560 b.

25. K.Imomov. O‘zbek xalq nasri poetikasi. T.: “Fan” - 2008. 252b.

26. M.Inoyatov. O‘zbek xalq ijodiyoti an‘analari. T.: -2010. 132b.

27. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. T.: -2006. 216 b.

28. F.Жаҳонгиров. Ўзбек болалар фольклори. Т: “Фан”, 1975.

